SCIENCE SHINE
ILM NURI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL | XALQARO ILMIY JURNAL | МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

ABSTRACT

This international scientific journal is created for new scientific research.

Articles are accepted in the following areas:

- specific and technical directions
- social directions
- directions of philology
- pedagogic directions
- directions of discovery and invention
- natural science majors



ISSUE 7

JUNE 30

2023

Google Scholar zenodo OpenAIRE doi WORLD of JOURNALS

http://science-shine.uz



INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

SCIENCE SHINE

Issue 7

30. 06. 2023

International scientific journal

“SCIENCE SHINE”

Bosh muharrir:
D. Z. Olimjonov

Jurnal bir oyda bir marta chop etiladi.

Jurnal

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 16-fevralda

№063974 sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan

Maqola ko’chirilib bosilganda, manba ko’rsatilishi shart

Aloqa uchun:
Telefon: +99899 011 6303
E pochta:
scienceshine@mail. ru

Veb sayt:
http://science-shine.uz/

Tahrir kengashi:

Xurshid Jumanazarov Sirojiddinovich
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Mamatov Obidxon Vaqqosovich
Namangan davlat universiteti “Milliy g‘oya, ma‘naviyat va huquq asoslari” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi

Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Jo‘rayeva Sobira Eshqurbonovna
O‘zMU jurnalistika fakulteti, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Bazarov Otabek Odilovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD

Azizov Olimjon Toxirovich
Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasi dotsenti

Abdullayev Ravshan Inomjon o’g’li
O’zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti ilmiy xodimi

G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi
Namangan davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi

Haydarova Umida Xojiakbar qizi
Farg‘ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi

XROM (III) DAN IBORAT SANOAT OQOVA SUVLARINI TOZALASH

Buta Oralovich Xushvaqtov
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti, katta o‘qituvchi
b.khushvaktov@samdaqi.edu.uz

Murod Namazovich Mirzayev
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya: Muhit ko‘rsatkichi *pH* ga bog‘liq holda sanoat korxonalaridan hosil bo‘ladigan ishlab chiqarish oqova suvlaridagi xrom (*III*) va metall ionlari *pH* muhitining har xil qiymatida kam eriydigan birikmalarini hosil qilishi o‘rganilgan. Shunday qilib, ko‘p birikmali tizimlardan kam eriydigan metall birikmalarini elektroflotasiya qilish texnologiyasini ishlab chiqishda maqbul holatlarni tanlash oddiy emas, balki muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *pH*, elektroflotatsiya, kimyoviy, membrana, sorbsiya, metal ionlari, galvanika, flocculant, fizik, texnologik, koagulyasiya.

Annotation: It has been studied that production from industrial enterprises, depending on the environmental indicator, produces low-soluble compounds of chromium (*III*) and metal ions in wastewater at different values of the environment. Thus, in the development of technology for electro flotation of metal compounds with low solubility from multi-compound systems, the choice of optimal states is one of the important tasks, and do not simple.

Keywords: *pH*, electroflotation, chemical, membrane, sorption, metal ions, galvanic, flocculant, physical, technological, coagulation.

Sanoat korxonalarining jadal sur’atlar bilan o‘sishi natijasida hosil bo‘ladigan har turdagi oqova suvlarni tozalash shu kunga qadar dolzarb mavzu bo‘lib kelmoqda, shuning uchun ishlab chiqarish korxonasi oqova suvini tarkibi turlicha bo‘lganligi sabab har xil turdagi sanoat korxonalaridan turlicha tarkibli oqova suvlar hosil bo‘ladi.

Suv havzasining muhofaza qilish muammosini, asosan ushbu hududlardagi ifloslangan oqova suvlarni tozalash texnologiyasi va inshootlari hal etadi.

Hozirgi kunda, oqova suvni tozalashda, eng yangi texnologiyalar bilan ta’minlanish holati yetarli darajada yuqori emas. Amaldagi inshootlar har doim ham suv havzalariga tashlanadigan oqova suv, standart talabiga javob bermaydi.

Keyingi yillarda elektro – kimyoviy, membrana, sorbsiya va boshqa usullar yordamida oqova suvlarni tozalash va qayta ishlatishning tobora samarali usullari ishlab chiqilmoqda va joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, oqova suvlarni tozalash samaradorligiga talablar yuqori va murakkabdir, shuning uchun har doim ham iqtisodiy jihatdan oqlamaydigan texnologik va texnik yechimlardan foydalanishga olib keladi, ularni amalga oshirishda katta kapital xarajatlarni sarflash talab etiladi.

Adabiy ma'lumotlarga asoslanib, oqova suvni tozalash jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun 3 guruh usullarga ajratish mumkin: kimyoviy, fizik va texnologik. Eng keng tarqalgan kimyoviy usullarga quyidagilar kiradi: bular *pH* ni boshqarish, koagulyasiya, flokulyasiya, cho'ktirish. Fizik usulga, oqova suvni magnit va elektromagnit maydon, ultratovush va ionlashtiruvchi nurlantirishlar kiradi. Texnologik usulga reagent va uning ulushini qo'laylashtirish va tozalanadigan suvga uni kiritish ketma – ketligi, qurilma tuzilishini takomillashtirish, jadallashtirishning gidrodinamik holatini qo'laylash va boshqalar kiradi

Shu bilan birgalikda, tubdan yangi yo'nalishlar talab qilinadi. Ushbu yondoshuvlardan biri jadallashtirish usullarini ishlab chiqish va mavjud oqova suvlarni tozalash jarayonlarining samaradorligini ko'paytirish hamda amalga oshirishdir. Bu holatda, jadallashtirish jarayonining tezligini oshiradi, tozalash inshootlari va ularning unumdorligi, ishlatilish va oqova suvni tozalash xarajatlarini kamaytiradi.

Shu nuqtai nazardan olganda ularning tarkibidagi har iflosliklardan tozalash masalaga yechim topish maqsadida, xromdan iborat bo'lgan, sanoat oqova suvlarini tozalashda olib borilgan natijalarni taqqoslab chiqamiz.

Asosan xromdan iborat oqova suv qaysi sanoat korxonaaridan hosil bo'lishiga quyidagilar kiradi.

Xrom birikmalaridan iborat ifloslangan oqova suvlar, metall va ularning qotishmalarini kimyoviy va elektrokimyoviy ishlov berish natijasida, gal'vanika ishlab chiqarish jarayonidan hosil bo'ladi. Gal'vanika ishlab chiqarishda asosan mahsulotlarni xromlash jarayonlarini yuvishda asosan uch valentli xrom birikmalar hosil bo'ladi.

Bundan tashqari teriga ishlov berish sanoatida xromdan iborat oqova suvlar terini oshlash jarayonidan hosil bo'ladi.

Shu bilan birgalikda to'qimachilik sanoatlarida xromdan iborat oqova suvlar jun va paxta iplari hamda matolar va tolalarni tayyorlash bo'yash natijasida hosil bo'ladi.

Shuningdek, qalayni kimyoviy tozalash uchun siyog‘ va bo‘yaqlar ishlab chiqarish natijasida xromdan iborat oqova suvlar metallurgiya korxonalaridan paydo bo‘ladi.

Galvanika, teriga ishlov berish, to‘qimachilik, metallurgiya va kimyo sanoati korxonalari asosan xromdan iborat oqova suv manbalari hisoblanadi.

Kam eruvchan xrom (III) birikmalarni elektroflotasionli ajratish jarayonini tekshirish tadqiqot natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, turli xil o‘rganilgan tizimlar uchun ajratish darajasi juda katta farq qiladi

Flokulyantlar ishtirokida bir necha millimetrgacha bo‘lgan zarracha agregatlari hosil bo‘lishi mumkin, bu ularning samarali elektroflotasionli ajratishga yordam beradi. Tozalanadigan suv tarkibiga qarab flokulyantlarning optimal ulushi 2 dan 20 gacha bo‘ladi.

Sanoat oqova suvlarni tozalash amaliyotida ikki yoki undan ortiq tarkibiy qismlardan iborat ko‘p birikmali tizimlar eng ko‘p uchraydi. Ko‘p birikmali tizimlar kam eriydigan metall birikmalarini ajratib olishda quyidagi variantlar mumkin:

- Metall ionlarining pH qiymatlariga yaqin bo‘lgan gidrooksid shaklida kam eriydigan birikmalar hosil qiladi, ya’ni minimal eruvchanlikning pH qiymatlari sezilarli darajada farq qilmaydi. Bunday aralashmalarga misollar ($Cu(II)-Zn(II)$; pH 9,5), ($Cr(III)-Fe(III)-Al(III)$; pH 7,0), ($Ni(II)-Fe(II)-Cd(II)$; pH 10,0 – 10,5).

- Metall ionlari har xil pH qiymatlarida gidrooksid ko‘rinishida kam eriydigan birikmalar hosil qiladi, bu birikmalarning minimal eruvchanligi pH qiymati ikki, uch yoki undan ortiq pH birliklarida farq qiladi. Bunday tizimlarga quyidagilar kiradi: 1) $Cr(III)-Cu(II)$, $Ni(II)$, $Zn(II)$; 2) $Cr(III)-Fe(II)$, $Ni(II)$, $Cd(II)$; 3) $Fe(III)-Cu(II)$, $Zn(II)$; 4) $Fe(III)-Ni(II)$, $Cd(II)$; 5) $Al(III)-Cu(II)$, $Zn(II)$; 6) $Al(III)-Fe(II)$, $Cd(II)$.

Shunday qilib, (1, 3, 5) tizimlarda minimal eruvchanlikning pH qiymatlari farqi 2,5 birlikni, tizimlar uchun (2, 4, 6) – 3 – 4 birligini tashkil qiladi. Bunday holatda, past pH qiymatlarida tizimning tarkibiy qismlaridan biri ion ko‘rinishida, ikkinchisi dispers holatda bo‘ladi. masalan pH 6 – 7 da $Cr(III)-Ni(II)$ tizimi uchun nikel ion ko‘rinishida bo‘ladi, xrom ionlari esa xrom gidrooksidini hosil qiladi.

- Metall ionlari kam eriydigan birikmalar hosil qiladi, ammo tizimning tarkibiy qismlaridan biri, masalan, qo‘rg‘oshin birikmalariga asoslangan aralashmalar kabi past flotasion faollikga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, ko‘p birikmali tizimlardan kam eriydigan metall birikmalarini elektroflotasiya qilish texnologiyasini ishlab chiqishda maqbul holatlarni tanlash

oddiy emas, balki muhim vazifadir. Xrom (III) ning kam eriydigan birikmalarini, shuningdek alyuminiy, rux, mis, nikel va temirning kam eriydigan birikmalarini birgalikda ajratish masalari ham qiziqish uyg‘otadi.

Dastlabki tajriba shuni ko‘rsatadiki, ikki birikmali tizimlar aralashmasining flotasiyalashda jarayon tezligi va qoldiq ulushi, birinchi navbatda, pH muhitining qiymatiga, birikmalarni nisbatiga, olinadigan ionlarning holatiga va flokulyantlarning mavjudligiga bog‘liq.

Quyida galvanika ishlab chiqarish sanoatining oqova suvlarini tozalashda amalda yuzaga keladigan har xil holatlarni aks ettiruvchi ba’zi tadqiqot natijalari keltirilgan.

Jadval – 1. $Cr(III)-Fe(III)$ ning dispers tizimidan flokulyant ishtirokida kam eriydigan xrom va temir birikmalarini qayta ishlash vaqtiga qarab elektroflotasiyalash bilan aeratish jarayonining ko‘rsatkichlari.

T/r	Vaqti, daqiqa	Xrom (III)		Temir (III)	
		Qoldiq ulushi, mg/l	Ajralish darajasi, %	Qoldiq ulushi, mg/l	Ajralish darajasi, %
1	2	2,2	89	1	98
2	5	1,7	91,5	0,6	97,3
3	8	0,3	98,6	0,4	98
4	10	0,2	99	0,34	98,3
5	12	0,3	98,6	0,39	98

Jadval – 1 ma’lumotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, maqbul elektroflotasiya holatida kam eriydigan xrom va temirdan iborat birikmalarni ajratishning maksimal darajasiga 10 daqiqa davomida erishishi keltirilgan.

Kam eriydigan xrom (III) birikmalarini va og‘ir metall ionlarini elektroflotasiyali ajratib olish jarayoniga nisbatan bizning asosiy vazifamiz jarayonning samaradorligi va tezligini oshirish uchun asosiy omillarni aniqlash, ularni boshqarish yo‘lini aniqlash, elektroflotasiyali jarayonini jadallashtirish va samaradorligini oshirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ильин В.И., Перфильева А.В. Очистка сточных вод от соединений хрома (III) с применением электрофлотatsiи: монография. – М.: Издательский центр РХТУ им. Д.И. Менделеева, 2014. – 104 с.

2. Buta Oralovich Xushvaqtov. (2023). OQOVA SUVLARNI TOZALASHDA HOSIL BO‘LADIGAN CHO‘KMALARGA ISHLOV BERISH. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(4), 24 – 27. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/765.

3. Jo‘rayev, O., Xushvaqtov, B., Artikboyev, X., & Samadov, J. (2023). AVTOZAVOD OQOVA SUVINI XROM BIRIKMALARIDAN TOZALASH USULINING TAHLILI. *Interpretation and Researches*, *1*(6). extracted from http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/188.

4. Перфильева А.В., Колесников В.А., Ильин В.И. Способ очистки сточных вод от ионов трехвалентного хрома // Успехи в химии и химической технологии: сборник научных трудов / Российский химико-технологический университет им. Д.И. Менделеева. – М.: РХТУ им. Д.И. Менделеева, 2013. – Том XXVII, № 7 (147). – С. 26–30.

5. Xushvaqtov, B., Mirzayev, M., & Asadullayev, F. (2023). SANOAT KORXONASI OQOVA SUVLARINI XROM (III) DAN TOZALASH. *Interpretation and Researches*, *1*(8). извлечено от http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/570

INTERNET TARMOG‘IDAN FOYDALANISHNI HUQUQIY JIHATDAN TARTIBGA SOLISHGA OID XALQARO STANDARTLARNI ISHLAB CHIQISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI

Sardor Abduxamidov Abduvali o‘g‘li
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tinglovchisi
abdukhamidovsardor1515@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqalada Internet tarmog‘idan foydalanishni huquqiy jihatdan tartibda solishda inson huquqlarini himoya qilish va kiberjinoyatchilikka qarshi samarali kurashishga oid xalqaro standartlarni ishlab chiqishning dolzarbligi hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, muallif maqolada internet tarmog‘ini kim boshqarishi kerakligi kabi masalaga to‘xtalib bu bo‘yicha o‘z qarashlarini bayon qilgan.

Kalit so‘zlar: Internet, inson huquqlari, internetni nazorat qilish, kiberjinoyatlar, karding, fishing.

Annotation: This article analyzes the relevance and importance of developing international standards for the protection of human rights and the effective fight against cybercrime in legally regulating the use of the Internet. Moreover, in the article, the author expressed his views on the issue of who should control the Internet.

Keywords: Internet, human rights, internet control, cybercrimes, carding, fishing.

Hozirgi kunda dunyoda hech bir davlat yoki mintaqa internetning ta’siri yoki u keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan zaifliklardan himoyalangan emas [1]. Bugun axborot texnologiyalari rivojlanishning shunday bosqichiga kirdiki, endilikda uni hech qanday kuch to‘xtata olmasligi tobora oydinlashib bormoqda.

Bunday jadal rivojlanish sharoitida internet tarmog‘ida bo‘ladigan munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, inson huquqlarini ta’minlash va kiberjinoyatchilikka qarshi kurash davlatlar va qator xalqaro tashkilotlar oldida o‘ziga xos qiyinchiliklarni va aytish mumkinki yechimi o‘ta murakkab bo‘lgan muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ilmiy ishlar tahliliga ko‘ra internet tarmog‘idan foydalanishda inson huquqlarini ta’minlash va xavfsiz onlayn muhit yaratish to‘g‘risida milliy olimlarimiz tomonidan o‘rganilmagan. Biroq, internet va internetda sodir etilayotgan kiberjinoyatlar bo‘yicha I.Rustambekov va F.E.Djurayev tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Bundan tashqari, ushbu maqolani yozishda muallif tomonidan chet ellik olimlarning ilmiy ishlariga murojaat qilindi. Jumladan, Edvard J.Svan, Kay Mathisen, Merten Reglitz kabilar internet huquqi, internet tarmog‘idan foydalanishga bo‘lgan huquq va internet tarmog‘idan foydalanishda inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tadqiqot olib borgan.

Tadqiqot olib borishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik usullaridan foydalanildi.

Internetni huquqiy jihatdan tartibga solish – bu hukumatlar tomonidan fuqarolar internetda nimalardan foydalanishi mumkinligi, nimalardan foydalanishi mumkin emasligi, tranzaksiyalar qanday amalga oshirilishi, kelishmovchiliklar qanday hal qilinishi va qonunlar hamda qoidalarning buzilishiga davlat qanday munosabatda bo‘lish kerakligini aks ettiruvchi bayonotlar va deklaratsiyalardir. Bu ko‘p hollarda foydalanuvchilarga internet orqali nimalarni qilishi mumkinligini tushunishga yordam beradi [2].

Internetni huquqiy jihatdan tartibga solishning dolzarbligini quyidagicha izohlash mumkin. Internet butun dunyoda keng tarqalmoda va internetdan foydalanuvchilar soni ham shiddat bilan o‘sib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida, avvalo, internet tarmog‘ida inson huquqlari buzilishining keskin oshishiga, shuningdek, kiberjinoyatlar sonining keskin o‘sishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, Internet tarmog‘ini faqatgina bir yoki bir nechta davlat qabul qilgan qonunlar bilan tartibga solish qiyin hisoblanadi. Aynan shu sababli ham internetni huquqiy jihatdan tartibga solishga oid xalqaro standartlarni ishlab chiqish hamda xalqaro hamkorlik juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, internetning global tabiati qaysi huquqni muhofaza qilish idoralari huquqiy munosabatlarda tarmoq bilan bog‘liq nizolarni hal qilishi va qaysi qonun qo‘llanilishini aniqlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli ham, Internet yer yuzidagidagi qonunlarning ishlashi haqidagi an’anaviy g‘oyalarni rad etadigan yangi huquqiy muhitdir [3].

Qayd etish kerakki, Internetdan foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solishga to‘sqinlik qilib kelayotgan ayrim muammolar mavjud, ularni yechmasdan turib bu ishni amalga oshirish imkonsiz hisoblanadi.

Misol uchun, bu yo‘ldagi asosiy muammolardan biri, Internetni kim nazorat qilishi kerakligi bo‘lsa, ikkinchisi, raqamli texnologiyalarning shiddat bilan takomillashib borayotganligi uni huquqiy jihatdan solishni murakkablashtirmoqda. Shuningdek, internetning hududiy chegaraga ega emasligi, istalgan davlat hududiga

hech bir to‘siqlarsiz va cheklovlarsiz kirib bora olishi ham o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqarmoqda. Quyida ushbu muammolardan ba’zilar haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Internetni kim nazorat qilishi kerak? Internetni bugungi kunga qadar 1998-yilda AQSh tomonidan tashkil etilgan Belgilangan nomlar va raqamlar uchun Internet korporatsiyasi (the Internet Corporation for Assigned Names and Numbers (keyingi o‘rinlarda ICANN deb yuritiladi)) nomli xususiy notijorat tashkiloti muvofiqlashtirib keladi. Ko‘pgina hukumatlar, xuddi telefon tarmog‘i kabi, Internet ham ko‘p tomonlama shartnoma asosida boshqarilishi kerak, deb hisoblaydi. Ularning fikricha, ICANN kibermakon ustidan Amerika gegemonligini ta’minlovchi vosita hisoblanadi.

Bu boradagi davlatlarning pozisiyalari turlicha bo‘lib, masalan, Braziliya va Janubiy Afrika hozirgi tartibni tanqid qilib keladi. Xitoy yangi xalqaro shartnoma tashkilotini yaratishga chaqiradi. Fransiya hukumatlararo yondashuvni istaydi va bu demokratik qadriyatlarga asoslangan bo‘lishi lozimligini urg‘uladi. Zimbabve hukumati mavjud internet boshqaruv tizimini “neokolonializmning bir ko‘rinishi” deb atadi.

Bundan tashqari, Xitoy, Braziliya va boshqa rivojlanayotgan davlatlar AQShning Internet ustidan hukmronligini tugatish va boshqaruvni BMT tizimiga o‘tkazishga chaqirib kelmoqda [4].

Hamma tushunadiki, Internet zamonaviy iqtisodiyotlar, jamiyatlar va hatto hukumatlar faoliyati uchun juda muhim hamda uni ishonchli va xavfsiz saqlanishidan barcha manfaatdor. Biroq, ayni paytda, ko‘plab hukumatlar bunday muhim manba ularning nazorati ostida emasligi va undan ham yomoni, u allaqachon hukmron mavqega ega bo‘lgan Qo‘shma Shtatlarning nazorati ostida ekanligidan xavotirda. Vashingtonning ushbu xavotirlarga javobi – xususan, Savdo vazirligining (2005-yil) iyun oyi oxirida e’lon qilingan bayonotiga ko‘ra, Qo‘shma Shtatlar Internet ustidan nazoratni cheksiz muddatga saqlab qolishni rejalashtirmoqda. Ushbu bayonot kutilganidek, g‘azab bilan qabul qilindi va keyingi bahs-munozaralarga zamin yaratdi [5].

Yuqorida ta’kidlanganidek, Internetning jadal rivojlanishi, foydalanuvchilar sonining tobora ortib borishi va deyarli cheksiz kontent almashish imkoniyatlari internetni huquqiy tartibga solish masalasini muqarrar ravishda keltirib chiqarmoqda [5]. Garchi internet tarmog‘ida inson huquqlarini himoya qilish va xavfsiz onlayn muhit yaratishga oid xalqaro miqyosdagi standartlar hanuzgacha ishlab chiqilmagan bo‘lsada, ushbu sohasida mintaqaviy darajadagi standartlarni ishlab chiqish harakatlari jadal davom etmoqda. Xususan, 2022-yilning 15-dekabrda Yevropa Ittifoqi davlatlari doirasida Yevropa Komissiya, Yevropa Parlamenti va Yevropa

Kengashi birgalikda “Raqamli o‘n yillikda raqamli huquq va prinsiplar to‘g‘risida”gi Deklaratsiya qabul qildi va bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, raqamli trasformatsiya davrida insonni asosiy o‘ringa qo‘yish, Yevropa Ittifoqi qadriyatlari hamda shaxslarning huquq va erkinliklarini xuddi oflayn rejimda bo‘lgani kabi onlayn rejimda ham hurmat qilinishini ta’minlash hisoblanadi.

Euronews sayti [6] e’lon qilingan maqolada keltirilishicha, mazkur Deklaratsiya Yevropa siyosatchilari uchun raqamli asrda huquqlar va demokratik qadriyatlarni himoya qilish yo‘lida barqaror yondashuvni belgilashda qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, va eng muhimi, Deklaratsiya “Raqamli asrda fundamental huquqlar Yevropa Xartiyasi”ning markaziy rolini ham kuchaytiradi. Bu huquqlar va demokratik qadriyatlarni himoya qilish va asosiy erkinliklar orqali innovatsiyalarni rag‘batlantirishdagi nozik rolini talqin qilish uchun yangi imkoniyatlar beradi.

Shuni ham qayd etish joizki, internetdan foydalanuvchilar sonining tinimsiz oshib borishi, internet orqali sodir etiladigan kiberjinoyatlar soni va ko‘lamiga ham jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Aksariyat ijtimoiy jihatdan og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar endilikda kibermakonda sodir etilmoqda.

Shu jihatdan internet tarmog‘i orqali sodir etilayotgan kiberjinoyatlarga ham to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Negaki mazkur toifadagi jinoyatlar internet foydalanuvchilarining huquqlarini xavfsiz amalga oshirish darajasini pasaytirmoqda.

BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, bu toifadagi jinoyatlar odatda quyidagi toifalarga bo‘linadi:

- kompyuter orqali sodir etiladigan jinoyatlar;
- kontent bilan bog‘liq jinoyatlar;
- mualliflik huquqining buzilishi bilan bog‘liq jinoyatlar va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasining 15.04.2022-yildagi O‘RQ-764-son “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonuni[7]ning 3-moddasida “kiberjinoyat” va “kiberhujum”ning huquqiy ta’rifi keltirilgan.

Kiberjinoyatchilik — axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig‘indisi hisoblanadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, global kiberxavfsizlik landshafti birgina Pandemiya davrida korxonalarning masofadan ish muhitiga o‘tishi tufayli 2020 yilda zararli dastur hujumlari 2019-yilga nisbatan 358% ga oshdi [8].

Shuningdek, 2023-yilda 33 milliard akkaunt (hisob) buziladi, bu kuniga 2328 ta, soatiga 97 taga to‘g‘ri keladi. Jami 8,000,000 kiberhujum qayd etilgan va o‘rtacha har 39 soniyada xakerlar hujumi sodir bo‘ladi [9].

Kiberhujum — bu kibermakonda apparat, apparat-dasturiy va dasturiy vositalardan foydalangan holda qasddan amalga oshiriladigan, kiberxavfsizlikka tahdid soladigan harakatlardir [10].

O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, kiberhujumlarning asosiy sababi, kiberjinoyatlar jinoyatchilar uchun trillion dollarlik sanoat bo‘lib, hujumlarning 43% kichik va o‘rta korxonalarga qaratilgan. Kiberjinoyatlar har yili kiberjinoyatchilarga 1,5 trillion dollar daromad keltiradi. IBM ma’lumotlariga ko‘ra, fishing kiberjinoyatlarning eng yaxshi hujum vektorlaridan biri bo‘lgan [11].

Fishing – bu o‘zga shaxsga tegishli login va parollarni o‘sha shaxsning ruxsatisiz jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritish harakati hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida esa fishing jinoyati ko‘p sodir etilayotgan bo‘lsada, ammo u asosan boshqa shaxslarning plastik kartasidan pullarini yechib olishga qaratilgan karding jinoyatini sodir etishga olib boruvchi yo‘l vazifasini o‘tamoqda.

Bugungi kunda kiberxavfsizlikni ta’minlashga oid davlatlar tomonidan qator xalqaro va mintaqaviy konvensiya va shartnomalar imzolangan va ratifikatsiya qilingan. Bularga misol qilib, 2000-yilda qabul qilingan Palermo konvensiyasi deb ham ataladigan BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi (garchi Konvensiyada kiberjinoyatlar haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilmagan bo‘lsa-da, uning qoidalari kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda juda dolzarbdir), Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (1989), Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shimcha protokol (2001) shular jumlasidamdir.

Qayd etish kerakki, hozirgi kunda BMT tomonidan “Kiberjinoyatlar to‘g‘risidagi Konvensiya”ni qabul qilish bo‘yicha muzokaralar olib bormoqda, bu butun dunyo bo‘ylab milliardlab odamlarning inson huquqlariga ta’sir qiladi. Yangi Konvensiyani muvofiqlashtirish uchun BMT Bosh Assambleyasi 2019-yil dekabr oyida 74/247-sonli rezolyusiyasini qabul qildi va “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan jinoiy maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish bo‘yicha keng qamrovli xalqaro konvensiyani ishlab chiqish” bo‘yicha maxsus hukumatlararo qo‘mita tuzdi [12].

Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash sohasida Yevropa Kengashi ham mintaqaviy miqyosda faol rol o‘ynaydi. U Yevropa Ittifoqidan alohida va ajralitilgan tashkilot bo‘lib, Yevropa Ittifoqiga qaraganda ancha ko‘proq a’zo ega. Kengashning asosiy

missiyasi inson huquqlarini himoya qilishdir, lekin u demokratiya, qonun ustuvorligi va yagona standartlarni ilgari surib keladi. Ushbu tashkilot tomonidan, 2001-yilda Budapesht konvensiyasi nomi bilan taluvchi “Kiberjinoyatlar to‘g‘risidagi konvensiya, Kompyuter tizimlari orqali sodir etilgan irqchilik yoki ksenofobik xarakterdagi xatti-harakatlarni jinoyat deb hisoblash to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shimcha protokol (2003), Bolalarni jinsiy ekspluatasiya va jinsiy zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiya (2007) va “Kengaytirilgan hamkorlik va elektron dalillarni oshkor qilish to‘g‘risidagi Kiberjinoyat to‘g‘risidagi konvensiyaga ikkinchi qo‘shimcha protokol” (2022) shular jumlasidandir.

Qayd etish kerakki, bugunga qadar O‘zbekiston Respublikasida ham Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Jumladan, 25.12.2007-yildagi O‘RQ-137-son “Axborotlashtirish va ma’lumotlarni uzatishdagi qonunga xilof harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarligi kuchaytirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”[13]gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida kompyuter tizimidan noqonuniy foydalanish bilan bog‘liq xavfli qilmishlar jinoyat deb belgilandi hamda Jinoyat kodeksi ga “Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” nomli XX^1 bob bilan to‘ldirildi.

Shuningdek, 2022-yilning 15-aprelida O‘RQ-764-son “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida” [14]gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni ilk bor qabul qilindi.

Bundan tashqari yuqorida qayb etib o‘tilganidek, 11.12.2003-yildagi 560-II-son “Axborotlashtirish to‘g‘risida”[15]gi qonuni mavjud bo‘lib, mazkur qonun orqali axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlar tartibga solib kelinmoqda.

Tahlillar shuni korsatmoqdaki, kiberjinoyatlar – qariyb 90% latentligi, aybdorning shaxsini, hodisa joyini aniqlash murakkabligi, hudud jihatidan aksariyati boshqa davlatda sodir etilishi (transchegaraviyligi) hamda dalillarni to‘plash qiyinligi xususiyatlariga ko‘ra aybdor shaxslar aniqlanmasdan qolish holatlari kuzatilmoqda [16]. Shuningdek, zararning kam miqdordaligi yoki jabrlanuvchiga ta’sir ko‘rsatmasligi ya’ni jabrlanuvchining moddiy ahvolini yomonlashtirmasligi ham bunga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, davlatlar tomonidan internet tarmog‘ida inson huquqlari buzilishlarini oldini olish va tarmoq foydalanuvchilari uchun xavfsiz onlayn muhit yaratish hamda kiberjinoyatchilikka qarshi samarali kurashishga oid xalqaro standartlar ishlab chiqish maqsadida avvalo internetni kim boshqarishi kerakligi borasida konsensusga kelishi lozim. Fikrimizcha, internetni kim

boshqarishi kerakligi masalasini hal qilishni keyinga surish bilan faqatgina internet tarmog‘ida tobora ko‘proq inson huquqlari buzilishiga va kiberjinoyatlar soni va ko‘lamining o‘sishiga yo‘l ochib berilmoqda. Shu nuqtai nazardan, juda ko‘pchilik davlatlarning jiddiy noroziligiga sabab bo‘layotgan internetni kim boshqarishi kerakligi masalasida faqatgina bir davlatning nazorati ostida qoldirmaydigan yechimni ishlab chiqish va amaliyotga samarali tadbiq etish bugungi kun uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Internet Law. A concise guide to regulation around the world. Edward Swan. Kluwer Law International B.V., The Netherlands, 2022

2. Internet Law. A concise guide to regulation around the world. Edward Swan. Kluwer Law International B.V., The Netherlands, 2022

3. Some problems of the legal regulation of the Internet jurisdiction. Rustambekov I. (Republic of Uzbekistan). Yuridik fanlari nomzodi, 2016-yil yanvar.

4. Who Will Control the Internet? https://archive.nytimes.com/www.nytimes.com/cfr/international/20051101facomment_v84n6_cukier.html?_r=1&oref=slogin;

5. Yuqoridagi manba;

6. THE DECLARATION ON EUROPEAN DIGITAL RIGHTS AND PRINCIPLES. https://digi-con.org/the-declaration-on-european-digital-rights-and-principles-a-first-analysis-from-digital-constitutionalism/;

7. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjati ma’lumotlari milliy bazasi. Lex.uz internet sayti. https://lex.uz/uz/docs/-5960604;

8. The Latest 2023 Cyber Crime Statistics (updated June 2023) https://aag-it.com/the-latest-cyber-crime-statistics/;

9. 90+ Cyber Crime Statistics 2023: Cost, Industries & Trends. https://www.getastra.com/blog/security-audit/cyber-crime-statistics/#:~:text=to%20phishing%20attacks.-,How%20often%20does%20cyber%20crime%20happen%3F,hacker%20attack%20every%2039%20seconds;

10. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjati ma’lumotlari milliy bazasi. Lex.uz internet sayti. https://lex.uz/uz/docs/-5960604;

11. 90+ Cyber Crime Statistics 2023: Cost, Industries & Trends. https://www.getastra.com/blog/security-audit/cyber-crime-statistics/#:~:text=to%20phishing%20attacks.-

,How%20often%20does%20cyber%20crime%20happen%3F,hacker%20attack%20every%2039%20seconds;

12. United Nations Cybercrime Treaty. https://www.eff.org/ru/issues/un-cybercrime-treaty;

13. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjati ma’lumotlari milliy bazasi. Lex.uz internet sayti. https://lex.uz/docs/1295262;

14. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjati ma’lumotlari milliy bazasi. Lex.uz internet sayti. https://lex.uz/uz/docs/-5960604;

15. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjati ma’lumotlari milliy bazasi. Lex.uz internet sayti.;

16. Kiberjinoyatlar tushunchasi, belgilari va shaxsiy izquvarlik mahorati orqali ularni oldini olish va fosh etishning ahamiyati haqida ayrim mulohazalar, F.E.Djurayev, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Mahistratura boshqaruv fanlari kafedrasi dotsenti, podpolkovnik, 2022.

UMUMDAVLAT SOLIQLARI VA DAROMADLARIDAN MAHALLIY BUDJETLARGA AJRATMALAR HISOBI

Feruza Hojiqulova Dona qizi
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi
feruza.moliya@gmail.com

Otabek Eshquvvatov Abdullayevich
Termiz davlat universiteti talabasi

Biz yurtimizda barqaror iqtisodiyot qurmoqchi bo‘lsak, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar kabi boy va farovon yashamoqchi bo‘lsak chala-chulpa uzaki emas, balki qanchalik qiyin va murakkab bo‘lmasin haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o‘tishimiz shart.

Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahalliy budjetlar daromadlari hisob varag‘iga tushuvchi, umumdavlat soliqlari va daromadlaridan ajratmalar, Respublika budjetida turuvchi budjet tashkilotlarni moliyalashtirish, Respublika budjeti hisobidan ajratilgan mablag‘lar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Mahalliy budjet, moliya organi, umumdavlat soliqlari, daromad.

Annotation: In this article, there is an opinion about the income of local budgets, deductions from state taxes and revenues, financing of budget organizations in the republic budget, funds allocated from the republic budget.

Keywords. Local budget, financial authority, state taxes, revenue.

Budjet hisobi davlat budjeti ijrosining buxgalteriya hisobidir. Budjet hisobi davlat budjeti ijrosi bilan bog‘liq bo‘lgan hamma operatsiyalarni qamrab oladi va mazkur ijro jarayonida budjetning holatini tavsiflashni ta’minlaydi. Budjet hisobi orqali xalq xo‘jaligi hamma tarmoqlarining davlat budjeti bilan o‘zaro aloqasi aks ettiriladi.

Barcha moliya organlari budjet ijrosining buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozish tizimi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan yo‘riqnomasiga muvofiq yagona hisoblar ro‘yxati bo‘yicha yuritadi. O‘zbckiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan moliya organlaridagi budjet ijrosining buxgalteriya hisobi bo‘yicha yo‘riqnomada hisoblar ro‘yxati va hisoblar

korrespondensiyasi bclgilanadi, ayrim opcratsiyalarni hisobga olish tartibi aniqlanadi, budjet ijrosining buxgalteriya hisobi uchun moliya organlari tomonidan qo‘llaniladigan registrlar va hujjatlaming shakllari kcltiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan budjet ijrosining joriy buxgalteriya hisobi uchun barcha moliya organlariga yagona hisoblar ro‘yxati (rejasi) belgilangan. Hisoblar ro‘yxati-bu budjet ijrosi bo‘yicha operatsiyalarni qayd qilish uchun kerak bo‘lgan joriy buxgalteriya hisobining barcha hisoblarining tartibga solingan ro‘yxatidan iboratdir.

Mahalliy moliya organi faqat mazkur budjetga tushgan daromadlarinigina emas, balki respublika budjetiga o‘tkaziluvchi daromadlami ham nazorat qiladi. Shuning uchun bank muassasasi unga qaysi budjetga tushishidan qat’iy nazar barcha daromadlar hisobvaraqlari bo‘yicha ko‘chirmalami ham mahalliy moliya organlariga jo‘natadi. Davlat budjetiga kelib tushgan soliq va boshqa to‘lovlar hisobidan Respublika budjetiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga hamda mahalliy budjetlarga o‘rnatilgan miqdorda ajratma qilinadi. Davlat budjeti daromadlari hisobiga kclib tushgan kunlik soliq va boshqa to‘lovlar hisobidan Rcspublika budjetiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga ajratmalar banklar tomonidan dasturiy ta’minot asosida belgilangan foiz miqdorida amalga oshiriladi. Zarur bo‘lgan hollarda, mahalliy budjetga ajratmalar qo‘l yordamida amalga oshirilishi mumkin. Davlat budjeti daromadlari hisobidan Respublika budjetiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga ajratmalar bo‘yicha buxgalteriya o‘tkazmalari memorial orderlar bilan rasmiylashtiriladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga kunlik ajratmalar to‘g‘risidagi vedomost moliya organlariga hamda budjet hisobvarag‘idan ko‘chirma bilan birga davlat soliq organlariga beriladi. Davlat budjeti daromadlari hisobidan Respublika budjetiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga ajratmalar alohida har bir soliq va boshqa to‘lovlar bo‘yicha, ularning shaxsiy xisob varaqlaridan ajratma qilinadi. Umumdavlat soliqlari va daromadlaridan mahalliy budjetlarga ajratmalar respublika budjeti hisobiga o‘tkaziladi va bu budjetning xarajatlari ko‘rinishida ifodalanadi. Mahalliy budjetlarga umumdavlat soliqlari va daromadlaridan yuqori budjet tomonidan tasdiqlagan foizlar asosida ajratmalar qilinadi, moliya organiga bank muassasalari tomonidan tuziladigan ajratmalar vedomosti beriladi. Mahalliy budjetlar daromadlari hisob varag‘iga tushuvchi, umumdavlat soliqlari va daromadlaridan ajratmalar hisobi, mahalliy sharoitlarga bog‘liq holda o‘matiluvchi shakllar bo‘yicha hududiy moliya organlari tomonidan tizimsiz olib boriladi. Umumdavlat soliqlari va daromadlaridan ajratmalar

bu shaklda har bir quyi budjet bo‘yicha hamda mazkur budjetning quyidagi ko‘rsatkichlariga binoan: soliq yoki daromadning nomi; ajratma uchun o‘matilgan foiz; ajratilgan summa, hisobga olinadi. Shaklga yozuvlar bank muassasalaridan mahalliy budjetlarga ajratmalar vedomosti olingandan keyin amalga oshiriladi. Yozuv qilinishidan oldin hududiy moliya organining buxgalteriya xizmati, vedomostda ko‘rsatilgan ajratmalar summasini, tasdiqlangan budjet bo‘yicha o ‘matilgan foizlarga mos kelishini tekshiradi. Har bir oyning tugashi bilan mazkur shakl bo‘yicha oy uchun va yil boshidan buyon yakuniy jamlangan summalar hisoblab chiqiladi. Har bir budjet bo‘yicha umumdavlat soliqlari va daromadlaridan ajratmalar summasi, har oyda quyi budjetlar ijrosi haqidagi oylik hisobotlar bilan taqqoslanib boriladi. Bundan tashqari, umumdavlat soliqlari va daromadlaridan butun hududiy budjet bo‘yicha tushgan va qilingan ajratmalar summasi, bank muassasalarining oylik hisobotlari m a’lumotlari bilan o‘zaro solishtiriladi. Mahalliy budjet mablag‘larini hisobvarag‘idan summalami hisobdan chiqarish, bank muassasalari tomonidan, mazkur budjet ijrosini ta’minlovchi tegishli moliya organlarining to‘lov topshiriqnomalariga binoan amalga oshiriladi. Mahalliy budjet mablag‘Iarini hisobvarag‘idan naqd pul mablag‘larini berish man qilinadi. Mahalliy budjet mablag‘lari hisobvarag‘idan moliya organining to‘lov topshirig‘isiz bank muassasalari, umumdavlat soliqlari va daromadlaridan ajratmalar summasidan, shu ko‘rsatilgan ajratmalami tartibga solishda aniqlangan mahalliy budjetlarga ortiqcha o‘tkazilganlami hisobdan chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М Эркин ва фаровон Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.Тошкент. “Ўзбекистон” 2016 йил.

2. Мирзиёев Ш.М. “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”.–Тошкент: Ўзбекистон,2017-йил.

3. Солиев А.С. ва бошқалар. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. Тошкент: УзМУ 2003 й., 8 бет.

4. Ostonaqulov M. Budjet hisobi. Toshkent « Talqin » 2008yil

5. O’zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 2018 yil 26 dekabr.

6. Остонахулов М. Бухгалтерский учет исполнения сметы расходов бюджетных организatsій. -Т .: Здравплюс/ЮСАИД, 2004.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MENTAL ARIFMETIKA DARSINI O‘QITISH USULLARI

Shohnazar Avazxonov Gulnazarzoda
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya: ushbu maqolada sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda mental arifmetikadan foydalanish metodikasi haqida gap brogan.

Kalit so‘zlar: mental arifmetika, boshlang‘ich ta’lim, ta’lim sifati, ta’lim shakli.

Annotation: this article talks about the method of using mental arithmetic in the organization of extracurricular activities.

Keywords: mental arithmetic, primary education, quality of education, form of education.

O‘qituvchilarning aqliy arifmetika haqidagi fikrlari ta’lim platformasi asoschisi Ivan Kolomietsning so‘zlari bilan almashtirilishi mumkin. U shunday deb ta’kidlaydi: "Iqtidorli bolalar uchun aqliy arifmetika bilan shug‘ullanish zararli emas, lekin unchalik foydali emas: vaqtni haqiqatan ham rivojlanayotgan narsaga sarflash mumkin - masalan, tezlikni qo‘shish va ayirishdan ko‘ra qiziqroq bo‘lgan haqiqiy matematikaga." Ushbu bayonot bilan men butunlay roziman! Shunday qilib, aqliy arifmetika 4 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishning o‘ziga xos usuli bo‘lib, aqliy hisoblash tizimiga asoslangan.

Bu usul yordamida bola bir necha soniya ichida har qanday arifmetik masalani (qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish, sonining kvadrat ildizini hisoblash) kalkulyatordan ko‘ra tezroq yecha oladi. Aqliy o‘rganishga qoyil qolmaslik kerak. Chunki, psixologlarning fikriga ko‘ra, bir faoliyatga keraksiz ishtiyoq chaqaloqning boshqa ko‘nikmalari va qobiliyatlarini kuchaytiradi. Krossvordlar yechish, chet tillarini o‘rganish, kitob o‘qish orqali miyangizni mashq qilishingiz mumkin. Menimcha, aqliy arifmetika amaliyotining o‘zi bolaga zarar etkazishi mumkin emas. Ammo ikki yoki uch yilni ushbu texnikani o‘rganishga va unga katta miqdorda pul sarflashga arziydimi, buni o‘zimiz hal qilamiz.Qo`shish va ayirish bo`yicha topshiriqlarni qo`shma usulda bajarish mumkin. Ko‘p xonali raqamlar, Ko‘p xonali sonlarni oddiy qo‘shish va ayirish.Zamonaviy dunyoda bolalar gadjetlar, kompyuter dasturlari bilan osonlikcha engishadi, lekin shu bilan birga ular maktabdagi yaxshi natijalar bilan maqtana olmaydi. Psixologlarning ta’kidlashicha, ba’zi bolalarda konsentratsiya, e’tibor va o‘rganish uchun motivatsiya etishmasligi mavjud. Shu

sababli, ota-onalar bolani biron bir fanni o‘rganishga qiziqtirishlari va uning biron bir fanga moyilligini tan olishlari qiyin.

Ajablanarlisi shundaki, diqqat va qiziqishning asosiy muammosi aqliy arifmetika bo‘yicha mashg‘ulotlar orqali hal qilinadi, bu bolaning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, sizni eslab qolishga, o‘rganishga, tushunishga majbur qiladi. Mental arifmetikaning foydasi allaqachon ko‘plab xorijiy tadqiqotlar tomonidan tasdiqlangan. Hozirda Rossiyadagi bolalar ham bu fan bilan tanishmoqda. Mental arifmetika - bu turli xil hisoblardan foydalangan holda Osiyo hisoblash texnologiyasidan foydalanadigan aql-zakovatni uyg‘un rivojlantirish usuli - abak (soroban). Mental arifmetika bo‘yicha o‘quv dasturi abakusda barmoqlar bilan mexanik mashqlar, aqliy arifmetika va diqqatni jamlash, diqqat va mantiq uchun mashqlardan iborat. Fikrlash tezligini va ijodiy fanlar qobiliyatini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Bolalar va kattalar uchun javob beradi. Darslarning natijasi - kalkulyatordan foydalanmasdan ongingizda ko‘p xonali raqamlarni tezda hisoblash qobiliyati. Ko‘pincha aqliy arifmetika bo‘yicha mashg‘ulotlar aqliy matematika deb ataladi.Eng katta natija 4 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan aqliy arifmetikani o‘rganishdir. Bu tananing yangi ma’lumotlarni idrok etish biologik imkoniyatlari bilan bog‘liq. Ammo kattaroq yoshda aqliy arifmetikani o‘rganish yanada katta samara beradi! Mashqlar tufayli qo‘llarning motorli ko‘nikmalari tiklanadi va miyaning nevroplastikligi oshadi. Abakus hisoblari bilan ishlash. Hisoblar bo‘yicha mashg‘ulotlar paytida nozik vosita ko‘nikmalari rivojlanadi, interhemisferik aloqalarning rivojlanishi rag‘batlantiriladi. Abakusda texnik mashqlar tufayli fikrlash tezligi, qat’iyatlilik oshadi, diqqatni jamlash rivojlanadi. Mashg‘ulotning birinchi bosqichida bola abakusda hisoblashning to‘g‘ri texnikasini o‘rganadi va dastlab abakusda barcha operatsiyalarni o‘zlashtiradi. Ongda hisob-kitoblar yoki aqliy hisob. Bu bola allaqachon majoziy hisob-kitoblarga tayyor bo‘lganda, abakus ustidagi mashqlar tizimining natijasidir. Aqliy hisoblashning asosi aqliy xaritani ongda vizualizatsiya qilish va raqamlarni ifodalamasdan bonsuklar bilan operatsiyalardir.Mashqlarni to‘g‘ri bajarganingizdan so‘ng, ko‘rinadigan natija misollarni hayratlanarli darajada tez hisoblash bo‘ladi. Garchi aqliy arifmetika orqali aqlning rivojlanishi ancha chuqurroq va samaraliroq bo‘lsa-da. Sinfdagi mashqlar orqali shakllangan asabiy aloqalar bolada umr bo‘yi qoladi. Va bu shuni anglatadiki, bola tezda diqqatni jamlashni, ma’lumotni tasavvur qilishni va tezda o‘rgandi ma’lumotlar ustida ishlash.

Maktabda fanlar asosan miyaning chap yarim sharini rivojlantirishga qaratilgan va umuman ijodiy salohiyatni amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan o‘ng yarim

sharning rivojlanishini amalda istisno qiladi. Aqliy arifmetika tufayli bolaning miyasi barkamol rivojlanish dasturini o‘z ichiga oladi - chap yarim sharning analitik qobiliyatlari va o‘ng yarim sharning vizual-fazoviy qobiliyatlari, bu butun intellektning tezroq rivojlanishiga yordam beradi. Mental arifmetika bolaga raqamlar bilan do‘stlashishga yordam beradi. Zerikarli qoidalarni yodlash o‘rniga, bola o‘ynashni boshlaydi. Stol o‘yinlari, mantiqiy mashqlar va sinfdagi qidiruv elementlari o‘rganishni yakunlaydi. Abacus markazida ishlab chiqilgan yoshga oid o‘quv dasturlari tufayli bolalar mashg‘ulotlarga kelishdan mamnun.

Aqliy hisoblash yuqori darajadagi konsentratsiyani talab qiladi. Birinchidan,bolalar qat’iyatlilik va konsentratsiyani abakus hisoblarida, flesh-kartalardan foydalangan holda, keyin esa aqliy operatsiyalarni bajarishda rivojlantiradilar. Texnikani bir marta o‘zlashtirgan bolalar undan nafaqat matematik masalalarni yechishda, balki maktabning boshqa fanlarida ham foydalanadilar.Bola aqliy hisoblaganda, u nafaqat ma’lum tasvirlarni, balki hisoblash qoidalarini ham yodda tutishi kerak. Soddalashtirilgan shakl tufayli - abak tasviri - bu hisoblar og‘ir va og‘ir emas, aksincha, bolaga tasavvur bilan o‘ynashga yordam beradi va shu bilan vizual-fazoviy fikrlashni rivojlantiradi, masalan, hal qilish uchun zarur bo‘lgan. geometrik masalalar. Bundan tashqari, aqliy hisob-kitoblar bola uchun muammoga aylanmaydi. Bu, ayniqsa, agar bola maktab matematik diktantlarini bajara olmasa va doimiy stressni boshdan kechirsa, to‘g‘ri keladi.O‘rganish jarayonida bola doimo tasvirlar bilan ishlaydi, ko‘plab rasmlar va harakatlarni eslab qoladi va bundan tashqari, buni butunlay bo‘shashgan muhitda bajaradi. Ota-onalar farzandining "bir qulog‘iga tushib qolgan, ikkinchisidan uchib ketgan" deb shikoyat qilganda - bu xotira muammosi (vizual va qisqa muddatli, operativ xotira).

Doimiy ravishda sinfda mashq qiladiganlar uchun bu muammo tugaydi.Mashqlarni bajarish orqali bola diqqatni jamlagan holda tez harakat qilishni va bir vaqtning o‘zida bir nechta harakatlarni bajarishni o‘rganadi. Harakatlarni bunday muvofiqlashtirish testlar va imtihonlarda yordam beradi, bu erda bola ko‘pincha stress tufayli yo‘qoladi. Matematik bo‘lmagan ko‘nikmalarni rivojlantiradi.Mental arifmetika va asosiy mashqlarning predmeti asosan arifmetikani o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, shunga qaramay, sinflarda juda foydali ijtimoiy ko‘nikmalar - natijalarga erishish va g‘alaba qozonish, boshlangan narsani oxirigacha etkazish, tengdoshlar o‘rtasida muloqot qilish qobiliyati rivojlanadi. tugallangan natijani ishlab chiqarish va boshqalar. Bolalar o‘z yutuqlariga ishonchlari ko‘proq bo‘ladi, psixologik stressni engillashtiradi.Ushbu texnika yordamida bola teng

darajada muvaffaqiyatli hisoblash, chizish, chet tillarini o‘rganish va aniq fanlarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ota-onalar o‘z farzandlarida nafaqat "texnik" qobiliyatlarini, balki "gumanist" qobiliyatlarini ham kashf etadilar va aksincha - ularning matematik qobiliyatiga ilgari shubha qilganlar yaxshiroq natijalarni ko‘rsatishlari mumkin. Bundan tashqari, bola kun davomida ob’ektlar o‘rtasida osonroq almashishi mumkin va charchoqni boshdan kechirmaydi. Metodikaning o‘zi bolalarda zerikish va asabiylashishni keltirib chiqaradigan bilim olishning standart jarayonidan farqli o‘laroq, butun o‘quv jarayonini qiziqarli qiladigan tarzda qurilgan.

G‘ayrioddiy vazifalarga qo‘shimcha ravishda, bola quvonch bilan bajaradigan ko‘plab qiziqarli mashqlar mavjud. Eng muhimi, butun dastur shaxsni rivojlantirishning pedagogik tamoyillarini saqlab qolgan holda, bolaning manfaatlarini ko‘zlab qurilgan. Bolalar o‘z bilimlariga bo‘lgan ishonchlari ortibgina qolmay, ularda muvaffaqiyatga erishish odatiga ega bo‘ladilar, bu ularga kelajakda yuqori natijalarga erishish imkonini beradi! Sizningcha, farzandingiz aqliy arifmetika bilan shug‘ullanishdan zavqlanadimi? U qiziqadimi? Va siz tekshirasiz! Abakus markazida aqliy matematikadan bepul dars oling va bolangizga yangi qiziqarli mashg‘ulotni taklif qiling. Farzandingizga: “Uning matematik qobiliyati bor!” degan odamlardan biri bo‘lish imkoniyatini bering. O‘rganish istagi. Ha, aqliy arifmetika metodologiyasi yanada kengroq yo‘nalishga ega va matematika bo‘yicha rus maktab o‘quv dasturiga to‘g‘ri kelmaydi. Ammo bu usul bolalar psixologlari va o‘qituvchilarining tadqiqotlari bilan tasdiqlangan, bu erda dastur boshlang‘ich sinflarda - Xitoy, Singapur, Yaponiya va boshqalarda amalga oshiriladi.uning xotirasini mustahkamlang va har qanday dars va yangi narsalarni o‘rganish qo‘rquvini olib tashlang! Ba’zi bolalar va ularning ota-onalari topshiriqlarni bajarishda juda tez va xato qilishadi.

Agar o‘quv jarayoni tajribali o‘qituvchi tomonidan boshqarilsa, buning oldini olish mumkin. Bundan tashqari, bolaning bilim darajasining oshishi bilan xatolar kamroq bo‘ladi. Bolalar qiziqish uyg‘otganda, ular doimo buni qilishni xohlashadi. Ammo ota-onalar aqliy matematika hali ham fan va mashaqqatli ish ekanligini tushunishlari kerak, bu bolaning dam olishi, bo‘sh vaqtlari va yurishlari bilan to‘xtatilishi kerak. "Besh yillik rejani 3 yilda bajarishga" urinmang, ortiqcha yuk va charchoqqa yo‘l qo‘ymang, aks holda teskari ta’sir tahdid soladi - mavzuni mutlaqo rad etish. Aqliy hisobni shakllantirish uchun vaqt kerak, sabrli bo‘ling Mental arifmetika darslari bolaga u tayyor bo‘ladigan kelajakni berish uchun noyob imkoniyatdir.

Mental arifmetika haqidagi afsonalar

Asosiy bo‘lmagan mavzu. Matematika o‘qitilmaydi. Maktabdan keyin ko‘pchiligimiz ongimizda juda katta raqamlarni tezda ko‘paytirish yoki bo‘lish qiyin. Xo‘sh? Mental arifmetika bu nuqtani to‘ldiradi va to‘g‘rilaydi. Nafaqat. Bola fazoviy fikrlashni va raqamlar bilan odatiy operatsiyalarga boshqacha qarashni o‘rganadi. Shunday qilib, bu qo‘shimcha element kabi muhim ahamiyatga ega. Bular sovet tafakkurining aks-sadolari. Bugungi kunda xususiy markazlarni ta’lim tizimini o‘zgartirish, uni diversifikatsiya qilish, o‘z biznesini rivojlantirish istagida bo‘lgan jonkuyar o‘qituvchilar ochmoqda. Bundan tashqari, o‘quv to‘lovlari o‘qish uchun qo‘shimcha rag‘batdir. Mental arifmetikaning muvaffaqiyatli rivojlanishining eng muhim sharti malakali mutaxassislar va tasdiqlangan usullardir. Uyda bolaga aqliy arifmetikani o‘rgatish mumkinmi? Abakus markazi aqliy matematikani uyda o‘rganish uchun kerak bo‘lgan hamma narsani taklif qiladi - mustaqil ravishda, qulay rejimda, holda Sizga kerak bo‘lgan narsa - o‘qish istagi va 10-20 daqiqa vaqt, biz qolgan hamma narsani taqdim etamiz va bular: Minimal zerikarli nazariya va maksimal ko‘ngilochar mashqlar bilan qiziqarli yorqin vazifalar. “noldan” deb o‘qitishni tashkil qilishda va aqliy arifmetika bilan allaqachon tanish bo‘lgan talabalar uchun foydalanish mumkin.Fan asoslari haqida qisqacha o‘quv videolari.O‘rganishni yanada qiziqarli qilish uchun o‘yin formatidagi mashqlar to‘plami va Qiziqarli.Siz bepul yuklab olishingiz va chop etishingiz mumkin bo‘lgan ish kitoblari.O‘tilgan materialni birlashtirish uchun flesh-kartalar.Shuningdek, biz uy ta’limini to‘g‘ri qurishga yordam beradigan mental arifmetika bo‘yicha darslik, darsliklar va boshqa kitoblar, o‘quv qo‘llanmalarini taklif etamiz. Ularning barchasi bepul yuklab olish uchun mavjud. aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishning yangi noyob usuli bizga keldi. Ota-onalar o‘z farzandlarining muvaffaqiyatlarini forumlarda muhokama qilishadi, katta shaharlarda o‘quv markazlari ochilmoqda, birinchi kanalda A. Gordon dasturlari, Hozirgi vaqtda respublikamizda ham, umuman Rossiyada ham o‘quvchilar bilan mental arifmetika bo‘yicha ishlashga mo‘ljallangan zamonaviy uslubiy adabiyotlarga ehtiyoj katta. Qayerda aqliy arifmetikaning o‘zi nazarda tutilganligini unutmasligimiz kerak intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun. Kerakli hisob-kitoblar -ular har kuni kundalik hayotda, o‘qishda, kasbiy faoliyatda, eng qiyin vaziyatlarda uchrashadilar, ular eng qisqa vaqt ichida topishga yordam beradi. yaxshi, nostandart echimlar. Bundan tashqari, tez hisoblash haqiqiydiraql uchun gimnastika. Amalda shuni ko‘rish mumkinki, o‘quvchilarning hisoblash ko‘nikmalari yomon. Sabablari past darajani o‘z ichiga oladi aqliy faoliyat, rivojlanmagan e’tibor va xotira, etishmasligi o‘quv davrida ushbu ko‘nikmalarni

egallashni nazorat qilish ishlari. Darslikda ratsional hisoblash usullari deyarli yo‘q. Bundan kelib chiqib, darslarda aqliy arifmetika texnologiyalaridan foydalanish mumkin, kabi amalga oshirish sharoitida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi Shu bilan birga, aqliy arifmetikani erta bosqichda o‘rganish mumkin talabalarda intellektual qobiliyat va fanga qiziqishni rivojlantirish va rivojlanish markazlarida o‘qituvchilarning malakasini oshirish. O‘quv qo‘llanmaning nashr etilishining dolzarbligi aniqlanadi.

Talabalarning kognitiv qiziqishi va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish nuqtai nazaridan talabalarga aqliy arifmetikani o‘rgatish metodikasini takomillashtirish zaruratidir.O‘quv qo‘llanmaning maqsadi - nazariy asoslash va talabalarga aqliy arifmetikani o‘rgatishning uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish.

- o‘quvchilarni mental arifmetikadan o‘qitishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari va talablarini belgilash;

– sinfda aqliy darajada muammolarni yechishga o‘rgatishning uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish;

– talabalarni o‘qitishning tashkiliy shakllari va usullarini ishlab chiqish aqliy arifmetika.

Uslubiy qo‘llanmaning ilmiy yangiligi va nazariy ahamiyati quyidagilardan iborat: o‘quvchilarning aqliy bilimlarini o‘qitishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari va uslubiy yondashuvlari belgilanadi. fanga kognitiv qiziqish va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan arifmetika; sinfda aqliy darajadagi muammolarni hal qilishga o‘rgatishning yangi yondashuvi taklif etiladi - bosqichma-bosqich yechim qo‘llab-quvvatlovchi, o‘xshash, rivojlantiruvchi vazifalar. Amaliy ahamiyati aqliy arifmetikani o‘rgatish bo‘yicha o‘qituvchilar yoki psixologlar tomonidan o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirish ishlarida foydalanishi mumkin bo‘lgan uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqishdadir.Aqliy o‘qitishning nazariy asoslari arifmetikdir.

Mental arifmetika tushunchasi va mohiyati. Mental arifmetikaning
kelib chiqish tarixi

Abakus (lot. abacus - taxta) - antik davrda, deb ataladigan Qum yoki un bilan sepilgan matematik hisoblar va chizmalar uchun "Pifagor jadvallari" (Fridrix, 2005). Vaqt o‘tishi bilan ular paydo bo‘la boshladi murakkabroq hisoblash qurilmalari. Ulardan birinchisi abak, miloddan avvalgi III ming yillikda Bobilda ixtiro qilingan. Abaks taxta edi chuqurchalar bilan ular bo‘ylab suyaklar yoki chig‘anoqlarni harakatga keltirdilar ma’lum raqamli qiymat. Bu hisoblar asosan xizmat qildi qo‘shish va ayirish amallarini bajarish. 5-asrda Miloddan avvalgi. Misrliklar dizaynni

takomillashtirdilar, chiziqlar va oluklar o‘rniga torli toshli simlardan foydalanishni boshladilar. Abakus butun dunyoda va uzoq vaqt davomida mashhurlikka erishdi evolyutsiya abakusning uchta asosiy turini shakllantirdi - xitoy, yapon va rus abakus. Ularning barchasi o‘z maqsadlarini saqlab qoldi va muvaffaqiyatli qo‘llaniladi. Hozirgacha, masalan, "Mental arifmetika" dasturi bo‘yicha darslarda. Sharq mamlakatlarida abakning xitoycha analogi suanpan keng tarqalgan, va yaponcha - soroban. Suanpan - cho‘zilgan qatorlar bilan yog‘och ramka har birida 7 ta suyakdan iborat simlar 12-asrda Xitoyda paydo bo‘lgan. Xitoyliklar suanpan ustida ishlashning murakkab texnikasini ishlab chiqdilar, bu esa imkon beradi raqamlarni qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish va hatto kvadrat va kub ildizlarini hisoblash. Yaponiyada soroban suanpan asosida qurilgan. To‘rtburchak gorizontal chiziq bilan bo‘lingan ramka 23 dan 27 gacha vertikal tayoqlardan iborat bo‘lib, ularning har biri 5 ta suyak bilan bog‘langan: bittasi beshta, tepada va to‘rtta pastki qismdagi birliklarni ifodalaydi. Ushbu parchalanish tufayli har bir tayoqdagi suyaklarning yig‘indisi hamma narsa bo‘lishi mumkin 0 dan 9 gacha bo‘lgan raqamlar. Soroban eng maqbul va eng tezkor mexanik hisoblash qurilmasi sifatida tan olingan, chunki u har bir raqamni ko‘rsatishga imkon beradi. Faqat bitta usulda, bu hisob-kitoblarda chalkashlikni yo‘q qiladi. Yaponiyada soroban nafaqat o‘quv qo‘llanmasi sifatida faol qo‘llaniladi maktablar, balki sport va o‘yin-kulgi sifatida ham mashhur.

Pedagogikada qo‘llanilishi bugungi kunda abak o‘nli sanoqning rivojlanishiga hissa qo‘shishi ilmiy jihatdan isbotlangan sanoq tizimlari, matematika asoslarini tushunish va og‘zaki sanash ko‘nikmalarini takomillashtirish. Abaks tamoyillarini o‘rganish asosida bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning noyob usuli - butun dunyoda mashhur bo‘lgan aqliy arifmetika asoslanadi. Maktab o‘quvchilari, ayniqsa quyi sinflarda, tushunarli, degan fikr bor.Qiziqarli va jozibali bilimlar sof og‘zaki va nazariy jihatdan emas, balki tegishli ob’ektiv faoliyat jarayonida beriladi. bilim va malakalarni yaxshiroq egallash imkonini beradi. Shuni hisobga olib, Yaponiyada ko‘pboshlang‘ich maktab va bolalar bog‘chalarida ta’lim turlari faollik yondashuviga asoslanadi: ballni o‘zlashtirish - birinchi navbatda mexanik hisoblashni o‘rganish orqali,va faqat qog‘ozda; botanika - o‘simliklarga g‘amxo‘rlik qilish orqali emas, balki fizika, kimyo va boshqalardagi tajribalar haqida gapirganda.

Yaponiyada o‘tkazilgan qiyosiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadisoroban yordamida sanashni o‘rgatgan o‘quvchilar muvaffaqiyatga erishgan bugungi arifmetikani o‘qiganlarga qaraganda matematikani keyinchalik o‘zlashtirgan Evropada qabul qilingan yondashuv (qog‘ozda va hatto kalkulyatorda). XXI asr boshlarida. sorobanni

o‘rganish boshlang‘ich maktabda majburiy bo‘lib qoladi uchinchi va to‘rtinchi sinf o‘quvchilari. 2000 yilda Yaponiyada 25,5 ming kishi ishlagan soroban ustida ishlashni o‘rgatish uchun xususiy ta’lim muassasalari. Soroban maktablari Janubiy Koreya, Braziliya, Tayvan, Los-Anjeles,Gavayi, bir so‘z bilan aytganda, Yaponiya birodarliklari etarlicha katta. Tinch okeanidagi kichik Tonga orolida mahalliy qirol shu qadar hayajonlangan soroban, assotsiatsiyaga asos solgan va vaqti-vaqti bilan o‘qituvchilarni Yaponiyaga malaka oshirish uchun yuboradi (Fridrix, 2005).

Abakusning qaytishi Ko‘pchilik yaponiyaliklarning ishlash qobiliyatiga, shuningdek, matematika musobaqalarida ko‘plab g‘alabalarga qoyil qoladi. Bu nafaqat amal qiladi kattalar, balki bolalar ham. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, yapon xalqining mehnatsevarligi va mukammal aqliy qobiliyatlari sirlaridan biri soroban orqali aqliy hisoblashni faol o‘rganishdir. Mental arifmetika bolalar uchun majburiy fandir, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari. Buning yordamida bolalar erta yoshdanoq eng murakkab hisob-kitoblarni, birinchi navbatda, hisob-kitoblarni tezda bajarishni o‘rganadilar,va keyin ongda.Yapon o‘quv dasturi nafaqat o‘qitishni maqsad qiladi yashin tezligida bolalar soroban panjaralaridagi plastik suyaklarni saralaydilar. Mental arifmetikaning maqsadi bolani ongida hisoblashni o‘rgatish, shuningdek, unga imkon qadar tezroq abakdan "ozod qilish" dir. Bir vaqtning o‘zida bir nechta operatsiyalarni bajaring. Masalan, Yaponiyada ular jismoniy mashqlar paytida aqliy hisoblashni mashq qiladilar. Har xil turdagi bandlikning bu kombinatsiyasi miyaning yarim sharlari orasidagi aloqalarni sezilarli darajada oshiradi va mustahkamlaydi va aqlning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yapon xalqining yana bir "koziri" - bu aqliy arifmetikani mutlaqo barcha bolalarga o‘rgatishdir. Bu shuni anglatadiki, bunday texnikada "kontrendikatsiyalar" yo‘q va hamma uchun bir xil darajada foydali bo‘lishi mumkin.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Toshpo‘latova M.I. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. Pedagogika oliy ta’lim muassalarining 5141600-«Boshlang‘ich ta’lim va tarbiyaviy ish» bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan o‘quv-metodik qo‘llanma – T.: OOO «Jahon - Print», 2011. – 148 bet.

2. A.Pirimkulova, Z.Jumayeva Mental arifmetika o`quv qo`llanma.

3. Boshlang‘ich sinfda sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda mental arifmetikasidan foydalanish metodikasi (Sultanov T.M.)

TEXNOLOGIYA TA’LIMIDA TO‘GARAK ISHLARINI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Farxod Tursunov Ermakbayevich
Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Izzatillo Abdulxoshimov
Xokimjon Otaxonov
Andijon davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabalari

Annotatsiya: Maqolada Texnologiya va kasb ta’limi dasturida mavzular ma’ruzalariga va darslarga bo‘linmaydi, ularda soatlar miqdori ajralib ko‘rsatilmaydi. Bu ish texnologiya o‘qituvchisi yoki ustaga yuklanadi, u har bir mashg‘ulot uchun o‘quv materialining xajmini shunday taqsimlab chiqadiki, bu material mazmun jihatdan ham, matn jihatdan ham tugallagan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga o‘qituvchi ajratilgan mavzuchalardan har biriga kiradigan o‘quv materialining xususiyati va mazmuniga mos keladigan nom berish kerak.

Kalendar-mavzu rejasida amaliy-laboratoriya ishlarining ro‘yxati albatta berilishi lozim, zarur asbob-uskunalar, materiallar, hujjatlar ana shu ro‘yxatga muvofiq ravishda tayyorlanishi uslubiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: rejalashtirish, hujjatlar, mashg‘ulot ishlanmasi, didaktik tamoyillar.

Texnologiya ta’limi va kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini rejalashtirish o‘quv jarayonini aniq tashkil etishdan iborat bo‘lib, u didaktika tamoillariga va o‘quvchilarning mehnat, tayyorgarligi dasturi talabalarga to‘la - to‘kis mos keladigan bo‘ lishi kerak.

Texnologiya va kasb ta’limini rejalashtirish vaqtida quyidagi hujjatlar tuzib chiqiladi:

To‘garak bo‘yicha yarim yilga, istiqbolga mo‘ljallangan kalendar-mavzu rejasi.

Har bir mehnat turi bo‘yicha yarim yilga yoki bir yilga mo‘ljallab to‘zilgan o‘quv ishlab chiqarish ishlarining ro‘yxati.

Tabiiy-ilmiy turkumdagi fanlarning yig‘ma mavzu rejasi: unda fanlararo bog‘lanishlar aks etishi lozim (yarim yilgamo‘ljallab tuziladi).

Ana shu mavzu yuzasidan batafsil konspektga ega bo‘lgan dars(mashg‘ulot) rejasi.

Ayrim maktab o‘quv-ishlab chiqarish majmualari, kasb-hunar bilim yurtlarining ilg‘or ish tajribasi shuni tasdiqlaydiki, texnologiya va kasb ta’limi bo‘yicha rejalashtiruvchi hujjatlar o‘quv jarayonini hamma tamoyillarini hisobga olgan xolda tuzib chiqilishi kerak. Rejalashtirishda ana shu tamoyillaridan birortasiga e’tibor bermaslik, mehnat o‘qituvchisining ishida jiddiy nuqsonlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, Texnologiya va kasb ta’limi dasturida mavzular ma’ruzalariga va darslarga bo‘linmaydi, ularda soatlar miqdori ajralib ko‘rsatilmaydi. Bu ish texnologiya o‘qituvchisi yoki ustaga yuklanadi, u har bir mashg‘ulot uchun o‘quv materialining xajmini shunday taqsimlab chiqadiki, bu material mazmun jihatdan ham, matn jihatdan ham tugallagan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga o‘qituvchi ajratilgan mavzuchalardan har biriga kiradigan o‘quv materialining xususiyati va mazmuniga mos keladigan nom berish kerak.

Kalendar-mavzu rejasida amaliy-laboratoriya ishlarining ro‘yxati albatta berilishi lozim, zarur asbob-uskunalar, materiallar, hujjatlar ana shu ro‘yxatga muvofiq ravishda tayyorlanadi. Bunday reja o‘rgatilayotgan jarayonlarni o‘zlashtirishning samarali bo‘lishini ta’minlaydigan maxsus moslamalarni ko‘rsatmasdan o‘tib bo‘lmaydi (ular oldindan tayyorlab qo‘yilishi lozim).

Kalendar-mavzu rejasini tuzish vaqtida texnologiya va kasb ta’limi o‘qituvchisi o‘quv ishlab chiqish ishlari ro‘yxatiga qanday mehnat ob’yektlari kiritilishi lozimligini oldindan bilishi kerak. Demak, kalendar-mavzu rejasi o‘qituvchi tomonidan o‘quv ishlab chiqarish ishlari ro‘yxati belgilangan bir vaqtda tuzib chiqilishi lozim. Chunki bu rejalashtirilayotgan har ikkala hujjat bir-biriga chambarchas bog‘liqdir. Texnologiya va kasb ta’limi bo‘yicha dastur asosida o‘qituvchining mashg‘ulotga tayyorlanishida, ayniqsa to‘garak rejasini tuzibchiqishda mehnat ob’yektlarini tanlashda va mashg‘ulotlarni zarur narsalar bilan boyitishda uning ishini ancha osonlashtiradi. Texnologiya va kasb ta’limi bo‘yicha kalendar-mavzu rejasi dastur asosida yarim yilga mo‘ljallab tuzib chiqiladi. Reja texnologiya o‘qituvchilarining metod birlashmasida ko‘rib chiqilishi, unga tuzatishlar kiritilib, mulohazalar hisobga olinishi kerak. Shundan keyin maktab o‘quv ishlab chiqarish majmuasi direktorining tasdig‘iga taqdim etiladi. Ishlab chiqarish ta’limi dars rejasining tipik sxemasini o‘rganishda kirishishdan oldin bu rejaning to‘garak dastursi va rejai asosida, tuzilishini aytib o‘tish zarur. So‘ngra mashg‘ulot rejasini tuzishdan ko‘zda tutilgan maqsad va talablar o‘ylab chiqiladi. Shundan to‘garak mashg‘ulotini mumkin qadar sxemasini, ya’ni har bir elementi ayrim band tarzida yozilgan mufassal rejaini ko‘zdan kechirishga o‘tish maqsadga muvofiqdir. Mashg‘ulotlarni rejalashtirish texnologiya o‘qituvchisining ishida muhim o‘rin tutadi. Bunda

mashg‘ulotlarning kalendar rejalari va reja-konspektlari tuziladi. Kalendar rejaning yagona, doimiy aniq shakli bo‘lmaydi. Shuning uchun amalda rejalar turli shaklda tuziladi. Quyida kalendar rejaning mumkin bo‘ lgan variantlaridan birini keltiramiz.

T№	Mash g‘ulot mavzusi	Mash g‘ulot sanasi	Dd G *B*	Buyum materiali			Umumiy foydalaniladigan asbob va moslamalar	Ko‘rsat-mali qurollar	CD[a]
				Sortamenti	1 ta buyumga	Hamma buyumlarga			

Ko‘rinib turibdiki, bu formadagi reja muayyan vaqt mobaynida ustaxonalardagi normal ish uchun turli hildagi materiallardan qancha kerakligini hisoblab chiqish imkonini beradi, Ustaxonalarni zarur narsalar bilan ta’minlash o‘quvchiga yuklanishi nazarda tutilsa, ishda mana shunday rejalarni qo‘llash maqsadga muvofiqligi ayon bo‘ladi. Rejaning mazkur formasi, shuningdek, umumiy foydalannsh uchun qanday asboblar, qanday moslamalar kerak bo‘lishiii oldindan aniqlash imkonini beradiki, bu juda muhimdir. Buning muhimligi shundaki, ayrim moslamalarni o‘z kuchlari bilan tayyorlashga to‘g‘ri keladi. Moslamalarni ham o‘quvchilarning mehnat ob’yektlari jumlasiga kiritish mumkin.

Mashg‘ulotning reja-konspekti — yuqori saviyadagi ta’limiy ishning zarur shartidnr, chunki bunday reja-konspektni qunt bilan tayyorlanish va mashg‘ulotning har bir elementini puxta o‘ylash natijasidagina to‘zish mumkin. Mashg‘ulotning reja-konspekti ixtiyoriy formada tuziladi, lekin har qanday holda ham unda mashg‘ulotning mavzusi va maqsadi, uning jihozlanishi va borishi aks etishi zarur.

O‘quvchilarning mustaqil ishi mashg‘ulotning reja-konspektida alohida o‘rin olishi kerak. Umuman, mashg‘ning samaradorligi uning ana shu bosqichi qanchalik chuqur o‘ylab tashkil qilinishiga bog‘liq bo‘ladi. Bunda o‘quvchilarning mustaqil ishidagi vazifalarni belgilash o‘qituvchining vazifalarini belgilashdan ancha oson ekanligini nazarda tutish lozim. Buning ajablanarli joyi yo‘q. Zotan, o‘quvchining vazifalari aniq ifodalash mumkin bo‘lgan mehnat topshirig‘i bilan belgilanadi. O‘qituvchining vazifasi topshiriqning murakkabligiga, o‘quvchilar faoliyati qanday o‘tishiga, ya’ni ular topshiriqni bajarishda qanaqa xatolarga yo‘l qo‘yishiga, qanday qiyinchiliklarga duch kelishiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil faoliyatida, bo‘ladigan ishni rejalashtirnshda ular yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolarni tahlil qilishi kerak. Tajribali o‘qituvchilar ana shu qiyinchilik va xatolarni yaxshi biladilar, endigina ishlayotgan o‘qituvchilar esa

bularni metodik adabiyotlardan bilib olishlari mumkin. Ana shu maqsadda o‘quvchilarga beriladigan mehnat topshirig‘ini avval o‘qituvchining o‘zi bajarib ko‘rishi zarur. Shuning uchun mashg‘ulotning reja- konspekti bilan birga, o‘quvchilarning mehnat obyekti sifatidagi buyumni tanlash ham kerak. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarni xushmuomalalik bilan real ob’yektlarni tanlashga yo‘naltirishdan, ularga u yoki bu ob’yektni nima uchun bajarish mumkin emasligini tushuntirishdan iboratdir. O‘quv ustaxonalarida bajariladigan buyumlar ro‘yxati yarim yilga yoki bir yilga mo‘ljallab tuziladi. Uni ishlab chiqishda usta, texnologiya o‘qituvchilari va ustaxonaning mudiri qatnashadi.

Texnologiya ta’limini rejalashtirish vaqtida quyidagi hujjatlar tuzib chiqiladi.

Texnologiya to‘garagi bo‘yicha yarim yilga, istiqbolga mo‘ljallangan kalendar mavzuli reja.

Har bir mehnat turi bo‘yicha yarim yilga yoki bir yilga mo‘ljallab to‘zilgan o‘quv ishlab chiqarish ishlarining ro‘yxati.

3. Tabiiy ilmiy turkumdagi fanlarning yig‘ma mavzu rejasi.Unda fanlar aro bog‘lanishlar aks etishi lozim.

4. Aniq mavzu yuzasidan batafsil konspektga ega bo‘lgan dars rejasi.

5. O‘quvchilarni bilim,ko‘nikma,malakalarini oshirish uchun tayyorlangan texnologik-konstruktsion va operatsion kartalar.

6.Tayyorlanadigan buyumlar ro‘yxati va plakatlar.

To‘garak mashg‘ulotlari bo‘yicha o‘quv ustaxonasida yasaladigan buyumlar ro‘yxati - o‘quvchilar o‘quv yili davomida qanday ishlarni bajara olish imkoniyati mavjudligini oldindan aniqlash, bu ishlarni bajarishda nazariya va amaliyotning bir-biriga mutanosibligini amalga oshirish hamda ularni qanday ketma-ketlikda bajarish kerakligini ko‘rsatuvchi hujjat bo‘lib, uni har bir mehnat ta’limi o‘qituvchisi mahalliy shart-sharoitlar, o‘quv dasturida ko‘rsatilgan ish ob’yektlarining namunaviy ro‘yxatini hisobga olgan holda kalendar mavzuli rejaga asoslanib ishlab chiqadi va u maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi. To‘garak mashg‘ulotlari bo‘yicha o‘quv-ishlab chiqarish (o‘quv ustaxonasida qilinadigan ishlar) ro‘yxati va kalendar mavzuli reja bir vaqtda tuziladi.

To‘garak mashg‘ulotlarining tabiiy-ilmiy turkumdagi fanlar bilan bog‘liqlik jadvali

har bir mavzu mazmunini yoritishda uning mohiyatini o‘quvchilar tomonidan chuqur, ilmiy asoslangan holda tasavvur etishlari, vaqtdan unumli foydalanish, nazariy bilimlarini amalda, hayotga va ishlab chiqarishga qo‘llash imkoniyatlarini

keng yoritish, ularning Texnologik tushunchalarini kengaytirish maqsadida o‘qituvchi tomonidan tuziladi hamda u kalendar mavzuli rejada o‘z ifodasini topadi.

Tabiiy ilmiy turkumdagi fanlarning o‘zaro bog‘liqlik rejasi. Bu hujjatda Mehnat ta’limi, fizika, mamavzutika, kimyo, chizmachilik va boshqa fanlarning o‘zaro bog‘lanishi ochib beriladi. Mavzu o‘rganishga kirishilganda o‘quv materialining fizika, matematika, kimyo, chizmachilik va hakozo fanlardan o‘quvchilar olgan bilimini yetkazishga harakat qilmaydi. o‘qituvchi suhbat o‘tkazish yo‘li bilan o‘quvchilarning bu soxadagi bilimlarini qanday o‘rganganliklarini aniqlaydi va ana shu fanlardan olgan bilimlar asosida ularga ishlov berilayotgan metallarning tuzilishi va kirish jarayonini tushuntirib.

Texnologik harita-ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqirish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjatdir.

Texnologik jarayon - ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig‘indisi.

Texnologik operatsiya - ishchi tomonidan o‘zining ish joyida bajariladigan, yakuniga etkazilgan harakat ko‘rinishidagi jarayonning bir qismi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., SHaripov SH.S., Sattorov V.M., Davlatov K. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2009. 427 b.

2. K.Davlatov Mehnat va mehnat ta’limi, tarbiyasi hamda mehnat tanlash nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma. “O‘qituvchi” 1992.

3. Boltaboev S.A., Ismoilova M.M. Mehnat ta’limini o‘qitish metodikasi fanidan kurs ishlari. (Metodik qo‘llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2002. 20b.

4. Qo‘ysinov O.A., Sattorov.V.N., Yakubova H.S. Mehnat ta’limidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi. (Metodik qo‘llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2011. 79 b.

TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLAR

Shaxnoza Jaloldinova Xasanboyevna
Andijon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Nilufar Zuxriddinova Nusrat qizi
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Feruza Abdurazaqova
Xidoyat Shokirova
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi ustuvorligidan kelib chiqib ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetentsiyalar shakllantirilishi, Mazkur kompetentsiyalar umumta’lim fanlari orqali o‘quvchilarda qo‘llanilishi. Shuningdek, har bir umumta’lim o‘quv fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda fanga oid umumiy kompetentsiyalar ham shakllantirilishi ilmiy yondashuv asosida taxlil qilingan

Kalit so‘zlar: texnologiya, hujjatlar, mashg‘ulot ishlanmasi, kompetentsiya

Texnologiya va kasb ta’limi dasturida mavzular ma’ruzalariga va darslarga bo‘linmaydi, ularda soatlar miqdori ajralib ko‘rsatilmaydi. Bu ish texnologiya o‘qituvchisi yoki ustaga yuklanadi, u har bir mashg‘ulot uchun o‘quv materialining xajmini shunday taqsimlab chiqadiki, bu material mazmun jihatdan ham, matn jihatdan ham tugallagan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga o‘qituvchi ajratilgan mavzuchalardan har biriga kiradigan o‘quv materialining xususiyati va mazmuniga mos keladigan nom berish kerak.

Kalendar-mavzu rejasida amaliy-laboratoriya ishlarining ro‘yxati albatta berilishi lozim, zarur asbob-uskunalar, materiallar, xujjatlar ana shu ro‘yxatga muvofiq ravishda tayyorlanishi uslubiy tahlil qilingan.

Mehnat ta’limi” fani nomini “Texnologiya” fani nomi bilan o‘zgartirilishining asosiy omillari**:**

1. Jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar asosida umumiy o‘rta ta’lim mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni keskin ortib borishi;

2. Davlat ta’lim standartlari talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlanganligi;

3. Ta’lim sohasi rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda takomillashtirilib borilayotganligi;

4. Ta’lim jarayoniga milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakl, usul va vositalarini keng joriy etilishi;

5. O‘quv-tarbiya jarayoni samaradoriligini va natijaviyligini ta’minlashda pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish masalasiga katta e’tibor berilayotganligi.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitilishi quyidagi darajalar asosida belgilandi.

Jumladan, A1 mehnat (texnologiya) o‘quv fanini o‘rganishning boshlang‘ich darajasi bo‘lib, bunda o‘quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, kasblar olami bilan dastlabki tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, mehnatni qadrlash, mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish; turli materiallardan yasaladigan buyumlarni qurish-yasash, o‘lchash, rejalash, sodda loyihalash ishlarini bajara olish; detallarni bir-biriga to‘g‘ri yelimlash; sodda buyumlarni tika olish; kichik hajmdagi buyumlarni to‘qiy olish; xalq hunarmandchiligi turlari bo‘yicha buyumlarni loyihalay olish; harakatlanuvchi modellar tayyorlay olish; turli materiallarni bukish, qirqish, yelimlash ishlarini bajarishda ishlatiladigan o‘tkir va tig‘li asboblardan xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiena talablariga rioya qilgan holda foydalana olish; o‘z mehnat harakatlarini o‘quv Topshiriqlari asosida muntazam takrorlay olish; hayotiy odob-axloq qoidalari, mehnatsevarlikka oid asosiy tushunchalarni egallash va rioya eta olish. A1+ texnologiya fani bo‘yicha xalq hunarmandchiligining boshlang‘ich elementlari singdirilgan turini o‘rganishning kuchaytirilgan boshlang‘ich darajasi bo‘lib, unda xalq hunarmandchiligi yo‘nalishlari bo‘yicha ustoz-shogird anhanalari haqida ma’lumotlarni egallay olish; sodda naqsh elementlarini chiza olish; hunarmandlarning sodda ish namunalarini bajara olish; kichik hajmdagi buyumlarni to‘qiy olish; kashtachilik yo‘nalishida sodda naqsh elementlaridan iborat kom’ozitsiyalarni tika olish; o‘z mehnat harakatlarini o‘quv Topshiriqlari asosida munatazam mukammalashtirib bora olish; odob-axloq qoidalari, sabr-toqat, irodalilikka oid tushunchalarni o‘rganish, taxlil qilish, rioya qilish; hunarmandlarning qo‘l mehnatiga oid tushuncha va bilimlarini umumlashtirgan holda amaliy vazifalarni bajara olish, hunarmandlar haqidagi ma’lumotlarni biladi,

hunarmandlar faoliyatiga oid ma’lumotlarni to‘’lash va tavsiflay olish kom’etntsiya elementlari shakllantiriladi.

A2 tayanch darajasi bo‘lib, o‘quvchilarda tabiiy va sunhiy materiallarning xususiyatlarini tavsiflash, farqlay olish, ulardan buyum va mahsulotlarni texnologik loyihalay olish, modellarni qurish-yasash ishlarini bajarish, yelimlash, tikish, to‘qish, tayyorlash; texnologik harita to‘zish hamda taqdim eta olish; elektrotexnika, avtomatika va robototexnika turlarini tavsiflay olish; texnika va texnologiyalarning iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini bilish; uy-ro‘zg‘or buyumlarini tahmirlash, sanoat sohalari bo‘yicha tayanch bilimlarni egallay olish; materiallarni saralash, ularga issiq va sovuq holda ishlov berish usullarini bajara olish; xalq hunarmandchiligi turlari bo‘yicha buyumlarni loyihalash; buyumlarni konstruktsiyalash va modellashtirish ishlarini bajara olish; zamonaviy bozor munosabatlariga moslashish hamda faoliyat yurita olish; texnik obhektlarni bilishi va texnologik jarayonlarni qo‘llay olish; zamonaviy ishlab chiqarishda xalq hunarmandchiligi bilan uyg‘unlashtirilgan buyumlarni texnologik loyihalash va tayyorlay olish; asbob uskunalarni saqlash va tahmirlash ishlarini bajara olish; turli materiallarga ishlov berishda asbob-uskuna, moslama, mexanizm, mashinalarda xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiena talablariga rioya qilgan holda ishlay olish; hozirjavoblik, ishchanlik, faollik va muomala madaniyatiga amal qila olish; o‘quv-amaliy Topshiriqlarni tizimli, tartib-intizom asosida bajara olish; mustaqil ishlash, ijodiy yonboshish, kreativ fikrlay olish; kasbiy odob-axloq qoidalarini egallash va unga rioya qila olish; kasb tiplari (odam-tabiat, odam-texnika, odam-odam, odam-belgili tizim, odam-badiiy obraz), turlari, bo‘limlari, guruhlarini ta’riflay olish; hududda joylashgan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi kichik mutaxassislik yo‘nalishlari va joylashuvini tahlil qila olish; kelgusi ta’lim bosqichini (akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji) ongli va mustaqil ravishda tanlay olish; kasb-hunar turlarining inson salomatligiga qo‘yadigan talablarini, o‘z imkoniyatlarini psixologik va fiziologik jihatdan baholay olish; kasb-hunar tanlashga doir reja tuza olish kompetentsiyalar shakllantiriladi.

A2+ (5-9 sinf) –texnologiya fanini biror xalq hunarmandchiligi turini o‘rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi bo‘lib, bunda elektr uy-ro‘zg‘or asboblaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalarni biladi hamda amalda qo‘llay olish; maxsus materiallarning xususiyatlarini tavsiflaydi va farqlay olish; mahsulot tarkibi, xossalari va xususiyatlarini aniqlash, tavsiflash; xalq hunarmandchiligi sohalari bo‘yicha buyumlarni texnologik loyihalash va tayyorlashda texnologik jarayonlarni qo‘llay olish; xom ashyolarga badiiy ishlov berish; xalq hunarmandchiligi bilan

uyg‘unlashgan kasb-hunarlarini sodda ish usullarini qo‘llay olish; xavfsizlik qoidalarini to‘la egallash va amal qila olish; ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, mustaqil va ijodiy fikrlay olish; kasbiy burchni anglash, mashuliyatlilik, tartiblilik, kuzatuvchanlik; texnologik loyixalash va jarayonlarni amalga oshirish bo‘yicha mustaqil qaror qabul qila olish; o‘z xato va kamchiliklarini anglash va ko‘ra bilish, kasbiy axborotlarni, kasblarning murakkablik omillarini tahlil qila olish; uzluksiz ta’lim tizimini, unda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining tutgan o‘rnini tavsiflash; kasb-hunarlarga bo‘lgan mavjud ehtiyojlarni aniqlash va baholay olish; kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash bo‘yicha mashqlarni mustaqil bajara olish; o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshira olish kompetntsiyalari shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi ustuvorligidan kelib chiqib ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetentsiyalar shakllantiriladi.

1.**Kommunikativ kompetentsiya** ijtimoiy munosabatlarda eng avvalo ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro samarali muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatini nazarda tutadi.

2.Axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, ularning xavfsizligini ta’minlash ko‘nikmalarini egallashni hamda mediamadaniyatga ega bo‘lishni nazarda tutadi.

3.O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetentsiyasi doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribasini mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z hatti-harakatini adekvat baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarni egallashni nazarda tutadi.

4.Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilishi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatini nazarda tutadi.

5.Milliy va umummadaniy kompetentsiya vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lishni, badiiy va sanhat asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy mehyorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatini nazarda tutadi.

6.Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetentsiyasi aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma va diagrammalarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish ko‘nikmalarini nazarda tutadi.

Mazkur kompetentsiyalar umumta’lim fanlari orqali o‘quvchilarda shakllantiriladi.

Shuningdek, har bir umumta’lim o‘quv fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda fanga oid umumiy kompetentsiyalar ham shakllantiriladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Sattorov V.M., Davlatov K. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2009. 427 b.

2. K.Davlatov Mehnat va mehnat ta’limi, tarbiyasi hamda mehnat tanlash nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma. “O‘qituvchi” 1992.

3. Boltaboev S.A., Ismoilova M.M. Mehnat ta’limini o‘qitish metodikasi fanidan kurs ishlari. (Metodik qo‘llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2002. 20b.

4. Qo‘ysinov O.A., Sattorov.V.N., Yakubova H.S. Mehnat ta’limidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi. (Metodik qo‘llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2011. 79 b.

AMIR TEMURNING AMIR HUSAYN BILAN O‘ZARO MUNOSABATI

Dostonbek Boydedayev Xusniddin o‘g‘li
Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi talabasi
boydedayevdostonbek7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning markazlashgan davlatga asos solish jarayonida o‘z qaynisi Amir Husayn bilan munosabatlarining yuzaga kelishi, yomonlashuvi hamda ular o‘rtasidagi to‘qnashuvlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Amir Husayn, Movarunnahr, Balx, Samarqand, Uljoy Turkon og‘o, Qazog‘on, Tug‘luq Temur, Ilyosxo‘ja, Sarbadorlar harakati.

Amir Temur siyosiy kurash maydoniga kirib kelgan ilk davrlarda uning mavqeyi u darajada yuksak emas edi va bu holat g‘animlarga qarshi kurashda turli murakkabliklarni keltirib chiqarar edi. Bu kabi siyosiy tangliklardan chiqib ketish uchun Amir Temurga kuchli ittifoqchi lozim edi. Amir Husayn ana shunday ittifoqchi bo‘ldi.

Amir Temurning qaynisi bo‘lgan Amir Husayn ilk davrlarda Temur bilan yaxshi ittifoqdosh bo‘ladi. Lekin vaqt o‘tishi bilan o‘zaro munosabatlarga sovuqchilik tushadi. Bu mojaroning sabablari hamda natijasi haqida ushbu maqolada to‘xtalib o‘tamiz.

Amir Husayn Balx hokimi edi. Uning nasl-nasabi amirzoda ibn Musallam ibn Abdulla binni Amir Qozog‘onning nabirasi hisoblanadi[1].

Nima uchun Amir Temur Amir Husayn bilan birga harakat qilgan, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Amir Husayn boshdanoq, bobosi amir Qazog‘on davridagi o‘z xonadoni mavqeyini tiklashga intilib kelardi. Shuning uchun ham Tug‘luq Temurning 1361-yildagi Movarounnahrga yurishida unga qarshi chiqqan, lekin kuchi yetmay Amudaryo ortiga chekinishga majbur bo‘lgan. Bu vaqtda qazog‘oniylar hukmronligi davrida qoraunaslar orasida ham Amir Husaynning mavqeyi baland edi. Amir Temurning maqvqeyi esa hali u darajada emas edi. Shuning uchun ham u Amir Husayn tomonga intilgan[2]. Natijada ular birlashishadi va umumiy dushmanga qarshi birgalikda kurash olib borishadi. 1363-yilda Amudaryoning chap sohilida, Qunduz shahri yonida umumiy dushman ustidan g‘alaba qozonadilar. Keyingi ikki yil davomida ittifoqchilar Ilyosxo‘ja boshliq jeta lashkarlari bilan bir necha marta jang qiladilar. Nihoyat 1364-yil oxirida ular mo‘g‘ullarni Movarounnahrdan quvib chiqaradilar[3].

Albatta, Amir Temur va Amir Husayn birdaniga mo‘g‘ullarni quvib chiqaradigan darajaga kelib qolishmadi. Bungacha ular turli qiyinchiliklar, jumladan, qochqinlik va tutqinlikni ham boshdan kechirishadi.

Amir Temur bilan Amir Husayn Xiva yaqinidagi cho‘lda uchrashishidan xabar topgan Xiva dorug‘asi To‘kal Ilyosxo‘janing buyrug‘iga ko‘ra 1000 kishilik askar bilan ularni ortidan quvadi.

Temurbek va Husaynbek odamlari xotinlari bilan birga 60 kishi edi. Bular 1000 kishilik askar bilan jangga kirishga majbur bo‘ladilar. Qirg‘inbarot jangdan so‘ng dushmanning 1000 kishisidan 50 kishi, Amir Temurda esa 7 kishi qoladi. Shundan so‘ng To‘kal jangni to‘xtatishga majbur bo‘ladi va chekinadi[4]. Bu haqida “Temur tuzuklari” asarida quyidagicha ma’lumot bor:

“…Oltmish otliq yigitim va yo‘lda menga qo‘shilgan qaynog‘am Amir Husayn bilan birga ming otliq kishilik g‘anim lashkariga ro‘baro‘ bo‘ldim va jangga kirishdim. Bu jangda shundayin bahodirlik qilib, chidamlik ko‘rsatdimki, uning ming kishisidan ellik kishi qoldi, mening oltmish otliq yigitimdan o‘n kishigina qoldi…”[5].

Keyin Temur va Husayn xotinlari bilan birga Moxonda Alibek ibn Arabshoh qo‘lida 62 kun asir bo‘ladilar. Tutqunlikdan qutulgandan so‘ng Amir Temur o‘z opasi Qutlug‘ Turkon oqaning uyida 48 kun yashirinadi.

Temur va Husayn biroz qo‘shin to‘plashadi va ularning qo‘shinlari soni 1000 suvoriyga yetadi. Ular qo‘shinni ta’minlash uchun Seiston hokimiga yollanma xizmatga kirishadi. Bu paytda Seiston hokimi ichki g‘alayonlarni bostirolmayotgan edi. Bir necha hafta o‘tgach ittifoqchilar g‘alayonni bostirishadi. Lekin hokim vada qilingan aqchalarni berish o‘rniga o‘zining eski dushmanlari bilan Amir Temur va Amir Husaynga qarshi til biriktiradi.

Bu voqea haqida Lyusen Keren o‘z asarida shunday degan: “Son jihatidan o‘zlaridan ko‘p bora ustun raqiblar tomonidan qurshab olingan movarounnahrlik botirlar yuraklarida umidsizlik o‘ti va o‘ch olish ilinjida jang qildilar. Temurbekning mardona jang qilishini ko‘rgan g‘animlar, eng avvalo, shu botirdan qutulish kerak, degan fikrga keldilar. Ko‘z ochib yumguncha uni yov kamonchilari o‘rab, ustiga yoy o‘qlari yomg‘irini yog‘dirdilar. Ulardan biri Temurbekning o‘ng qo‘li tomiriga chuqur botdi, ikkinchisi esa o‘ng oyog‘ining sonini chuqur teshib o‘tdi. Shunga qaramay g‘anim tumtaraqay bo‘ldi, Temurbekning yaralariga esa malham qo‘ydilar. O‘sha paytda bu ikki zarba o‘zini asta-sekin nogironlikka olib borishini ham, butun Osiyoni tiz cho‘ktirgan taqdirida ham kinoyali “oqsoq” (forscha “lang”) degan laqab

orttirishini ham va shu laqab ostida xatto Ovro‘pagacha tanilishini ham bilmasdi. Biz ovro‘paliklar esa Temurlangni Tamerlanga aylantirib yubordik”[6].

Aynan Seiston voqealari davrida Amir Husaynning salbiy jihatlari ko‘rina boshlaydi. Bu haqida Hamdam Sodiqov o‘z asarida shunday deydi: “Amir Husayn sharob to‘la kosalarni birin-ketin bo‘shatar, lekin g‘ubori ketmas edi. Temurbek bilan bog‘langan xotiralar ko‘z o‘ngidan o‘tavergan sari ko‘nglida hasad olovi tobora alangalanib borar edi. U bobosi Amir Qazog‘onning qarorgohida Temurbekni 5 yil avval ko‘rgandi. Bobosiga qilingan suiqasdlarni oldini olib, yuksak hurmatga erishgan Temurbek uning uchun ham ko‘p yaxshiliklar qildi. Ha, buni tan olmay iloji qancha? U hokim bo‘lgan Hirotda isyon ko‘tarilib, hokimiyatni amir Bakir egallaganidan so‘ng Temurbek yordamga oshiqdi. 300 sara otliqlar bilan Hirotni qo‘lga kiritdi”[7].

Jarayonlar ijobiy ketayotgan bir davrda Ilyosxo‘ja boshliq mo‘g‘ullar yana Movarounnahrga bostirib kiradi. Bu jang hijriy 766-yil ramazon oyi boshida (1365-yil 22-may) yuz beradi. Bu jang tarixga “Loy jangi” nomi bilan kiradi. Jang davomida Amir Temur dushmanning o‘ng qanotiga zarba berayotganda Amir Husayn dushmanning chap qanotiga bas kela olmaydi. Buni ko‘rgan Temur o‘z askarlarining ma’lum qismini Husayn tomonga jo‘natmoqchi bo‘lganda Husayn bunga rozi bo‘lmaydi. Natijada jang boy beriladi. Bu Temur bilan Husayn munosabatlarining buzilishi uchun ilk sabab edi. Jangdan so‘ng Husaynning harbiy jihatdan no‘noqligi sezilib qoladi. U mo‘g‘ullarning ehtimoliy bosqini sababli Hindistonga qochishga ham tayyorlana boshlaydi.

Bu paytda dushmanda qo‘rquv yo‘qoladi va ular Samarqandni qamal qiladi. Samrqandda esa qamalga qarshi devorlar mavjud emas edi. Endi ularga qarshi Sarbadorlar harakati vujudga keladi. Samarqand sarbadorlariga mudarris Mavlonozoda Samarqandiy, hunarmand Abu Bakr Kalaviy va shahar mahallalaridan birining oqsoqoli, mohir mergan Xurdaki Buxoriy boshchilik qiladilar[8].

Mo‘g‘ullar Samarqanddan quvib chiqarildi. Bundan xabar topgan Amir Temur va Amir Husayn 1366-yil bahorida Samarqand yaqinidagi Konigil mavzeyiga yetib kelishadi. Sarbadorlar bilan uchrashuvning birinchi kunida ziyofat uyushtirildi. Lekin ikkinchi kuni Husayn buyrug‘iga ko‘ra Abu Bakr Kalaviy va Xurdaki Buxoriy dorga osiladi, Mavlonozodaning hayotini Amir Temur Husayndan so‘rab oladi. Bu ular o‘rtasidagi nifoq uchun navbatdagi yirik asos edi.

Konigil voqeasidan Husayn siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan edi. Ya’ni u o‘z raqiblarini kuchsizlantirish siyosati olib borayotgan edi. Jumladan, Amir Temurning ham yon-atrofidagi hamkorlari bilan aloqalariga putur yetkazish va mavqeyini

zaiflashtirish uchun Konigil voqaealarini yuzaga keltirdi. Natijada munosabatlar rasman buzildi va 1366-1370-yillar oralig‘ida to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tdi. Ular 2 marta yarashishdi ham. Lekin mojaro jang yo‘li bilan hal qilinishi muqarrar bo‘lib qoldi.

Ikki o‘rtadagi eng asosiy jang 1370-yil aprelda Balx yaqinida yuz berdi. Husayn batamom yengilgach, Amir Temur oldiga o‘z o‘g‘lini jo‘natdi va qilgan ayblarini kechirishini, Makkaga hajga borishga ruhsat berishini so‘raydi. Temur bunga rozi bo‘ladi, lekin beklar Husaynning makkorligi sababli bu qarorga qarshi chiqadi. Kayxusrav Xuttaloniy Husayn tomonidan o‘ldirilgan ukasi Kayqubodning xunini talab qiladi. Amir Temur esa Husayn bilan o‘tmishdagi kunlar hurmatidan o‘girilib oladi. Uljaytu Apardiy Kayxusrav bilan Muayyidbekka ishora qiladi va ular tashqariga chiqib, Husaynni qatl etadilar.

Amir Husaynning o‘limidan so‘ng Amir Temur rasman markazlashgan davlatga asos soladi.

Xulosa: Yuqoridagi ma’lumotlar ko‘rsatib turibdiki, Amir Husayn bir paytlar Amir Temur bilan yelkama-yelka turib, mo‘g‘ullarga qarshi kurash olib borganiga qaramay, o‘z maqsadi yo‘lidan oxirigacha bora olmadi. Mol-mulk, toj-u taxtga bo‘lgan ishtiyoqi uning maqsadlarini boshqa tomonga burib yubordi. Buning natijasida faqatgina o‘zini emas, dastlabki davrlarda Temurni ham qiyin ahvolga solib qo‘ydi.

Amir Temur Husaynning ba’zi qilbirliklariga ko‘z yumishga harakat qildi. Bu borada ko‘p bora uni ogohlantirishga, kelishishga harakat qildi. Ammo Husayn bundan to‘g‘ri xulosa chiqarmadi va endi uni to‘xtatmaslik shakllanayotgan saltanat istiqboli uchun salbiy ta’sir o‘tkazishga sabab bo‘lishi muqarrar edi. Buni anglay olgan Amir Temur Husayn bilan urush olib borishga qaror qildi va kutilganidek uni mag‘lub etdi. Lekin Amir Temur Husayndan farqli ravishda o‘tmishdagi do‘stlikka doimo sodiq qoldi. Buni Husayn uchun so‘nggi hukm- o‘lim hukmini bermagani va ortga o‘girilib olganida ham ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Азамат Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи. –Т.: Шарк, 2001. –Б. 156.
2. Аъламов М. Амир Темур жахон тарихида. –Т.: Шарк, 1996. –Б. 44-46.
3. Ahmedov B. Temur tuzuklari. –T.: Yoshlar, 2018. –B. 31.
4. Люсъен Керен. Амир Темур салтанати. –Т.: Маънавият, 1999. –Б. 21.
5. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asrgacha). –T.: Sharq, 2017. –B. 112.

6. Содиков Х. Амир Темур салтанатида хавфсизлик хизмати. –Т.: Art flex, 2010. –Б. 54.

7. O‘roqov D., Sharopov A. O‘zbekiston tarixidan universal qo‘llanma. –T.: Akademnashr, 2013. –B. 88,89.

8.https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-sa-v152.html?page=21

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI TARBIYASIGA INDIVIDUAL YONDASHUV

Gulnoza Akbarova Xasanboevna
Andijon viloyati Andijon tumani 37-umumta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarning topshiriqlar orqali o‘quvchilarni ijobiy va salbiy sifatlarni farqlay olishga usullari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Individual, tabaqaviy, metodlar, topshiriq, nutq va fikrlash.

Annotation: The article analyzes the ways in which students can distinguish between positive and negative qualities through assignments.

Keywords: Individual, class, methods, task, speech and thinking.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, umumiy o‘rta ta’lim va boshqa muassasalarda ta’lim-tarbiya yo‘nalishlarini tubdan o‘zgartirishni asosiy maqsad qilib olindi.

Boshlang‘ich ta’lim konseptsiyasini ishlab chiqilishi ta’lim-tarbiya sohasidagi o‘zgarishlarni tubdan o‘zgartirishni, barcha yo‘nalishlardan o‘quvchilarni ma’naviy fazilatlari boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy kadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashi bilan belgilanadi.

Maktab ta’lim muassasalari va maktabdan tashqari faoliyatlarda o‘quvchilar bilan turli usullar va yo‘llarda tarbiyaviy ish olib boriladi. Bu tarbiyaviy ish turlarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

Individual

Tabaqaviy.

Har bir shaxs o‘zida turli sifatlarni tarbiyalashi mumkin. «Qilingan ishlar niyatlariga qarab qabul qilinadi», - deyiladi Hadislarda - Hammamiz yaxshi niyat qilib, kelajakka yaxshi fazilatlar, go‘zal hislatlar, pokiza umidlar bilan yashashimiz kerak. O‘qituvchi o‘quvchilarda albatta, ijobiy va salbiy sifatlarni avvalo tarkib toptirishi lozim. Uning uchun turli ta’sir etuvchi omillar bilan ta’sir qilish lozim.

Masalan, quyidagi ish turi orqali ijobiy va salbiy fazilatlarni ajratib olish mumkin.

Fazilatlar o‘qib beriladi. O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi, o‘z shartlarini bajaradilar.

I-guruh	II-guruh
Ijobiy sifatlar	Salbiy sifatlar

Bunday topshiriqlar orqali o‘quvchilarni ijobiy va salbiy sifatlarni farqlay olishga o‘rgatiladi. Yoki turli savollar berish orqali o‘quvchilar fikrini aniqlaydilar:

Men qanday insonman?

Meni qanday ijobiy va salbiy xislatlarim bor?

Atrofdagilar menga qanday baho beradilar?

Men salbiy xislatlarimni yo‘qotishim uchun nima qilishim kerak?

Men barkamol inson bo‘lamanmi?

O‘z shaxsimni qanday baxolayman?

Ijobiy xislatlarim	Salbiy xislatlarim
a) Do‘stgo‘yman b) Mehribonman v) Ozodaman g) SHirinso‘zman d) Muloyimman	a) Yolg‘onchilik b) Maqtanchoqlik v) Dangasalik

2.O‘quvchilar daftarlarini o‘rtog‘iga beradilar.

	Do‘stimning menga bildirgan ijobiy fikrlari	Do‘stimning menga bildirgan salbiy fikrlari
.	Do‘stimning do‘stgo‘yligi, mehribonligi yoqadi	Do‘stimning yolg‘onchilik odati yoqmaydi
.	Do‘stim ozoda, doim formada yuradi	Do‘stim maqtanchoq
.	Do‘stim shirinso‘z, muloyim, u menga yoqadi . . .	Do‘stimni dangasalik odati yoqmaydi

3. Hayotda siz uchun ideal inson kim? Uning qanday fazilatlari yoqadi?

Men uchun ideal inson onam. Onamni barcha fazilatlari menga yoqadi. Demak, yuqoridagilarga asoslanib, har bir shaxs o‘zidagi ma’lum sifatlarni tarbiyalashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi» ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan qarorlari

2. Kasb tanlashga yo‘naltirish o‘quv qo‘llanma Muslimov.N.A, Mullaaxmedov.R. G

3. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘nalirish N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qosimov

TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Mamajonova Guluzro Abdurashitovna
Andijon davlat pedagogika instituti v/b dotsent

Xusnida Jo‘rayeva,
Shalola Nazirova
Madina Baxromova
Andijon davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Maqolada texnologiya fanini o‘qitishda sinfdan tashqari ishda ham mehnat ta’limida qo‘yiladigan vazifalar qo‘yiladi. Biroq bunda ularni bajarish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar mavjud. Sinfdan tashqari ish bir tomondan sinfdagi ishning davomi bo‘lsa, boshqa tomondan, o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash imkoniyatlarini ancha kengaytiradi. Sinfdan tashqari ishda ishtirok etish ixtiyoriy bo‘ladi. Shuning uchun bunday ishga jonboz, tashabbuskor o‘quvchilar jalb etiladi. Ular faoliyatining mazmuni dars mashg‘ulotlaridagi faoliyat mazmunidan bir oz boshqacha bo‘ladi. Bu xol o‘quv dastursida ko‘zda tutilganidan murakkabroq vazifalar qo‘yishga va ularni hal etishga uslubiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: to‘garak. harbiy-texnik. umumta’limiy vazifa. tarbiyaviy vazifa. amaliy vazifa. texnik ijodkorlik. rag‘batlantirish. qobiliyat. tadbir.

Sinfdan tashqari ishning vazifa va shakllari. Sinfdan tashqari ishda ham mehnat ta’limida qo‘yiladigan vazifalar qo‘yiladi. Biroq bunda ularni bajarish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar mavjud. Sinfdan tashqari ish bir tomondan sinfdagi ishning davomi bo‘lsa, boshqa tomondan, o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash imkonkyatlarini ancha kengaytiradi. Sinfdan tashqari ishda ishtirok etish ixtiyoriy bo‘ladi. Shuning uchun bunday ishga jonboz, tashabbuskor o‘quvchilar jalb etiladi. Ular faoliyatining mazmuni dars mashg‘ulotlaridagi faoliyat mazmunidan bir oz boshqacha bo‘ladi. Bu xol o‘quv dastursida ko‘zda tutilganidan murakkabroq vazifalar qo‘yishga va ularni xal etishga imkon beradi. Ixtiyoriylik tamoili o‘quvchilar tashabbuskorligi yuqoriroq bo‘lishini ta’minlaydi. Shu tufayli sinfdan tashqari ish jarayonida mehnat ta’limining asosiy vazifalarini bajarish bo‘yicha yaxshi natijalarga erishiladi. Sinfdan tashqari ishning mazmuni mehnat ta’limiga doir o‘quv dasturlari bilan qat’iy bog‘lanmaganligi sababli xavfsizlik qoidalari nuqtai

nazaridan maqbul bo‘lgan istagan korxonaga ekskursiyalar rejalashtirilishi mumkin. Bu ekskursiyalardan maqsad o‘quvchilarni zamonaviy ishlab chiqarish asoslari bilan tanishtirishdir. Boshqacha aytganda, Texnologika ta’limi sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi bo‘lib qolishi mumkin. Sinfdan tashqari ish bunday cheklashlardan xoli. O‘quvchilarni yaqin atrofdagi korxonalarda uchraydigan kasblar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanishtirish maqsad qilib qo‘yilishi mumkin. Ko‘pchilik o‘qituvchilar shunday qilishadi ham. Bu bilan ular o‘quvchilarni yo‘lga solib yuborishga muvaffaq, bo‘ladilar va kasb tanlashda ularga yordam beradilar. Bu ishda turli kasb egalari bilan uchrashuvlar uyushtirish, kasbga qiziquvchilar klublarini tashkil qilish va shu kibi tadbirlar yordam beradi. Agar mehnat tarbiyasi faqat shiorlarga tayanib tashkil qilinsa, xech qanday samara bermaydi. Chaqiriqlar muayyan ishlar bilan hamoxang bo‘lishi kerak. Yuqorida aytilganlardan ko‘rinib turibdiki, sinfdan tashqari ish ayni shunday ishlardan iboratdir. Ularga tarbiyalovchi tus berish lozim. Buning uchun sinfdan tashqari ishning maqsadlari shunday ifodalanishi kerakki, o‘quvchilar uzoqni kora olsinlar, ularning texnik tafakkuri rivojlanishi, buyum yasay bilishi o‘quvchining faqat ularning o‘zigagina emas, balki jamiyatga ham foyda keltirishini, sinfdan tashqari ishda ishtirok etish, jamiyat ravnaqiga shaxsiy xissa qo‘shish uchun yaxshi tayyorgarlik ekanligini tushunib etsinlar. Bu holda mehnatning tarbiyalovchi roli pasayadi, albatta. Faqat ana shundagina sinfdan tashqari ishda mehnat tarbiyasini zarur darajada amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Yuqorida aytib o‘tilgan barcha fikrlar mehnat tarbiyasi asosidagi sinfdan tashqari ish vazifalarini quyidagicha ifodalash imkonini beradi: 1) mehnat ta’limi davomida o‘quvchilar olgan bilim va ko‘nikmalarini mustaxkamlash, umumlashtirish hamda kengaytirish; 2) unumli mehnatga asoslangan ijodiy faoliyatga o‘quvchilarni jalb qilish; 3) hozirgi zamon ishlab chiqarishi asoslari haqidagi tasavvurni kengaytirish; 4) kasb tanlashga yaxshilab tayyorlash; 5) mehnatga ongli munosabatni shakllantirish. Mehnat ta’limiga asoslangan sinfdan tashqari ish turli shakllarda amalga oshiriladi. To‘garaklar, ishlab chiqarish ilg‘orlari bilan uchrashuvlar uyushtirish va boshqa tadbirlar shular jumlasidandir. Mehnat tarbiyasiga asoslangan sinfdan tashqari ishning hamma shakllarini shartli ravishda uch guruhga birlashtirish mumkin. Birinchi guruhga to‘garaklar kiradi. To‘garak sinfdan tashqari ishning sinalgan shakli bo‘lib, maktablarda har hil predmetlari asosida keng qo‘llaniladi. Ixtisosidan qat’iy nazar to‘garaklar ishida umumiylik ko‘pdir. Shuning uchun texnik to‘garaklarning raxbarlari boshqa ixtisosdagi to‘garaklar tajribalarini chuqur o‘rganib, eng yaxshi tomonlarini o‘z ishida qo‘llashlari kerak. Albatta, to‘garak ishini mehnat ta’limi asosida olib borish o‘ziga xos xususiyatlarga ega

bo‘lib, uning metod va shakllariga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchi guruhga ekskursiyalar, lektorinlar, ko‘rgazmalar, ishlab chiqarish novatorlari bilan bo‘ladigan uchrashuvlar va boshqa tadbirlarni kiritish mumkin. Ularni sinfdan tashqari ishning ommaviy shakllari deb atash qabul qilingan. Haqiqatan ham, bu tadbirlar ko‘plab o‘quvchilarni jalb qiladi. Ularning moxiyatan afzalligi ham ana shunda. Sinfdan tashqari ishlarning mehnat ta’limi asosidagi uchinchi guruhga o‘quvchilarning mehnat birlashmalari kiradi. Mehnat birlashmalari nisbatan ancha ilgari paydo bo‘ lganiga karamasdan, keyingi yillarda ayniqsa keng qo‘llanila boshlandi. O‘quvchilarning mehnat birlashmalari ta’limni unumli mehnat bilan qo‘shib olib borishning samarali shakli sifatida mehnatda tarbiyalash, kasb tanlashga yo‘llash, ishlab chiqarish asoslari bilan tanishtirish va mehnatga ijodiy munosabatni shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo‘ldi. Mamlakatimizda yosh avlodni texnika sohasidagi sinfdan tashqari ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doimo katta ahamiyat berib kelindi. Hukumatimiz bolalar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni eng muhim tarbiya vositasi deb hisoblab, pedagoglar diqqat e’tiborini ana shu ishlarni tashkil etish zarurligiga qaratishlari sababli dastlabki yillardayoq yosh tabiatshunoslar va texniklar ommaviy harakati vujudga keldi va tez rivojlandi. Tashkilotlar tashabbuslari bilan maktablardan tashqarida harakteri hamda tashkiliy strukturasi jihatdan har hil bolalar birlashmalari, klublar, maydonchalar, sektsiyalar vujudga kela boshladi va bu birlashmalarning asosiy maqsadi bolalar va o‘ smirlarning tashkiliy faoliyati orqali ularni tarbiyalashning ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishini ta’minlashdan iborat. O‘quvchilarning o‘qishdan tashqari vaqti ular hayotida katta o‘rin tutadi. Shu sababli bu vaqtni to‘g‘ri tashkil etishda, undan dam olish uchun, qiziqqan ishlari bilan shug‘ullanishi uchun, sayr tomosha uchun oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur. Barcha shakllardagi sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning chuqur ichki mohiyati o‘quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyatga aktiv jalb qilish, ularning tashabbusi bilan mustaqilligini rag‘batlantirish, individual qiziqishlari, mayl va qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. O‘quvchilarning o‘qishdan tashqari ishlariga Pedagogik rahbarlikning xususiyati ularga faqat dars mashg‘ulotlarida emas, balki boshqa ijtimoiy tashkilotlar orqali, sinfdan va maktabdan tashqari har hil tadbirlar orqali, o‘quvchilarni texnik ijodkorlikka bevosita jalb etish orkali ham tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishni amalga oshirishdir. O‘quvchilarning texnik masalalarni yechish va bu yechishlarni harakatli modellar yoki tajriba namunalarining texnik loyixalari, maketlari sifatida ifodalash bilan bog‘liq amaliy faoliyatini o‘quvchilarning texnik ijodkorligi deb atash qabul qilingan. Sinfdan tashqari ishlarda o‘quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish uchun mehnat ta’limi va

tarbiyasining umumiy vazifalari yanada aniqlashuvi ularda 3 ta guruxga birlashtirish imkonini beradi: umumta'limiy vazifalari, tarbiyaviy vazifalar, amaliy vazifalar. Umumiy ta'lim maktablari va maktabdan tashqari bolalar muassasalarining sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish faoliyati o'zining shakli va mazmuniga kora hilma-hildir. Shunday bo'lsa ham keyingi o'n yillar ichida ana shu faoliyatning quyidagi asosiy yo'nalishlari aniqlanadi.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda texnik ijodkorlik bilan bog'liq mehnatga qiziqish va jamoa mehnatga ishtiyoq uyg'otishi, ana shu yosh gruppasidagi o'quvchilarni yasama texnik o'yinchoqlar, modellar va turli inventarlarni konstruktsiyalash bilan bog'liq aktiv texnik o'yinlar, musobaqalar va konkurslarga qatnashishlari eng oddiy shakllariga jalb etish, bolalarda texnik soxadagi texnik xavaskorlik, ijodkorlikka intilishni tarbiyalash.

Orta va katta maktab yoshdagi o'quvchilarda texnikaga va ishlab chiqarishga chuqur qiziqishni tarkib to'ishi va rivojlantirishi, ularni bilish aktivligini, yosh fiziklar, kimyogarklar, mamavzutiklarning olim'iadalarida qatnashuvini rag'batlantirish, ularni maktabdagi fan to'garaklariga tajribachilik ishlariga, maktab asbob-anjomlarini, ko'rsatmali qo'llanmalarni, ta'limning texnik vositalarini takomillashtirish bilan bog'liq konstruktorlik faoliyatiga jalb etish.

O'quvchilarni maktablarda va maktabdan tashqari muassasalaridagi texnik ijodkorlik jarayonida ommaviy ishchi kasblarga yo'naltirish.

O rta va katta maktab yoshidagi o'quvchilarni maktablardagi, maktabdan tashqari muassasalaridagi, mahalliy oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlaridagi o'quvchilar ilmiy jamiyatlari bazasida ishlash va eks'erimental - tadqiqot ishlariga jalb etish, ularni injener, texnik agronom, zootexnik va boshqa kasblarga yo'naltirish. O'quvchilarni harbiy-texnika mutaxassisliklariga yo'naltirish, ularning s'ortning harbiy-amaliy va texnik turlari bo'yicha razryadlar olish uchun normativlarni bajarishga, qurolli kuchlarda xizmat qilishga tayyorlash.



1. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda texnik ijodkorlik bilan bog'liq mehnatga qiziqish va kollektiv mehnatga ishtiyoq uyg' otishi.

2.O‘rta va katta maktab yoshdagi o‘quvchilarda texnikaga va ishlab chiqarishga chuqur qiziqishni tarkib topishi va rivojlantirishi.

3.O‘quvchilarni maktablarda va maktabdan tashqari muassasalaridagi texnik ijodkorlik jarayonida ommaviy ishchi kasblarga yo‘naltirish.

Ko‘rgazma to‘garak a’zolari uchun muxim stimul, sinfdan tashqari ishda qatnashishga targ‘ib qilishning samarali vositasi xisoblanadi. Ko‘pincha, yaxshi ko‘rgazmalar butun maktabning iftixori bo‘ladi, Ko‘rgazma qoshida ekskursovodlar gruppasi tashkil qilinib, ular mexmonlarga xizmat ko‘rsatadi, quyi sinf o‘quvchilari bilan ish olib boradi. Ko‘rgazmalarda to‘garaklar ko‘p o‘tkazilib, bunda har bir to‘garak o‘zining ish natijalarini jamoat hukmiga xavola qiladi. O‘quvchilarni ishlab chiqarish brigadalarida siyosiy- tarbiyaviy, madaniy-ommaviy ishga va s’ort ishiga katta ahamiyat beriladi. Bunga o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarishi katta imkoniyat yaratadi. O‘quvchilar brigadasining umumiy majlisi quyidagi eng muxim masalalarni xal etadi: ishning o‘quv-ishlab chiqarish rejaini muxokama qiladi va uni bajarish yo‘llarini belgilaydi: zvenolarning va umuman brigadaning ongli musobaqasi shartlarini tasdiqlaydi; brigada a’zolarining intizomi va turmushiga oid, xalq mulkni muxofaza qilishga oid masalalarni ko‘rib chiqadi va brigada a’zoligiga qabul qilish, brigada a’zolarini rag‘batlantirish hamda jazolash to‘g‘risidagi masalani xal etadi; ishlab to‘ilgan mablag‘dan brigadaning ijtimoiy fondiga qancha mablag‘ ajratish kerakligini belgilaydi; bir yillik ish yakunlarini chiqaradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Sattorov V.M., Davlatov K. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2009. 427 b.

2. K.Davlatov Mehnat va mehnat ta’limi, tarbiyasi hamda mehnat tanlash nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma. “O‘qituvchi” 1992.

3. Boltaboev S.A., Ismoilova M.M. Mehnat ta’limini o‘qitish metodikasi fanidan kurs ishlari. (Metodik qo‘llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2002. 20b.

4. Qo‘ysinov O.A., Sattorov.V.N., Yakubova H.S. Mehnat ta’limidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi. (Metodik qo‘llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2011. 79 b.

AMIR TEMURNING ILYOSXO‘JA BILAN O‘ZARO MUNOSABATLARI

Dostonbek Boydedayev Xusniddin o‘g‘li
Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi talabasi
e-mail: boydedayevdostonbek7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur siymosining siyosiy kurash maydoniga kirib borishi jarayonida mo‘g‘ul hukmdorlari bilan olib borgan o‘zaro munosabatlari, Movarounnahr o‘lkasini vayronalikdan saqlab qolish uchun qilgan harakatlari va bu yo‘lda Ilyosxo‘ja bilan yuzaga kelgan ziddiyatlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Ilyosxo‘ja, Tug‘luq Temur, Amir Husayn, amir Shamsuddin, Movarounnahr, Xuroson, Loy jangi.

XIV asrning 50-yillari oxiriga kelganda Movarounnahr o‘lkasi siyosiy parokandalik bosqichida edi. Bundan foydalangan Tug‘luq Temur Movarounnahrga 2 marta yurish qilib, uni talaydi. Bu yerdagi boshqaruvni esa o‘g‘li- Ilyosxo‘jaga topshiradi. Yosh Amir Temur esa Ilyosxo‘jaga yordam berish vazifasini oladi. Lekin vaqt o‘tishi bilan ikki o‘rtadagi kelishmovchiliklar keskinlashib boradi.

Amir Temur-Ilyosxo‘ja munosabatlarining turli jihatlariga ushbu maqolada batafsil to‘xtalishga harakat qilamiz.

XIV asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o‘zaro kurashi kuchayib, mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqadi. Mo‘g‘uliston xonlari Movarounnahrdagi og‘ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu o‘lkada o‘z hokimiyatini o‘rnatishga harakat qiladilar. Mo‘g‘uliston xoni Tug‘luq Temur 1360-1361-yillarda Movarounnahrga birin-ketin ikki marta bostirib kiradi. Movarounnahr beklari birlasha olmay xalqni o‘z xoliga tashlab ketadilar. Amir Temurning amakisi- Kesh viloyatining hukmdori Amir Hoji Barlos Xuroson tomonga qochadi. 24 yoshli Amir Temur esa boshqacha yo‘l tutadi[1].

Temur o‘z yurtini mo‘g‘ullar tajovuzidan himoya qilish uchun ko‘p o‘ylab, Tug‘luq Temurning huzuriga borishga qat’iy ahd qildi va Tug‘luq Temur yorlig‘i bilan Kesh viloyatining dorug‘asi etib tayinlandi. Bu voqea “Temur tuzuklari” asarida quyidagicha keltirilgan:

“Tug‘luq Temurxon, sarkardalari Bekchik, Hojibek erkinit, Ulug‘ Tuqtemur kerayit va Jetening boshqa amirlaridan uch favj tuzib, ularni Movarounnahr mamlakatini talon-taroj qilish uchun yuborganligi, o‘sha uch favj qo‘shin Huzor

degan joyga kelib tushganligi xabari mening qulog‘imga yetdi. Shunda Tug‘luq Temurxonni borib ko‘rishdan ilgari bu ochko‘z amirlarni mol-dunyo bilan aldab, Movarounnahr viloyatini qatl-u g‘oratdan qutqarib qolishga qaror qildim. Tilga olingan amirlarni ko‘rganimda ularni haybatim bosdi shekilli, ko‘p hurmat ko‘rsatib, meni ortiqcha siyladilar. Ularning ko‘zlariga o‘xshash ko‘ngillari ham tor bo‘lganligidan, sovg‘a-sovrun yo‘sinida ularga berilgan har turlik tansiq mollar ko‘zlariga ko‘p ko‘rindi va Movarounnahrni bosib olish va talon-taroj qilish niyatidan qaytdilar. Shundan so‘ng to‘g‘ri borib Tug‘luq Temurxon bilan ko‘rishdim. Xon kelishimni yaxshilikka yo‘yib, saltanat ishlarida mendan kengash so‘radi. Ko‘rsatgan kengashlarimni to‘g‘ri deb topib, hammasini qabul qildi”[2].

Shu tariqa Amir Temur Kesh viloyati rahbarligini o‘z qo‘liga olish bilan birga Movarounnahr hukmdori, Tug‘luq Temurning o‘g‘li Ilyosxo‘jaga maslahatchi sifatida tayinlandi. Amir Bekkichik ham Ilyosxo‘jaga ko‘mak berishi kerak edi. Biroq xon yurtiga qaytishi bilan amir Bekkichik Amir Temurga nisbatan ig‘vo va fitnalar uyushtiradi. Shu jihatdan Amir Temur Ilyosxo‘ja va Bekkichik bilan murosa qila olmaydi. Amir Temurning mamlakatda turishi xavfli bo‘lib qoladi va 1361-yil oxirlarida mamlakatni tark etishga majbur bo‘ladi[3].

Amir Temur o‘ziga ittifoqdosh izlashga qaror qiladi va qaynog‘asi Amir Husayn bilan birlashadi. Dastavval ularning harbiy qudrati ancha past bo‘lib, hatto 60 kishi 1000 kishiga qarshi jang qilishlariga ham to‘g‘ri keladi.

Bundan so‘ng Amir Temurning tutqunlikka tushib qolgan davrlari ham bo‘ladi. Tutqunlikdan qutulgach, opasi Turkon oqaning uyida 48 kun berkinib yotadi. Bu paytda Ilyosxo‘ja Amir Temurni butun Movarounnahrdan izlayotgan edi. Shuning uchun Temur Movarounnahrni tark etib, Garmsiri Xirmandga Amir Husayn huzuriga boradi. U yerda ikkalasi 1000 kishilik qo‘shin to‘plashadi. Qo‘shinga pul yig‘ish uchun Seiston dorug‘asiga harbiy xizmatga yollanishadi, lekin yakunda Seiston dorug‘asi vada qilingan mablag‘ni bermaydi va eski dushmanlari bilan til biriktirib, Amir Temur va odamlarini yo‘q qilmoqchi bo‘ladi. Bu tazyiqdan qutulish uchun ko‘p sonli qo‘shinga qarshi kurashishga majbur bo‘lgan Amir Temur yaralanadi, garchi qutulib qolgan bo‘lsa ham aynan ushbu jangda orttirgan yarasi uning oqsoq bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi.

Xastalik davrida Temurbek huzuriga ko‘pdan-ko‘p isyonkorlar guruhlari kelib, uning farmonlariga muntazir ekanliklarini izhor qildilar. Temurbek ulardan kichik va jangovar bir lashkar tuzdi, bu lashkar esa ko‘p o‘tmay Ilyosxo‘ja uning yo‘llarini to‘sish uchun yuborgan mahalliy qo‘shinlarni Balx ostonasida maxv etib, o‘zining nimalarga qodir ekanligini namoyish etdi[4].

Amir Temur va Amir Husayn birgalikda 1363-yil Amudaryoning chap sohilidagi Qunduz shahri yonida umumiy dushman ustidan g‘alaba qozonadilar[5]. Ushbu jang haqida Y. Berezikov quyidagicha bayon qilgan:

“Jangning borishini olisdan kuzatib turgan mo‘g‘ulistonliklar qo‘mondoni Abu Saidda Temurning hamma jangchilari qochayotir, degan taassurot uyg‘ondi. Bu g‘alabadan xursand bo‘lib ketgan Abu Said jami qo‘shinlarini jang maydoniga tashladi. Ayni shu paytda pistirmadagi jangchilar ularga orqadan zarba berishdi. Uch tomondan qurshovga olingan mo‘g‘ulistonliklarni tez va qat’iy daryo tomonga surib borishardi. Amir Abu Said tuzoqqa tushib qolganlarini juda kech anglab yetdi. Tun kirganda, lashkarlarining yarmi qirib tashlangan yoki Jayhunning loyqa to‘lqinlariga cho‘kib ketgan edi. Lekin daryoning chap sohiliga suzib o‘tishga muvaffaq bo‘lgan ikkinchi yarmi saqlanib qolgandi. Abu Said O‘lja qal’asini Temurga boy berganiga qaramay, mo‘g‘ulistonliklarga xayrixoh 500 ta qo‘shin to‘plashga erishgan Mang‘ali Bug‘a Sulduzga qo‘shilish uchun o‘z qo‘shinining qoldiqlarini Balxga boshladi”[6].

Ittifoqdoshlar keyingi ikki yil davomida Ilyosxo‘ja qo‘shini bilan bir necha marta jang qiladilar va 1364-yil oxirida mo‘g‘ullarni Movarounnahr hududidan quvib chiqaradilar. Ammo bu Amir Temur va Ilyosxo‘ja o‘rtasidagi munosabatlarning yakuni emas edi.

1365-yil bahorida Mo‘g‘ulistondan (Yettisuv va Koshg‘ar) lashkar tortib kelgan Ilyosxo‘ja Amir Husayn va Amir Temur boshliq lashkarni mag‘lubiyatga uchratdi. Bu voqea 22-mayda Toshkent va Chinoz oralig‘ida qattiq yog‘ingarchilik sharoitida sodir bo‘lgan. Shuning uchun ham bu olishuv “Loy jangi” deb tilga olinadi[7].

Bu jangga Ilyosxo‘ja 30 000 lashkar bilan kelgan edi. Ilyosxo‘janing raqiblariga qaraydigan bo‘lsak, Amir Husaynda 12 000, Temurbekda esa 10 000 atrofida askar bor edi[8]. Ilyosxo‘janing jangga tayyorgarligi haqida ma’lumotlarni Amir Temurga Amir Azizuddin yetkazib turgan.

Jang davomida Temur ham oddiy lashkarlar kabi tinimsiz jang qilayotgani uning qo‘shiniga ajoyib ruhiyat bag‘ishlagan. Ammo Amir Husayn qo‘shinida bunday ruhiyat sezilmas edi. Shuning uchun ham Ilyosxo‘janing tajribali amiri Hojibek hujumga tashlanganda Amir Husayn lashkari sochilib ketadi. Amir Shamsuddin bundan foydalanib qolmoqchi bo‘lib, hamma qo‘shinini Husayn tarafga yo‘naltirdi.

Jangning ikkinchi va hal qiluvchi kuni (22-may) boshlandi. Yomg‘ir kuchidan kamon o‘qlarini ham otishning imkoni bo‘lmay qoladi. Shunday vaziyatda Temurbek sinalgan lashkarboshilari Joku Barlos, Sher Bahrom, Oq Bug‘a, Idiku Barlos askarlari

va janglarda chiniqqan o‘n, yigirma va ellik askar maqomidagi xos qo‘riqchilari bilan o‘q-yoy ish bermay qolgan paytda qilich, nayza, cho‘qmorlari bilan Ilyosxo‘janing asosiy kuchlariga tashlanishdi va ularni chekinishga majbur qilishdi. Shunda Amir Temur Husayn ham ularga qo‘shilib, Ilyosxo‘jani siquvga olishi kerakligini tushundi va unga 2 marta xabarchi yubordi. Lekin har ikkisida ham Husayn elchilarni rad etdi. Buning ortidan Amir Temurning pishib yetilayotgan g‘alabasi mag‘lubiyatga aylandi.

Bu g‘alabadan so‘ng Ilyosxo‘ja qo‘shinlari hech qanday qarshilikka uchramay, Xo‘jand va Jizzax shaharlarini egallab, Samarqand tomonga yurishadi. Lekin bu davrda Samarqandda vujudga kelgan Sarbadorlar harakati ularga to‘sqinlik qiladi. Ilyosxo‘ja qo‘shin va uning ta’minoti bilan bog‘liq muammolar paydo bo‘lgani hamda otlari orasida o‘lat tarqalgani sababli Movarounnahrni butkul tark etishga majbur bo‘ladi. Bu voqea 1366-yilda sodir bo‘ladi va o‘sha yilning o‘zida Amir Temur va Amir Husayn Samarqandga borib, hokimiyatni o‘z qo‘llariga olishlari bilan Ilyosxo‘ja bilan o‘rtalaridagi munosabatlarga rasman yakun yasaladi hamda Amir Temur mustaqil markazlashgan davlat tuzishga yana bir qadam yaqinlashadi.

Xulosa: Sodir bo‘lgan voqea-jarayonlar shuni ko‘rsatib turibdiki, Amir Temur uchun Movarounnahr o‘lkasini mo‘g‘ullar changalidan saqlab qolish juda ham murakkab jarayon bo‘lgan. Bu yo‘lda u har turli qiyinchiliklarga duch kelgan. Tug‘luq Temurga vaqtincha bo‘lsada itoat etishga majbur bo‘lgan. Buni o‘zi ham puxta o‘ylangan reja- yuz ming kishilik qo‘shindan yaxshi ekanligi bilan izohlagan.

Vaqt o‘tishi bilan Ilyosxo‘jaga qarshi bemalol qarshilik ko‘rsata oladigan darajaga yetganida esa unga o‘z ichidan chiqqan razillik qiyinchilik tug‘dira boshlaydi, ya’ni Temurning muvaffaqiyatlaridan yashirincha alamzada bo‘layotgan Amir Husayn haqida gap ketmoqda. Aynan uning qasddan o‘z qo‘shinlarini jang maydonidan olib chiqib ketishi oqibatida Amir Temur butun harbiy faoliyatida yagona hisoblangan mag‘lubiyatiga duchor bo‘ladi. Lekin bu ham Temurbekni to‘xtata olmadi va yakunda garchi Temurning o‘zi tomonidan bo‘lmasada, Ilyosxo‘ja Movarounnahrdan siqib chiqarildi. Bu yerda eng muhimi Amir Temurning taslim bo‘lmagani va oxirigacha kurashgani edi. shuningdek, Amir Temur kuni kelganda Amir Husayndan hisob so‘rash uchun ham hech qachon umidini so‘ndirmaslikka qaror qilgan bo‘lsa kerak. Bu jarayon har bir vatandoshda yurtga muhabbat, bahodirlik va jasurlik tuyg‘ularini uyg‘otishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotar:

1. Азамат Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи. –Т.: Шарк, 2001. –Б. 157.
2. Аъламов М. Амир Темур жахон тарихида. –Т.: Шарк, 1996. –Б. 44.

3. Ahmedov B. Temur tuzuklari. –T.: Yoshlar, 2018. –B. 24, 25.
4. Березиков Е. Буюк Темур. –Т.: Шарк, 1996. –Б. 163, 164.
5. Люсъен Кэрэн. Амир Темур салтанати. –Т.: Маънавият, 1999. –Б. 21.
6. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asrgacha). –T.: Sharq, 2017. –B. 112.
7. Содиков Х. Амир Темур салтанатида хавфсизлик хизмати. –Т.: Art flex, 2010. –Б. 76-77
8. O‘roqov D., Sharopov A. O‘zbekiston tarixidan universal qo‘llanma. –T.: Akademnashr, 2013. –B. 88.

TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA DIDAKTIK SISTEMALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Guluzro Mamajonova Abdurashitovna
Andijon davlat pedagogika instituti v/b dotsent

Izzatillo Abdulxoshimov
Xokimjon Otaxonov
Andijon davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Maqolada Dastlab, buyum sistemasi paydo bo‘lgan. Bu sistemaga binoan o‘quvchi o‘zi o‘zlashtirayotgan kasb uchun harakterli bo‘lgan tipik buyumlar to‘plamini tayyorlagan. Bunda buyumlar murakkabligi tobora ortib borgan. Buyum tayyorlash jarayoni didaktik jihatdan alohida operatsiyalarga ajratilmagan. O‘quvchi ayrim mehnat usullarini bajarish qoidalari bilan maxsus tanishmagan, faqat ustaning ishi va boshqa mehnat harakatlarini takrorlashga intilgan. Bunday sistemaning asosiy kamchiligi o‘quvchilar tanish buyumni tayyorlash uchun o‘z bilim va malakalaridan foydalana olmaydilar, har bir yangi buyumni tayyorlash jarayonida ishni qaytadan o‘rganishga majbur bo‘lishi uslubiy asnosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Didaktik sistemalar:buyum.operatsiya,mator-mashq,loyihalash sistemalar, **o**peratsiya – kompleks, konstruktorlik-texnologik sistema.

Texnologiya tushunchasi faqat umumiy ta’lim maktablari o‘quvchilarining emas, balki kasb-hunar ta’limi o‘quvchilarining ham mehnat faoliyati turlarini anglatadi.

Texnologik ta’limining beshta asosiy sistemasi ma’lum. Dastlab, buyum sistemasi paydo bo‘lgan. Bu sistemaga binoan o‘quvchi o‘zi o‘zlashtirayotgan kasb uchun harakterli bo‘lgan tipik buyumlar to‘plamini tayyorlagan. Bunda buyumlar murakkabligi tobora ortib borgan. Buyum tayyorlash jarayoni didaktik jihatdan alohida operatsiyalarga ajratilmagan. O‘quvchi ayrim mehnat usullarini bajarish qoidalari bilan maxsus tanishmagan, faqat ustaning ishi va boshqa mehnat harakatlarini takrorlashga intilgan. Bunday sistemaning asosiy kamchiligi o‘quvchilar tanish buyumni tayyorlash uchun o‘z bilim va malakalaridan foydalana olmaydilar, har bir yangi buyumni tayyorlash jarayonida ishni qaytadan o‘rganishga majbur bo‘ladilar.

Buyum sistemasi hunarmandchilik ishlab chiqarish usulini aks ettirgan va qadimdan to XIX asr ning ikkinchi yarmigacha keng qo‘llanilgan. Hozirda ham milliy hunarmandchiligimizda qo‘llanib kelinmoqda.

Manufakturalarning paydo bo‘lishi va shunga ko‘ra mehnatning taqsimlanishi texnologik jaroyonning operatsiyalarini bo‘linishiga olib kelgan. Natijada, texnologiya ta’limining operatsiya sistemasi vujudga keldi.

Operatsion sistemasi bo‘yicha o‘qitishda o‘quvchilar o‘zlari egallaydigan kasbning mazmunini tashkil qiluvchi mehnat operatsiyalarini o‘rganishgan. Shu sababli ular harqanday buyumni tayyorlash bir hil operatsiyalardan iborat, bundan faqat operatsiyalarning bajarilish tartibi va ishlov berishning aniqligiga qo‘yiladigan talablar bir-biridan farq qiladi, degan tushunchaga ega bo‘lishgan. Shunday qilib, operatsiya sistemasi o‘quvchilarni ma’lum qator buyumlarga bog‘lab qo‘ymay mazkur kasb doirasidagi universial bilim va malakalar bilan qurollantirgan. Ta’limning buyum sitemasiga nisbatan operatsiya sistemasining asosiy afzalligi ana shudir.

Shu bilan birga, operatsiya sitemasi ham jiddiy kamchiliklarga ega. Operatsiyalar umuman o‘quv buyumlari tayyorlash jarayonida o‘zlashtiriladi, ya’ni o‘quvchilar mehnati unumli mehnat xarakterida bo‘lmaydi. Natijada ularning ishga qiziqishi susayadi. Bundan tashqari, operatsiya sistemasi operatsiyalarni bajarish bilan buyumlar tayyorlashni umuman uzib qo‘yadi. Vaholanki, operatsiyalarni kompleks bajarish uchun ba’zi qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalar (mehnatni tashkil qilish, operatsiyalar ketma-ketligini rejalashtirish va v.x.lar) kerak bo‘lishi ma’lum, ular operatsiyalarni alohida o‘rganishda shakllaniladi.

Navbatdagi operatsiya -buyum sistemasi oldingi ikki sistemadagi hamma yaxshi narsalarni o‘z ichiga olgan. Bu sistemada o‘qitishning ikki bosqichi nazarda tutiladi. Birinchi, qisqa bosqichda o‘quvchilar mazkur kasb uchun xarakterli buyumlarni tayyorlash bo‘yicha texnologik jaroyonning bir qismini bajarib ayrim operatsiyalani bajarish usullari bilan tanishadilar. SHundan keyin ular ta’limning ikkinchi bosqichga o‘tadilar, buyumni batamom tayyorlaydilar.

20-yillar oxirida texnologiya ta’liming motor- mashq sistemasi Markaziy mehnat instituti (TSIT) ishlab chiqqan va shu tufayli TSIT sitemasi bed ham ataluvchi motor-mashq sistemasi tarqaldi. Bu sistema jiddiy kamchilikka ega edi. Ana shu sistema bo‘yicha o‘qitish o‘quvchilar ko‘nikma va malakalarni ongli o‘zlashtirishni nazarda tutmasdi. Ko‘nikmalarni shakllantirish maxsus apparatlar va xaqiqiy mehnat jarayonini eslatadigan mashqlarni qo‘llash bilan amalga oshirilardi.Ko‘p marta takrorlash natijasida mushaklarni ma’lum harakatlarini

ongning ishtirokisiz ham bajarishga “O‘rgatish” mumkin, ded faraz qilingan.Ta’limga bunday yondoshish ma’qullanmadi va qo‘llanilmadi.

TSIT sistemasining kamchiligini ta’kidlab, bu sistemaning texnologiya ta’limiga qo‘shgan asosiy, ijodiy xissasini aytmaslik mumkin emas. Motor-mashq sistemasining yutug‘i shuki, unda mehnat o‘quv va malakalarini shakllantirishning didaktik jixatdan asoslangan, psixofiziologik qonuniyatlarga mos keladigan ketma-ketligi: mehnat usuli - mehnat operatsiyasi – mehnat jarayoni birinchi marta ishlab chiqilgan. Mehnat harakatlari va mehnat usullari chuqur tahlil qilinib, ularni tashkil etish yo‘llari belgilanadi. Bu ish hozirgi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas.

Operatsiya – Buyum va motor-mashq sistemalarining hamma ijodiy jixatlari operatsiya – kompleks sistemada yanada rivojlantirildiki, u xozirgi vaqtda maktablardagi aosiy sistemalardan biri hisoblanadi.

Operatsiya – kompleks sistema bo‘yicha o‘qitish o‘quvchilarning oldin ikki-uchta ketma-ket operatsiyani o‘zlashtirishi, so‘ng ana shu operatsiyalarni o‘z ichiga

Operatsion sistemasi. buyum sistemasi **Operatsiya – kompleks sistema,** ulotlarni **konstruktorlik- texnologik sistema** olgan kompleks ishlarni bajarishga o‘tishdan iboratdir. SHundan keyin ular yangi operatsiyalarni o‘zlashtirishga va tegishli kom’leks ishlarni bajarishga kirishadilar. Operatsiyalarni o‘zlashtirish ayrim ish harakatlari va usullarini bajarishga doir mashqlardan boshlanadi.

Mehnat operatsiyalarini o‘zlashtirish va ularni kompleks ishlarda qo‘llash ta’limning birinchi bosqichidagi asosiy vazifasidir. Ikkinchi bosqichda o‘quvchilar ishlab chiqarishdagi unumli mehnatga qo‘shiladilar.

Operatsiya – kompleks sistema ham ma’lum kamchiliklardan xoli emas. Ulardan eng asosiysi, operatsiyalarni o‘rganish va xatto kom’leks ishlarni bajarish ‘aytida o‘quvchilarni unumli mehnatga jalb etish qiyinligibir.

Texnologik ta’limining yuqoridagi (TSIT sistemasidan boshqa) sistemalarining hammasi ko‘rsatilgan kamchiliklardan tashqari yana bitta kamchilik bilan xarakterlanadi, ya’ni ular ishchining faqat ijrochilik funktsiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

2**. Maktab ustaxonalarida ta’lim sistemasi**

Maktab ustaxonalaridagi mashg‘ulotlar sistemasi haqidagi masala hali pedagogika fani va amaliyotida to‘la hal qilinmagan. Qator mualliflar ustaxonalardagi mashg‘ulotlarni **konstruktorlik- texnologik sistema** bo‘yicha tashkil etishni tavsiya qiladilar. Bu sistemaning mohiyatini qisqacha qarab chiqamiz. Ta’limning konstruktorlik-texnologik sistemaning yetakchi g‘oyasi o‘quvchilarning ijrochilik va ijodiy faoliyatini tarkiban komdinatsiyalashdan (birlashtirishdan) iborat.

O‘quvchilarni mehnat obektini bevosita tayyorlashdan oldin uning konstruktsiyasi va ishlov berish texnologiyasi amalga oshirilishi kerak bo‘lgan sharoitga olib kiriladi. Shu tariqa ular avval qator texnik masalalarni hal qiladilar va faqat shundan keyin detallarni ishlashga, ularni yig‘ish va hokazolarga o‘tadilar. SHunday qilib, o‘quvchilar texnologiya ta’limi jarayonida muayyan amaliy mehnat harakatlarnni bajaribgina qolmay, ana shu harakatga bog‘liq holda vujudga keladigan texnik masalalarni ham hal qiladilar.

Maktab ustaxonalarida amaliy mehnat malaka va ko‘nikmalarini o‘rgatish o‘erats’ya - buyum sistemasi bo‘yicha tashkil qilinadi. Buni qator mushohadalardan kelib chiqib tasdiqlash mumkin. Birinchidan, dasturda operatsiyalarni alohida holda o‘rganish nazarda tutilmaydi; buning ustiga har qaysi operatsiyalarni o‘rganish uchun qancha vaqt sarflanishi umuman ko‘rsatilmaydi; demak, dasturda amaliy mehnat malaka va ko‘nikmalari operatsiya yoki **operatsiya - kompleks sistemasi** bo‘yicha shakllanishi ham nazarda tutilmaydi. Ikkinchidan, amaliy mehnat malaka va ko‘nikmalarini o‘rgatish jarayonini tashkil qilishning o‘zagi o‘quvchilar tayyorlash kerak bo‘lgan obyektlar ro‘yxatidan iboratdir; ammo bu ro‘yxat majburiy emas, ya’ni mahalliy sharoitga qarab ba’zi buyumlarni boshqalari bilan almashtirish mumkin; bundan tashqari dasturda buyum tayyorlash jarayonida qaysi temani o‘tishda o‘quvchilar qaysi mehnat operatsiyalarini o‘zlashtirishi kerakligi ko‘rsatiladi, shuningdek to‘g‘ri mehnat usullarini shakllantirish zarurligi ham ta’kidlanadi: demak, dastur amaliy mehnat malaka va ko‘nikmalarini Buyum sistemasi bo‘yicha shakllantirishni nazarda tutmaydi.

Shunday qilib, dasturning mazmuni ta’limning yuqorida aytilganidek, ko‘p davom etmaydigan va o‘qitish jarayonida muhim rol o‘ynamaydigan dastlabki davrini istisno qilib, texnologiya ta’limining operatsiya - buyum sistemasini qo‘llashga yo‘llagandek bo‘ladi. Ammo bu dasturning bir qismiga, xususan, materiallarga ishlov berish, buyumlarni yig‘ish va boshqa mehnat malaka va ko‘nikmalariga taalluqlidir.

O‘quvchilarni tayyorlanishi lozim bo‘lgan buyumlarni oldindan konstruktsiyalash bilan bog‘liq ijodiy xarakterdagi masalalarni yechishga o‘rgatish sistemasi hozircha mufassal ishlanmagan. Dasturda o‘quvchilarni mehnat ob’yektlarini tayyorlash konstruktsiyalari va texnologiyasini ishlab chiqishga jalb qilish kerak, degan umumiy ko‘rsatmadan boshqa o‘qituvchi uchun aniqroq tavsiyalar berilmaydi.Bu yerda esa, o‘quvchilarni maktab ustaxonasida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda ijodiy faoliyatga jalb qilishning umumiy tamoil va xususiyatlarini ko‘rsatamiz.

O‘quvchilar ijodiy faoliyatining mohiyati haqida gapirilar ekan, shuni qayd qilish kerakki, bu faoliyat uchun kattalar ijodiy mehnatidagi mavjud asosiy qonuniyatlarning hammasi xarakterlidir:

1. Ijodiy ish jarayonida o‘quvchilar yaratadigan hamma narsalar, ijtimoiy ahamiyatidan qat’i nazar, o‘quvchilardan qunt bilan, ko‘pincha zo‘r berib mehnat qilishni taqozo etadi.

2. O‘quvchilariing ijodkorligi psixik komponentlariga ko‘ra kattalarning ijodkorlik jarayoniga yaqinlashadi. Ijodiy ‘rotsess uchun aqliy faoliyatning yuqori saviyaliligi xarakterlidir, unda qandaydir bitta yoki ikkita psixik funktsiyalar emas, balki inson shaxsining psixologik-jismoniy kuchlari, qodiliyati, bilim va malakalarining murakkab kom’leksi namoyon bo‘ladi.

Ijodiy faoliyat jarayonida bilish ‘rotsesslari ham, ehtiyojlar ham hissiyotlar ham, irodaviy harakatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Sezish va idrokning rivojlanishi atrofimizdagi buyum va hodisalarni to‘liq qabul qilish imkokini beradi. Diqqat tufayli inson qo‘yilgan masalani yechish uchun eng muhim ob’yektni ajratadi, eslab qolish qobiliyati tufayli esa ijodiy jaroyonda to‘plangan bilim va malakalardan foydalanadi.

Har qanday ijodiy faoliyat ma’lum masalalarni hal qilishni nazarda tutadi va bunga ko‘pincha oddiy idrok qilish yo‘li bilan emas, balki fikrlash faoliyati orqali erishiladi, bu faoliyat natijasida mavjud bilimlardan yangi xulosalar chiqariladi. Ijodiy jaroyonda boshqa psixik funktsiyalarning ham roli katta. Ehtiyojlar va sabab (motiv) lar insonni shunday faoliyatga undaydi; uning qiziqishlari ongini ijodiy mehnat buyumlariga yo‘naltiradi; emotsiya va hislar bu mehnatni yanada ilhomliroq qiladi, irodaviy harakatlar esa qo‘yilgan masalani ongli hal qilish imkonini beradi.

3. O‘quvchilarning ijodiy faoliyati jarayonini umumiy yo‘sinda kattalarning ijodiy faoliyati jarayonidagi kabi g‘oyaning ‘aydo bo‘lishi yoki ijodiy masalaning vujudga kelishi; masalani yechish; yechimni amalda qo‘llash bosqichlariga bo‘lish mumkin.Shu bilan birga o‘quvchilarning ijodiy faoliyat jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega:

1. Har qanday ijod uchun yangilik xarakterlidir va u ob’yektiv yoki sub’yektiv bo‘lishi mumkin. Boshqacha aytganda, ijodiy faoliyat jarayonida jamiyat uchun yangi mehnat mahsulotlari (ob’yektiv yangilik) yaratilishi yoki bu mahsulotlarni yaratayotganlar uchun yangilik (sub’yektiv yangilik) yaratilishi mumkin. O‘quvchilar ijodiy mehnatining natijalarini o‘rganish, ular juda kam hollarda jamiyat uchun emas, o‘zlari uchun yangi mahsulotlar yaratishini, ya’ni ularning ijodiy faoliyati sub’yektiv yangilik bilan xarakterlanishini ko‘rsatmoqda.

2. O‘quvchilar ijodkorligi ularnnng mustaqil harakatlari kattalar harakatidan pastroq saviyada bo‘lishi bilan xarakterlanadi. CHunki o‘quvchilar hali yetarli ish tajribasiga ega bo‘lmaydilar, ular o‘sish va kamol to‘ish davrida o‘z kuchlarini iljodiy masalalarni hal qilishda sinab ko‘radilar. O‘quvchilar jismonan o‘sadilar va rivojlanadilar. Ularning bilish jaroyonlari ham shakllanadi va takomillashadi. Hayotlarining har bir yili o‘tgani sayin ularning idroki, tasavvuri mazmunliroq bo‘lib boradi, abstrakt tafakkurlari chuqurlashadi, nutqlari boyiydi, ularda erkin xotiraning, diqqatning roli ortadi. Bu bilish jaroyonlarning hammasi rivojlanish bosqichida bo‘lib, o‘quvchilarda o‘ziga xos xususiyatlar kasb etadi, ularning butun faoliyatiga, shu jumladan, ijodiy faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘smirlar idrok qilingan buyum va hodisalarni murakkab tahlil va sintez qila oladilar. SHu bilan birga ular ko‘pincha ba’zi tomonlar va xususiylikni unutadilar. Ularning abstrakt tafakkuri shakllanish bosqichida bo‘lib, hali aniq obrazli komponentlar katta rol o‘ynaydi. Ishga qarab ixtiyoriy xotira ixtiyorsiz xotira bilan almashinib boradi, lekin ixtiyorsiz xotira katta o‘rinni egallab turishi davom etadi: ixtiyoriy diqqat ancha rivojlangan, ammo ixtiyorsiz diqqat ham katta rol o‘ynaydi.

O‘quvchilar ijodiy faoliyatining xususiyatlari bu faoliyatga pedagogik rahbarlik hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Maktablarning ish tajribalari o‘quvchilarning ijodiy ishiga rahbarlikda amal qilish kerak bo‘lgan asosiy shartlarni ifodalash imkonini beradi:

1. O‘quvchilarni har hil savol va masalalarni mustaqil hal qilish imkoniyatlaridan iborat faoliyatga qatnashtirish.

O‘quvchilarning ustaxonalardagi faoliyati har hil xarakterda bo‘lishi va shunga ko‘ra turli darajadagi fikrlash faolligida amalga oshishi mumkin. Faoliyat xarakteri ko‘proq ishning reglamentlanish darajasidan kelib chiqadi. Mayda-chuydalarigacha reglamentlangan faoliyat mustaqil ishlarga, tashabbusga, ijodiy faollikka o‘rin qoldirmaydi. Shu sababli o‘quvchilarda mustaqillik rivojlanishi uchun Topshiriqlar butunlay ijrochilik xarakteriga ega bo‘lmay, balki tafovut va variantlarga ham yo‘l qo‘yish zarur.

2. O‘quvchilarni ijodiy g‘oyaga keltirish yoki ular oldiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijodiy xarakterdagi savollar va masalalarni qo‘yish.

O‘quvchilarni har hil savol va masalalarni mustaqil yechish imkoniyatlarini o‘z ichiga olgan mehnat faoliyatiga qo‘shish bilan ularda tashabbuskorlik va texnik ijodiyotni rivojlantirish muammosi o‘z-o‘zidan hal bo‘lmaydi. Chunki o‘quvchilarning ko‘’chiligi o‘z oldiga ijodiy masala qo‘yishi qiyin. Shu sababli, o‘quvchilarni mehnat Topshiriqlarida savollar va masalalar qo‘yish orqali ijodiy

faoliyatga undash kerak. Ularga texnik ijodkorlik uchun topshiriqlardagi imkoniyatlarni va ulardan foydalanishni anglatish lozim.

Mehnat topshirig‘i ijodiy masala, uning tarkibiy qismi, bu masalani yechish esa mehnat jarayonining tarkibiy qismi bo‘ladigan qilib to‘zish mumkin. Ravshanki, bunda ijodiy masalani hal qilmasdan turib, mehnat topshirig‘ini bajarish mumkin emas. Mehnat topshirig‘i o‘z ichiga ijodiy mehnat imkoniyatlarini olishi mumkin. Bu imkoniyatlar mehnat topshirig‘ini bajarish bilan bir vaqtda yechiladigan masalada ifodalanadi.

3. O‘quvchilarni fan va ishlab chiqarish asoslariga oid bilimlarni faollashtirish va qo‘llashga undash.

4. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish. Ijodiyotning o‘zi o‘quvchilar faoliyatini kuchaytiradi, chunki u doimo qiziqarli amaliy masalalarni hal qilish bilan bog‘liq bo‘lib, shu sababli o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiladi. O‘qituvchining maqtashi, eng yaxshi ishlar ko‘rgazmasini tashkil qilish, devoriy matbuotda o‘quvchilarning yutuqlarini ommalashtirish va hokazolar bilan ham ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish mumkin.

O‘quvchilar texnik ijodiyotini rivojlantirishga qaratilgan mehnat Topshiriqlarini mazmuni bo‘yicha uchta gruppaga: konstruktsiyalash, texnologik protsesslarni tuzish va mehnatni ratsional tashkil qilishga ajratish mumkin.

Ana shu gruppalarning har biridagi topshiriqlarning murakkabligi har hil bo‘lishi mumkin. Texnik ijodkorlikni rivojlaitirishni eng sodda Topshiriqlardan boshlash va o‘quvchilarning mustaqilligini orttirish, ular buyumlarni konstruktsiyalay oladigan, texnologiyani ishlab chiqa oladigan, o‘z mehnatlarini uyushtiradigan bo‘lish uchun mazkur Topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirib borshi kerak.

Shunday qilib, o‘quvchilarning ijodiy ishlarini tashkil qilish ustaxonalardagi mashg‘ulotlarda ta’limga muammoli yondashishni amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Sattorov V.M., Davlatov K. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2009. 427 b.

2. K.Davlatov Mehnat va mehnat ta’limi, tarbiyasi hamda mehnat tanlash nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma. “O‘qituvchi” 1992.

3. Boltaboev S.A., Ismoilova M.M. Mehnat ta’limini o‘qitish metodikasi fanidan kurs ishlari. (Metodik qo‘llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2002. 20b.

4. Qo‘ysinov O.A., Sattorov.V.N., Yakubova H.S. Mehnat ta’limidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi. (Metodik qo‘llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2011. 79 b.

TEXNOLOGIYA FANI BO‘YICHA METODIK XIZMATNI TASHKIL QILISH VA AMALGA OSHIRISH OMILLARI

Guluzro Mamajonova Abdurashitovna
Andijon davlat pedagogika instituti v/b dotsent

Abdulaziz Abdumannopov
Diyorbek Ibroximov
Andijon davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Maqolada Umumiy o‘rta ta’lim tizimida texnologiya fani bo‘yicha metodik xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish omillari. Umumta’lim maktablarida ilmiy-metodik ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun maktab rahbari ayni vaqtda ham yaxshi pedagogik, ham kasb sirlarini yaxshi biladigan mutaxassis bo‘lishi kerak. U mustaqil ravishda bilim olish va malaka oshirish kurslari orqali ilmiy-metodik ishlarning mazmuni hamda ularni tashkil etishga oid masalalarni o‘rganib borishi kerakligi ilmiy- uslubiy asnosida tashkil tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Metodik ishlar, metodik xizmat, pedagogik kengash, uslubiy komissiya, metodik birlashma, pedagogik o‘qish, uslubiy kengash, istiqbolli reja.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida texnologiya fani bo‘yicha metodik xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish tizimi. Umumta’lim maktablarida ilmiy-metodik ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun maktab rahbari ayni vaqtda ham yaxshi pedagogik, ham kasb sirlarini yaxshi biladigan mutaxassis bo‘lishi kerak. U mustaqil ravishda bilim olish va malaka oshirish kurslari orqali ilmiy-metodik ishlarning mazmuni hamda ularni tashkil etishga oid masalalarni o‘rganib borishi kerak. Umumta’lim maktablarida tashkil etiladigan ilmiy-metodik ishlarning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:umumta’lim maktabi pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g‘oyaviy saviyasini, pedagogik mahoratini oshirish;o‘quvchilarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarini takomillashtirish;ta’lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasb va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta’minlash;

ilg‘or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o‘rganish, umumlashtirish hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Ilmiy-metodik ishlarda ishtirok etish umumta’lim maktablaridagi barcha rahbarlar, o‘qituvchilar, muxandis-’edagoglar uchun majburiy bo‘lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi.

Umumta’lim maktablaridagi metodik ishlarning mazmuni, yo‘nalishi, tuzilmasi kabilar metodik ish haqidagi Nizom bilan belgilanadi. Shu nizomga muvofiq jamoaviy va individual metodik ishlar olib boriladi.

Quyidagilar jamoaviy metodik ish shakllari sirasiga kiradi:

pedagogik kengash;uslubiy komissiyalar;ilg‘or tajriba maktabi, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy konferensiyalar, pedagogik o‘qish va turli uslubiy kengashlar. Individual metodik ish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

umumta’lim maktablari rahbarlari, o‘qituvchilar, va boshqa texnik xodimlarning o‘z g‘oyaviy-siyosiy darajasi, pedagogik malakasi va kasb mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil metodik ishlari;maktab rahbari (direktor), uning o‘rinbosarlari, o‘qituvchilar, pedagoglar va boshqa texnik xodimlar bilan olib boradigan individual metodik ishlari. Metodik ishlar shakli va mazmuni bo‘yicha ham pedagogik xodimlarning turli guruhlarini qamrab olish bo‘yicha ham muvofiqlashtirilgan taqdirdagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Umumta’lim maktabida metodik ishlarni umumiy mavzu asosida tashkil etish tajribasi bunday muvofiqlashtirish usullaridan biridir. Metodik ishni bunday tashkil etishning mohiyati shundan iboratki, umumta’lim maktabi ma’lum bir vaqtga mo‘ljallangan umumiy mavzuni tadqiq etadi. Buning natijasida ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning dolzarb muammolarini hal etishga muayyan hissa qo‘shadi, turli toifadagi pedagogik xodimlarning tayyorgarlik darajasi hisobga olingan holda, ularning pedagogik mahoratini oshirish vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Metodik ish umumta’lim maktabining istiqbolli va joriy ish rejalarida mustaqil bo‘lim sifatida rejalashtirilishi kerak. Mustaqil ishlarning tashkil etilishi va samaradorligini tekshirish masalalari umumta’lim maktablarining ichki nazorat rejalarida o‘z aksini topadi. Metodik ishlarni rejalashtirishda quyidagi talablarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:kelajakdagi rivojlanishni ko‘zda tutish (bajarish muddatlari va vazifalari bo‘yicha);rejalarni ta’lim-tarbiya va metodik ishning ahvoli va natijalarini har tomonlama chuqur o‘rganish hamda tahlil qilish asosida ishlab chiqish;rejalarning ijodiy harakteri, ya’ni ularni bajarishda ishtirok etuvchi xodimlarning tashabbusi va ijodkorligini namoyish etilishga zarur imkoniyat yaratish;metodik ishlarning jamoaviy va individual shakllarini uyg‘un qo‘shib olib

borish;tezkor tekshirish mumkinligi (yozuvlar va bajarish muddatlarining aniqligi ijrochilarning ko‘rsatilishi). Metodik ish shakllari va maqsadlarining rang-barangligi, uning turli guruh va toifadagi pedagoglarni o‘ziga jalb etilishini hisobga olib, tadbirlarni mazmuni va o‘tkazish muddatlarini muvofiqlashtirish, bir ishning takrorlanishini bartaraf etish, uning samaradorligini oshirish uchun pedagogik amaliyotda uzoq vaqtlardan beri «Metodik ishlarning umumiy rejasi» tuziladi. Bu ish pedagogik tajribada o‘zini oqladi. Bunday rejada umumta’lim maktabidagi barcha metodik ishlar tizimi taqvim muddatlar va muhim tadbirlar bo‘yicha uyg‘unlashtiriladi. Texnologiya fani o‘qituvchisining metodik ishlar olib borishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad – ularning malakasini oshirish. Bu esa ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda muhim vositadir. Bu ish o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan olib boradigan ishlarida katta yordam beradi, ularning ma’naviy-ma’rifiy saviyasi, pedagogik va ishlab chiqarish malakasini oshiradi.

Shunga e’tibor berish kerakki, o‘qituvchilarning metodik ishlari asosini ularning bu sohadagi mustaqil ishlari tashkil etadi. Bu ish muayyan maqsadga qaratilgan bo‘lishi, muntazam olib borilishi va ta’lim-tarbiya ishlarida o‘z ifodasini to‘ishi kerak.

O‘qituvchilarning metodik ishlari maktab rahbarlarining bevosita nazorati va rahbarligida olib borilishi kerak. Umumta’lim maktabida mustaqil metodik ishlar jamoaviy ishlar bilan birga olib boriladi.

Texnologiya o‘qituvchisi o‘zining pedagoglik mahoratini takomillashtirish ustida, o‘z malakasini oshirish ustida har doim ishlashi kerak. Unga bu borada o‘qituvchilar malakasini oshirish institutlari ancha yordam beradi. Bu institutlarda qichqa muddatli kurslar tashkil qilinib, ularda o‘qituvchilar fan va texnika sohasidagi yutuqlar, ilg‘or pedagogik tajribalar bilan tanishadilar.

Bu kurslar hamma o‘qituvchilarni qamrab ololmaydi, albatta. Shu sababli kurs tayyorgarligi bilan birga joylarda muntazam ravishda metodik ishlab olib boriladi. Odatda, ular birqancha metodik ishlarini bajarishadi. Bu esa qo‘shimcha ma’suliyat yuklaydi, ularning mustaqil bilim olish borasida qunt bilan ishlab, hamkasblari uchun namuna bo‘lishga majbur qiladi.

Metodik ishlarni tashkil qilish metodlari, shakllari, mazmuni va vositalari. O‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berishda mehnat ta’limi o‘qituvchisi yetakchi rol o‘ynaydi. Ta’lim-tarbiya jarayonining ahvoli, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi o‘qituvchi kasbiy malakasiga, pedagoglik mahoratiga, madaniyat darajasiga bog‘liq.

Yakka tartibdagi metodik ish butun o‘quv yiliga tuzilgan reja bo‘yicha olib boriladi. Unda o‘qituvchi muhandis-’edagog o‘z pedagog mahoratlarini va o‘z bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida yakka tartibdagi metodik to‘ishiriqlar nazarda tutiladi. Ularga quyidagilar kiradi: pedagogik mavzular bo‘yicha ma’ruzalar tayyorlash; o‘quv dasturning eng qiyin mavzulari bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar tuzish; anchagina mehnat qilinishi talab qilinadigan muammoli izlanish ishlarini belgilaydi. Bu Topshiriqlar har bir pedagog uchun majburiy minimum hisoblanadi.

Har bir pedagog ish rejasi to‘rtta bo‘limdan tashkil to‘ishi kerak:

1. G‘oyaviy-siyosiy saviyani oshirish.

2. Metodik-pedagogik mahoratini takomillashtirish.

3. O‘qitilayotgan mehnat turi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.

4. pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish.

Bu reja metodik kengash majlisida ko‘rib chiqilib, tasdiqlanadi. Bu rejaning bajarilishi haqida o‘qituvchilar hisobotlari eshitilib turiladi.

G‘oyaviy-siyosiy saviyani oshirish - materiallar ishlab chiqilayotganda hozirgi zamon hayoti va ishlab chiqarishni nazarda tutish kerak. Mehnat ta’limi o‘qituvchisi yoshlarga mehnat tarbiyasi va ‘olitexnik ta’lim berishning mohiyati ancha to‘la yoritilgan asarlarni, Prezident qarorlarining umumiy o‘rta ta’limga oid hujjatlarini o‘rganishi, siyosiy seminarlar va nazariy konferensiyalar ishida qatnashish, matbuot, radio, televidenie orqali hozirgi siyosat bilan tanishish va amaliy ishda qo‘llash. Metodik-pedagogik mahoratini takomillashtirish- tayyorlanadigan ma’ruzalar, ko‘rsatmalar, tavsiyalarda o‘quvchilar bilan bo‘ladigan o‘quv-tarbiyaviy ishlari shaklini mukammallashtirib borish nazarda tutiladi. Mehnat ta’limi o‘qituvchisining o‘z ustida mustaqil ishlashi mehnat ta’limiga oid ilmiy jurnallar va asarlar bilan muntazam tanishib borishi, metodik mahoratida esa mashg‘ulot olib borish sifatini takomillashtirib, bunda yangi metodik ko‘rsatmalar tayyorlash, o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirish masalasini yechish, ilg‘or pedagogik tajribalarni esa boshqa o‘qituvchilar orasida yoyishga yordam berishdir. Nazariya bo‘yicha darslarga tekshirish uchun kirgan o‘qituvchi darslarning taqvimiy mavzuli reja va har bir dars bo‘yicha rejasi hamda dars o‘tish uchun ishlanmalar borligiga; dars mavzusi bo‘yicha tuzilgan reja va dasturga mos kelishiga; ta’lim vositalaridan unumli foydalanilayotganligiga; darsda o‘quv tarbiyaviy ishning qo‘yilishi va uning amalga oshirilishini, qo‘yilgan maqsadni hal etish uchun tanlangan dars turining maqsadga

muvofiq ravishda tanlanganligiga baho berish; darsning strukturasi to‘g‘ri tanlanganligiga, vaqtning taqsimlanishiga, o‘qituvchi va o‘quvchilarning darsga tayyorgarligiga e’tibor berish kerak. O‘qitilayotgan texnologiya yo‘nalishi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish – ilg‘or texnologiya va ratsional mehnat usullarini, texnika yangiliklarini muntazam o‘rganib borish, ilmiy-texnikaviy seminarlarda qatnashish, texnikaga oid mavzulardagi ma’ruzalarni eshitib borish, ko‘rgazmalarga borib turish, ilg‘or korxonalarga o‘tkaziladigan ekskursiyalarda qatnashish va hokazolar orqali erishiladi. Amaliy ko‘nikmalar va malakalar mehnat ta’limi o‘qituvchilarining malakali metodistlar rahbarligida va ishlab chiqarish ilg‘orlari ishtirokida ilg‘or ish usullarini egallash yo‘li bilan takomillashtiriladi.

Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish – texnologiya darslarida amal qilinadigan hujjatlarni ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqish; o‘quv ustaxonalarini zarur materiallar, asbob-uskunalar bilan muntazam ta’minlab turish tadbirlarini belgilash, ish joyini ilmiy asosda tashkil etish, ta’limning eng samarali ko‘rsatmali va texnikaviy vositalaridan oqilona foydalanish yo‘li bilan erishiladi.

Didaktik materiallar tayyorlash. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun manba sifatida ishlatiladigan vositalarni tayyorlash ham metodik ishlarga kiradi. O‘quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o‘qituvchi tomonidan ularning tanlanishi va nazariy yoki amaliy mashg‘ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tushuniladi. Agar tayyor vositalar yo‘q bo‘lsa, u holda bu vositalarni o‘qituvchining o‘zi tayyorlashiga to‘g‘ri keladi.

O‘quv va didaktik materiallarni tayyorlashda texnologiya o‘qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarni inobatga olgan holda e’tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

-ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar;

-yozma Topshiriqlar, yozma va og‘zaki testlar uchun so‘rov qog‘ozlari;

- baholash varag‘i, nazorat qog‘ozi;

- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar.

O‘qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma’lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma’lumotlarni ham o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar uchun materiallar esa qoida bo‘yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. N. A. Muslimov, Sh. S. Sharipov, O. A. Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik T. :O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

2. N. A. Muslimov, Sharipov va. boshqalar. Mehnat ta'limi o'aitish metodikasi. O quv qo'llanma. —T. : 2009, 427 b.

3. "Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2016 yilning asosiy yakunlari va 2017 yilda O'zbekistonning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'naltirishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi".

4. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyalining kundalik qoidasi boMishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston republikasi prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

TEXNOLOGIYA FANI TO‘GARAKLARIDA QO‘LLANILADIGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Guluzro Mamajonova Abdurashitovna
Andijon davlat pedagogika instituti v/b dotsent

Masuma To‘lanboyeva
Moxichexra Axmadjonova
Rayxon Jo‘rayeva
Andijon davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Maqolada ta’lim innovatsiyalari - ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Zamonaviy sharoitda o‘quvchilarning o‘quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o‘qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta’lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi uslubiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim texnologiyalari, keys-stadi, muammo va muammoli vaziyat, juftlikda ishlash, komandada o‘qitish, modul, modullar dasturi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari. Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (innovation) “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi. Innovatsion ta’lim (ingl. “innovation” - yangilik kiritish, ixtiro) - ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarini shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim.

Ta’lim innovatsiyalari - ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Zamonaviy sharoitda o‘quvchilarning o‘quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o‘qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta’lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta’lim, modul-kredit tizimi, masofali

o‘qitish, blended learning (aralash o‘qitish) va mahorat darslari ta’limning innovatsion shakllari sifatida e’tirof etilmoqda .

Muammoli ta’lim texnologiyasi (muammo va muammoli vaziyat)

Muammoli ta’lim texnologiyasi.

Rivojlantiruvchi ta’limning vazifasi - shaxsning individual kamol topishi uchun zarur bo‘ladigan hayotiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish sanaladi. Rivojlantiruvchi ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari - o‘quvchilarda topshiriqlarni yechishga oid nazariy tushuncha va amaliy ko‘nikma, malakalarni shakllantiradi. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasining asosiy bo‘g‘ini muammoli ta’lim yo‘nalishi sanaladi.

Muammoli o‘qitishni chuqur o‘rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo‘lib, uning asosida “Tafakkur - muammoli vaziyatdan boshlanadi” - degan g‘oya yotadi.

Fikrlash psixologiyasi nuqtai nazaridan muammoli o‘qitish g‘oyasi va tamoyillari

S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner tomonidan ishlab chiqilgan.

Muammoli ta’lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 xil ko‘rinishga ega.

Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.Muammoning qo‘yilishi.Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatni o‘quv mashg‘ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko‘p shakllantirish o‘qituvchiga bog‘liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u o‘quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o‘quvchilarning izlanishiga, fikrlashga o‘rgatadi.

Muammoli ta’lim o‘qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o‘quvchilarning faol, mustaqil faoliyati natijasida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni ijodiy o‘zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta’lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Muammoli o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga tadqiqiy, evristik, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bo‘yicha topshiriqlar beriladi.

Bunda: 1.nostandart masalalarni tuzish bo‘yicha; 2.shakllantirilmagan savol bilan; ortiqcha ma’lumotlar bilan; 4.o‘zining amaliy kuzatuvlari asosida mustaqil umumlashtirish; 5.yo‘riqnomalardan foydalanmasdan qandaydir ob’ekt mohiyatini bayon etish; 6.olingan natijalarni qo‘llash chegaralarini va darajalarini aniqlash;

hodisaning namoyon bo‘lish mexanizmini aniqlash; 7.“bir lahzada” topish kabi topshiriqlarni berish mumkin.

Muammoli vaziyatlarda yechimga kelishning algoritmi quyidagi tartibda amalga oshiriladi: muammoni qo‘yish, ma’lumotlar fondini to‘plash, qayta ishlash, yechim modelini aniqlash, qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plash va ularni tanlangan yechim modelida aks ettirish, yangi ma’lumotlar va yechim modeli o‘rtasidagi zidlikni aniqlash, zidlikni yechimini topish, yangi yechim modelini yaratishdan iboratdir.

“Muammoli vaziyat” usuli - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan usuldir.

“Muammoli vaziyat” usuli uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi zarur. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmaslik, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” usuli qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” usulining bosqichlari:

Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. 2.Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi. 3.Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi. 4.Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.

Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

Bu bosqichda muammoning oqibatlari to‘g‘risidagi fikr-mulohazalarni taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama va tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi

“Muammo” texnologiyasi.

Muammoli vaziyatlar va ulardan foydalanish.

Muammoli vaziyat muammoli ta'limni eng muhim momentidir. Mehnat ta’limi darslarida 8 tipdagi muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish mumkin:

O‘quvchilarda mavjud bo‘lgan bilimlar sistemasi bilan yangi bilimlar orasidagi nomuvofiqlardan chiqib keladigan muammoli vaziyatdir. Bu o‘zlashtirilgan bilimlar bilan yangi faktlar yoki ilmiy bilimlar va ulardan oldingi xayotiy, amaliy bilimlar orasidagi nomuvofiqlik natijasida paydo bo‘ladi. Masalan 6-sinf o‘quvchilari tajribasidan ma'lumki, motorli qayiqni suvda yurishi, samolyotning xavoda uchishi vintning aylanishi bilan sodir bo‘ladi. Bilimni to‘ldirish uchun rezina dvigatelli qayiq modelini tayyorlashdan oldin, uning ataka burchagi nol bo‘lgan vint bilan ishlashni namoyish qilinadi.

Konkret usulda nazariy jixatdan malum bo‘lgan eng muvofiq xarakat usulini tanlash muammosi paydo bo‘ladi. Bunday masala qirqish rejimini tanlashda, jixozni nosozligini aniqlashda paydo bo‘ladi. Masalan randalashda randa yog‘och qatlamlarini o‘zib olayotganini payqaydi. Lekin unga sabab qaysi biri ekanini bilmaydi, muammo sodir bo‘ladi.

Mutlaqo yangi sharoitda mavjud bilimlar va xarakat usullaridan foydalanish zaruriyatidan kelib chiqqan muammolar. Masalan o‘quvchilar istalgan asbob asosini pona tashkil qilishini bilgandan so‘ng o‘qituvchi ularga randa va sherxebl randa tig‘i orasidagi farqni to‘ishdek muammo.

O‘quv muammosi hal qilishning nazariy mumkin bo‘lgan yo‘li bilan amalga oshirib bo‘lmaslik orasidagi nomuvofiqlikdan kelib chiqqan muammo. Bu ishlab chiqarishga oid savollar tarzida «nega» degan savol. Masalan tasmali uzatmani uzatish 5 dan ko‘p qism tayyorlash tavsiya etilmaydi va xokazo.

Konkret ob'yekt (texnologik) bilan uning tasviri orasidagi nomuvofiqlikdan kelib chiqqan muammo. Mehnat ta'limida foydalanganda texnik rasm, chizma - kinematik simvollar yordamida tasvirlanadi, unda muhim bo‘lmagan elementlarni tushirib qoldiriladi, natijada amalga mos kelmaydi, muammoli vaziyat sodir bo‘ladi.

Harakatning xayoliy obrazi bilan amaliy xarakat orasidagi nomuvofiqlikni aks ettiruvchi muammoli vaziyatlar. O‘quvchilar yangi amaliy xarakatni bajarishdan oldin uning obrazini yaratishlari kerak. Ko‘p xollarda o‘quvchining yangi xarakatni bajarishi uning tavsifi bilan bir hil bo‘lmaydi.

Oldingi tajribani «psixologik tusiqlari»ni bartaraf qilish bilan bog‘liq muammoli vaziyatlar. Mavjud tajribalar yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida ijodiy va saldiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. O‘zlashtirilgan bilim va malakalarni saqlash bilan ularni takomillashtirish, yangilash orasidagi kurash boradi va muammoli vaziyat manbaiga aylanadi.Konstruktsiyalashda, modellashtirishda, texnologik jarayonlarni tashkil

etishda, o‘quvchilar malum konstruktsiyalar, modellar, tipovoy jarayonlardan uzoqlashish qiyin bo‘ladi. Yangi yechimlarni to‘ishda muammo xarakteridagi qiyinchilikka duch keladilar.

8. Qarama-qarshi fikrlar vujudga kelishining natijasidagi muammoli vaziyatlar.

Konstruktsiyalash va texnologik jarayonlarni tashkil etishda bir narsa haqida «Mumkin-mumkin emas», «Ratsional-noratsional», «Ijodiy-salbiy» qabilidagi ziddiyatli fikrlar aytiladi. Ulardan qaysi biri to‘g‘riligini isbotlash vazifasi muammoli xarakterga ega bo‘ladi.

Muammolilikni o‘quvchilarning mustaqil faoliyatiga ta'siri. Topshiriq quyidagicha bo‘ladi: Dvigatelning quvvati bilan mashinaning tortish kuchi orasidagi bog‘ lanishni aniqlang.

Demak o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga muammolik masalani qo‘yishi lozim. Muammoni yechishda muammoli ta'limning darajasini nomustaqil, yarim mustaqil, mustaqil va ijodiy faollikka ajratish kerak.

Birinchi darajasi - nomustaqil faollik. O‘qituvchi o‘quvchilarni muammoga olib kiradi, uni ifodalaydi, ishlash uchun faktli material tanlaydi, o‘quv muammolarini hal qilish metodlarini ko‘rsatadi va ularni ishtirokida hal qiladi.

Ikkinchi daraja - yarim mustaqil faollik. O‘qituvchi muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, o‘quvchilar o‘quv muammosini ifodalashga yordam beradi. O‘quvchilar uni xal qilish metodini mustaqil to‘ishi va o‘qituvchi bilan xulosa chiqaradi. Uchinchi daraja - mustaqil faollik. Bunda berilgan topshiriqlarni o‘quvchilar o‘z kuchlari bilan bajarishga harakat qiladilar.

To‘rtinchi daraja - ijodiy faollik. O‘qituvchi o‘quv materialini yoki mehnat to‘shirig‘ini mazmunini bayon qilish bilan muammoli vaziyatni xosil qilish uchun sharoit yaratadi. Bunda o‘quvchilar o‘quv muammosini mustaqil ifodalaydilar. O‘qituvchining yo‘naltiruvchi savollari ularga faktlar va isbotlardagi ziddiyatlarni to‘ishga va o‘quv materialining mantiqiga mos keladigan javod chiqarishga yordam deradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. N. A. Muslimov, Sh. S. Sharipov, O. A. Qoysinov. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash. Darslik T. :O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

2. N. A. Muslimov, Sharipov va. boshqalar. Mehnat ta’limi o‘aitish metodikasi. O quv qo‘llanma. —T. : 2009, 427 b.

3. “Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2016 yilning asosiy yakunlari va 2017 yilda O‘zbekistonning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘naltirishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi”.

4. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyalining kundalik qoidasi boMishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisdagi O‘zbekiston republikasi prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

TEXNOLOGIYA TA’LIMINI O‘QITISHDA KEYS-STADINI QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Shahnoza Jaloldinova Xasanboevna
Andijon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchi

Mushtariy Maxmudova
Marjona Yaxshiboyeva
Zarnigor Shodmonova
Andijon davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabalari

Annotatsiya: Maqolada Texnologiya fani vazifalaridan kelib chiqib ta’lim jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalarni, xususan keys-stadi texnologiyasini qo‘llash kutilgan natijalarni beradi. Keys-stadi texnologiyasi dars jarayonini, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangicha ruh bag‘ishlovchi ta’lim texnologiyalardandir. O‘quv jarayonida qo‘llaniluvchi barcha texnologiyalar kabi keys stadi texnologiyasi ham o‘ziga xos ta’limiy imkoniyatlariga ega. Shuningdek keys-stadi texnologiyasini qo‘llashda o‘qituvchining o‘rni va ahamiyati muhim ahamiyat kasb etishi haqida uslubiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Texnologiya. keys –stadi. Muammo. mas’uliyatlilik, ijtimoiy faollik, muloqatchanlik, moslashuvchanlik.

Bugungi kunda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, zamon talablarga mos dars jarayonlarini tashkil qilish ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor masalardan biridir. Texnologiya fani vazifalaridan kelib chiqib ta’lim jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalarni , hususan keys-stadi texnologiyasini qo‘llash kutilgan natijalarni beradi. Keys-stadi texnologiyasi dars jarayonini, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangicha ruh bag‘ishlovchi ta’lim texnologiyalardandir. O‘quv jarayonida qo‘llaniluvchi barcha texnologiyalar kabi keys –stadi texnologiyasi ham o‘ziga xos ta’limiy imkoniyatlariga ega. Shuningdek keys-stadi texnologiyasini qo‘llashda o‘qituvchining o‘rni va ahamiyati muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quv maqsadlari samarali bajarilishi uchun tahlil jarayonida har tomonlanma tayyorlangan bo‘lishi kerak, bu jarayon tizimlashgan, vaqt bo‘yicha reglametlashgan va nazorat qilingan bo‘lishi kerak.

Munozara asosan o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantiruvchi savollarni qo‘yishdan boshlanadi. Savollar oldidan tayyorlangan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi qo‘yilgan savollarga auditoriyani reaksiyasini seza bilishga harakat qilishi , bu jarayonda ta’lim

maqsadlariga erishishga yo‘naltirishni nazarda tutiladi. Keysning asosiy manbasi pedagoglarning ish tajribasi davomida yuz bergan muammolardir. Keysning asosiy ob’ekti shaxsga yo‘naltirilgan. Bu syujetli, prognostik, ko‘p sub’ektli keys bo‘lib, muammoli vaziyat asosida tuzilgan. Keys jamoa orqali munozarani tashkil qilishga mo‘ljalangan bo‘lib, didaktik maqsadlarga ko‘ra mavzu bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalarni mustahkamlash, ularni amaliy faoliyatga yo‘naltirishni nazarda tutadi.

Keys-stadi texnologiyasini tashkil qilishda o‘qituvchi quyidagi vazifalarni bajaradi.

1. Mashg‘ulot boshlanishida talabalarga “Keys-stadi” texnologiyasining mohiyati, ta’limiy imkoniyatlari va kutilayotgan natijalari haqida batafsil tushuntiradi. Buning natijasida talabalar mashg‘ulotda ongli va faol qatnashadilar, o‘zlarining kasbiy rivojlanishlariga befarq qolmaydilar.

2. Kichik jamoalarga o‘rgatish uchun turlicha yoki bir xil mazmunga ega bo‘lgan vaziyatlarning yozma matnlari tarqatiladi. Lekin ushbu vaziyatlarni bitta umumiy mavzu birlashtiradi.

3. Vaziyatlar bayon qilingan matnlar turli grammatik xatoliklardan, mantiqiy chalkashliklardan holi bo‘lishiga va voqea-hodisalar rivoji aniq ifodalanishiga e’tibor qaratadi. Aks holda talabalar xato xulosalar chiqarishlari mumkin.

4. Tahlil qilinishi kutilayotgan vaziyatlar bevosita talabalarning bo‘lg‘usi Kasbiy faoliyati mazmuni bilan bo‘g‘liq bo‘lishi kerak.

5. Talabalarga vaziyatlar tahlili bo‘yicha topshiriqlar aniq beriladi. Shuningdek, vaziyat tahlilida nimalarga e’tibor qaratilishi lozimligi aytiladi.Bu esa vaziyatdgi asosiy muammoni aniqlash imkonini beradi.

6. Talabalar tahliliy faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish uchun ularga yo‘naltiruvchi savollar bilan murojaat qilinadi.

7. Har bir talabaning mashg‘ulotda faol qatnashishi e’tiborga olinadi, ular faoliyati kuzatib boriladi.

8. Zarur paytlarda talabalar o‘qituvchidan maslahat olishlari mumkin. Lekin oxirgi xulosalarni talabalarning o‘zlari chiqarishlari shart.

Ushbu keysdan texnologiya ta’limi fani bo‘yicha amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin.

Texnologiya ta’limi fanni o‘qitishda keys–stadi texnologiyasini qo‘llashning asosiy maqsadi: Talabalar jamosida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxsning o‘sishi, shakllanishi va tarbiyasida zarur bo‘lgan omillarni tahlil qilish, tarbiyaning o‘ziga xos usullarini

o‘rgatishdan iboratdir. Keys-stadi texnologiyasini qo‘llash orqali talabalarda quydagi bilim, ko‘nikma, malakalar rivojlanadi.

O‘quv faoliyatidan kutilayotgan natijalar;

1. O‘quvchilar kasbiy jarayonda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldini olish bo‘yicha eng to‘g‘ri va ta’sirchan qarorlarni qabul qilishni o‘rganadilar.

2. O‘quvchilarning kasbiy jarayonda sodir bo‘lgan muammolarini har tomonlama chuqur o‘rganish, asosli xulosalar qilish malakalari rivojlanadi.

3. Ularda muammoni hal qilishga ilmiy yondashish ko‘nikmalari shakllanadi.

4. O‘quvchilar turli manbalar ustida mustaqil tahliliy faoliyatlarni tashkil qilishni o‘rganadilar. Manbalar tahlili davomida o‘zlarining shaxsiy fikr va xulosalarini shakllantiradilar.

5. Muammoni keng qamrovda, unga ta’sir qiluvchi barcha omillarini e’tiborga olib, atroflicha o‘rganish lozimligini bilib oladilar.

6. O‘quvchilarning sodir bo‘lgan vaziyat oqibatlarini bartaraf qilish bo‘yicha malakalari tarkib topadi.

7. O‘quvchilarning hamkorlikda sermahsul faoliyat yuritish malakalari, istiqbolli natijalar yo‘lida aqliy-intellektual imkoniyatlarini birlashtirish, mas’uliyatlilik, ijtimoiy faollik, muloqatchanlik, moslashuvchanlik, mas’uliyat kabi sifatlari tarbiyalanadi.

8. O‘quvchilar keng mantiqiy fikrlashni o‘rganadilar, ularning dunyoqarashi kengayadi, kasbiy axloq meyorlari to‘g‘risidagi tushunchalari tarkib topadi, bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatlarni to‘g‘ri tashkil qilishni o‘rganadilar.

Dars mashg‘ulotlarida to‘gri qollanilgan metodlar ob’yektiv voqealikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit xolda mashg‘ulotning ilmiy-nazariy darajasini oshiradidem o‘laymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gary Thomos. How todoyour Case Study Thousand Oaks: Sage 1998.

2. Harvard Business Publishers for educators resurs Garvard keysov 2001, .

3. Ismoilova Sh.Q. “Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning shartlar” –Ur., “Urganch”, 2011y.

SHARIF YUSUPOV - MANBASHUNOS OLIM

Muhayyo To‘rayeva Qurbon qizi

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek manbashunosligi rivojiga munosib hissa qo‘shgan olim Sharif Yusupovning Furqat, Kamiy, Muhyi kabi bir qator ma’rifatparvar shoirlar ijodi, Qo‘qon xoni Xudoyorxon faoliyati haqidagi ilmiy quvvatli tadqiqotlari tahlilga tortilgan. Olim ilmiy asarlarida mazkur ijodkorlar haqida sho‘rolar davri mafkurasi ta’sirida biryoqlama talqinlar mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan yangicha talqin etilgani xususida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: maqola, manbashunoslik, ma’rifatparvarlik, manba, arxiv, munshoat, furqatshunoslik.

Annotation: In the article, the scientist Sharif Yusupov, who made a significant contribution to the development of Uzbek source studies, analyzed the works of a number of enlightened poets such as Furqat, Kami, Muhyi, and the activities of Kokan Khan Khudoyor Khan. In the scientific works of the scientist, comments were made about the one-sided interpretations of these creators under the influence of the ideology of the Soviet era, from the point of view of the ideology of independence.

Keywords: article, source studies, enlightenment, source, archive, munshoat, folk studies.

O‘zbek adabiyotshunosligi va manbashunosligi rivojiga katta hissa qo‘shgan olim, professor Sharif Yusupov 1928-yil 28-martda Toshkent shahrida tug‘ilgan. U Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida tahsil olgan. So‘ng zamonaviy adabiyotning dolzarb mavzusiga oid dissertatsiyasini, 1990-yilda “Furqat va o‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. 300 ga yaqin manbashunoslik, mumtoz va hozirgi o‘zbek adabiyoti masalalariga bag‘ishlangan maqolalar, o‘nlab kitoblar nashr ettirdi. Uning “Xudoyorxon va Furqat” (1995), “Furqat yo‘llarida” monografiyasi, (1984) “Do‘stlik qaldirg‘ochlari” risolasi (1983), “O‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti va Furqat” o‘quv qo‘llanmasi (1992) Furqat ijodini o‘rganishda muhim manbalardir. Olim Muqimiy, Muhyi, Kamiy, Komil kabi ma’rifatparvar shoirlar ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib bordi. Olimning “Muqimiy va Muhyi”, “Komil haqida yangi ma’lumotlar”, “Kamiy - ma’rifatparvar shoir”, “Sattorning tarjimai hol asari”, “Isyonkor dodxoh” singari salmoqli ishlari, Sharifxo‘ja, Muhiddinxo‘ja, Saidrasul Aziziy, Eshonxo‘ja mudarris va boshqa ma’rifatparvarlar xususidagi yangi dalil

mulohazalarni birlamchi manbalar asosida bildirdi. Bundan tashqari, olim Sho‘rolar davrida o‘rganilmay qolgan yoki yomon otliq qilingan hukmdorlar, sarkardalar, ziyoli savdogarlar faoliyatiga oid yangi-yangi tadqiqotlarni amalga oshirgan. Xudoyorxon va uning ajdodlari, xonning ma’rifatparvar shoir o‘g‘li Fansurullobek, jasur sarkarda Alimquli, mustaqillik fidoyisi Hakimxo‘ja qozikalon, mustamlaka Turkistonida tijoratchilik iftihori bo‘lgan Valihojiboy, Tojimuhammad, Mirzo Abdullo va boshqalar haqida e’lon qilgan yirik tadqiqotlari, Qo‘qon xonligi tarixiga oid “Xufiya qatlamlar” asari shular jumlasidandir.

Sh.Yusupovning ko‘p yillik ilmiy izlanishlari davomida nafaqat adabiyotshunoslik, tarix, matnshunoslik, manbashunoslik, musiqa rivojiga hissa qo‘shadigan bir qator manbalar o‘rganildi va ommaga taqdim etildi. Ayniqsa, olimning ilmiy faoliyati bevosita Furqat ijodi bilan bog‘liq bo‘lib, shoirning hayoti va ijodiga sho‘rolar davridagi noo‘rin qarashlar, tahlillarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan bir qator izlanishlar amalga oshirildi. Olim shoirning shaxs sifatidagi va ijodkor sifatidagi o‘zligini tiklashga tarixiy haqiqatlarni ochiqlash orqali harakat qildi. Sharif Yusupovning ana shunday mashaqqatli mehnatlarining samarasi bo‘lmish, “Sarguzashtnomaning yana bir bobi” maqolasida Furqatning “Sarguzashtnoma” goh “Furqatnoma” deb yuritiladigan katta avtobiografik asarining “Turkiston viloyati gazeti”ning o‘n uch sonida chop etilganligi ta’kidlanib, Furqat biografiyasiga oid yangi ilmiy ma’lumotlarni o‘quvchilar hukmiga havola etadi. Maqolada Sh.Yusupov adabiyotshunos Xolid Rasulov tomonidan nashr etilgan “Tanlangan asarlar”ga kiritilgan matndagi ba’zi chalkashliklar, xatolar haqida so‘z yuritar ekan, bu xato va chalkashliklarni izohlab beradi. Xususan, “Turkiston viloyati gazeti”ning 15-yanvardagi 2-sonida e’lon qilingan qismida (bu qism Furqat tanlangan asarlarida “22-yanvar 3-son” tarzida noto‘g‘ri ko‘rsatilganligini qayd etgan) Furqat xo‘jandlik do‘sti bilan uchrashgani haqida so‘zlarkan, u “suhbati qadim rioyatni tutgan”ini yozadi. Kitobda esa biz “suhbati qadim rivoyatni tutib” degan so‘zlarni o‘qiymizki, “rioyat” va “rivoyat” iboralarning lug‘aviy ma’nosi bir biriga sira to‘g‘ri kelmaydi”.1 deya o‘z fikrlarini ilmiy asoslaydi. Sh. Yusupov asardagi xato va kamchiliklarni gazetaning har bir soni bilan taqqoslab, bunday o‘rinlar bilan kitobxonlarni tanishtirishtiradi. Maqolada keltirilishicha, “Gazetaning 22-yanvar 3-sonda “ul xalqning arolaridagi rusum-qavoid” haqida gap borar ekan so‘nggi juft so‘z “rusum qoida” tarzida berilgan. Ma’lumki, “qavoid” ko‘plik sonni anglatsa, “qoida” birlik sondir. Yana shu sonda “tez-tez havo muqaddar bo‘lib, ulug‘ sellar kelib muhabbat bo‘lur ekan” degan

[1] “Furqat ijodiyoti”. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 1990 51-b

xato jumla bor. Chunki ulug‘ sellar kelgandagi holatning “muhabbat” so‘ziga aslo aloqasi yo‘q. shunday bo‘lgach, matbaa xatosi bo‘lgan bu so‘zni matnni tayyorlash vaqtida “qo‘rqinchli manzara” ma’nosini anglatuvchi “mahobat” so‘zi bilan almashtiraverish kerak edi.”2 tarzidagi izohlar berilgan.

Sh.Yusupov manbalarni sinchiklab o‘rganib taqqoslash jarayonida bunday xatoliklarning bir qanchasini sanab o‘tadi. Uning “Sarguzashtnomaning yana bir bobi” maqolasidagi qaydlarga qaraganimizda, “Shayxovand Tahur maqbaralari javorida mutavattin Mahmudxo‘ja” xususida so‘z yuritilgan o‘rinda “mutavattin-yashovchi, istiqomat qiluvchi” iborasining tushirib qoldirilganligi, Mahmudxo‘ja Furqatni “yaxshi mutribu nodir mug‘anniylar majlisidan mamnun qilingan”ligini aytilar ekan, “nodir” so‘zining e’tibordan soqit qilinganligi, “adab” ma’nosini bildiruvchi “ta’dib” iborasining ikki o‘rinda “tadbir” iborasi bilan almashtirilganligi haqidagi ma’lumotlarni uchratamiz.

Shuningdek, olim “Turkiston viloyatti gazetining” 12-martdagi 10-sonda Furqat maktabda “Mirzo Abdulqodir Bedil devoni g‘azaliyotiga dil bog‘lab” besh oygacha undan bo‘shamagni haqida gapiradi. Bunda ham “bog‘lab” iborasi o‘rniga kitobda “bag‘ishlab” iborasi ishlatilganligini maqolada qayd etadi. Yana shu gazetaning 13-aprel 15-sonning birinchi abzasida “Amir Alisher Navoiy” yozilgani holda kitobda “amir” so‘zi tashlab ketilgan. Yana shu sonda Furqat Toshkentning ruslar yashaydigan yangi shahar qismini tasvirlar ekan, “ o‘ramlari Russiya shahri o‘ramlaridek orasta” ekanini yozadi. Ko‘rinib turibdiki, “o‘ram” deganda avtor “ko‘cha” so‘zini nazarda tutyapdi. Lekin bu ibora kitobda “o‘rmon” tarzida berilishi nojo‘ya ish bo‘lgan deya ta’kidlaydi. Gazetaning 25-maydagi 20-sonida esa Furqat fotografiyada surat olinish jarayonini ifodalar ekan “mazkur oyina yuzidan hijob olg‘onda mashina orqasidagi boshqa oyinag‘a ul odam aksi baayni naqsh bo‘lur ekan” deb yozadi. Lekin kitobda “ul odam aksi o‘rniga “ul oyina aksi” deb yozilganki, bu hol o‘quvchini chalkashtirishi turgan gap3 tarzidagi o‘z fikr-mulohazalarini bildiradi.

Bundan tashqari Sh.Yusupov “Sarguzashtnoma”ning Xolid Rasulov tomonidan nashr etilgan “Tanlangan asarlar”ida “Turkiston vioyatining gazeti”dagi 1891-yil 8-iyun 22-sonidagi qismi butunlay tushirib qoldirilganni nashrning eng katta kamchiligi deb hisoblaydi. Bu qism “Sarguzashtnoma”ning yakuniy qismi xususida ekanligini, va unda Furqat rus xalqining quyi tabaqasi o‘z oilalari bilan birgalikda bo‘sh vaqtni o‘tkazgadigan kulublar faoliyati haqidagi qiziqarli ma’lumotlar berganligini

[2] “Furqat ijodiyoti”. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 1990 51-b
[3] “Furqat ijodiyoti”. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 1990 51-b

ta’kidlaydi. Shuningdek maqolada tushurib qoldirilgan ushbu qismni keltirib, o‘quvchini tanishtiradi. Maqola so‘ngida bu qismi Furqatning ikki tomlik “Tanlangan asarlar”ining ikkinchi tomiga, 144-betga, “Vaqteki rusiya xalqining eng katta bayrami…” deb boshlanadigan abzas oldiga kiritilishini aytib o‘tadi. Jonkuyar olim Sh. Yusupovning zahmatli sa’y-harakatlari natijasida Furqatning “Sayohatnoma” asaridagi xato va kamchiliklar, nuqsonlar o‘quvchiga tanishtirildi va asar haqidagi noto‘g‘ri ma’lumotlar manbalarni tadqiq qilish orqali bartaraf etildi. Olim har qaysi manba ustida ishlar ekan uni oxirigacha o‘rganmasdan qo‘ymasligini, undagi har bir detallarga, har bir so‘zning ma’nosiga jiddiy e’tibor berganligi, ayniqsa, e’tirofga sazovordir.

Uning yana bir “Furqat faoliyatining ba’zi qirralari” maqolasiga diqqatimizni qaratsak. Ushbu maqolada Furqatning chet ellardagi faoliyati xususida so‘z yuritiladi. Furqat ijodi bir necha asrlar davomida o‘rganilgan bo‘lishiga qaramasdan, olim uning ijodi va faoliyati haqida hech bir furqatshunos olimlar tomonidan tilga olinmagan qiziqarli voqealarni tadqiq qilishga erishadi. Olimning ta’kidlashicha, bu davr boshqa furqatshunoslar tomonidan yetarlicha yoritilmagan. . Sh.Yusupov Furqat ijodining ana shu davrini uning ijodiy faoliyatida ayricha ahamiyatga ega ekanligini bildirib, shoirning chet elda yurgan vaqtlarida rus tilini o‘rganishga qaratilgan tadbiqlari xususidagi ayrim faktlarni keltiradi. Maqolada keltirilishicha, “Furqat Farg‘ona va Toshkentda yashagan vaqtida rus tilini o‘rganish haqida biror maxsus asar yozganligi ham, bu g‘oyat muhim ishga yurtdoshlarini ochiqchasiga da’vat etganligi ham ma’lum emas. O‘lka aholisini rus tilidan bahramand etishdan iborat u vaqtda Furqat asarlarining botiniy mazmunidagina anglashilib turgan, xolos. Chet el sharqi mamlakatlari hayoti bilan chuqurroq tanishgan sari Furqatda o‘z hamyurtlarini rus tilini o‘rganishga da’vat etish istagi kuchaygandan kuchaydi” tarzidagi fikr mulohazalar bildirilgan. Sh.Yusupovning “Furqat faoliyatining ba’zi qirralari” nomli maqolasida Furqat ijodiy faoliyati davomida “Kavkabi nosiri” nomli gazetada Yevropaning yirik mamlakatlarida rus tilini o‘rganishga katta e’tibor qaralayotgani xususidagi maxsus material bilan tanishgani va unda ko‘tarilgan masalaning xalqaro ahamiyatini puxta idrok etib “Turkiston viloyati gazeti”ga yuborganini va u gazetaning 1893-yilgi sonlaridan birida chop etilganligi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, shu materialning tekstini va o‘zbek tilidagi tarjimasi bilan o‘quvchilar hukmiga havola etilgan.

Shuningdek, Olim Furqatni rus tilini o‘rganishni targ‘ib qilibgina qolmay o‘z amaliy faoliyatida ularga o‘rnak bo‘lgan o‘rinlarni ham kitobxonlarga tanishtiradi. Maqolda qayd etilishicha, Furqat “Yorkentda istiqomat qilgan yillarida Toshkentga

maxsus xat yo‘llab bunday iltimos qiladi: “ Yorkandda turg‘uvchi o‘rus tobe’i Yusuf Qodirxon o‘ruscha xat o‘rganmoqni xohlaydur. Marhamat qilib bir dona “Самоучитель” yuborsalar ziyoda xursand bo‘lurmiz. Mundin boshqa ham birmuncha savdogarlarni bolalari o‘ruscha xat o‘rganmoqni xohlaydi.”4 mazmunidagi xat bilan murojat qilganligi haqidagi ma’lumotlar bor. Sharif Yusupov bu yerda M. Oraqulov tomonidan rus tilini mustaqil o‘rganuvchilar uchun 1887-yilda Toshkentda nashr etilgan qo‘llanma haqida gap boryotganligini aytadi. Bundan tashqari, olim shoirning Toshkentda ekanligida rus tilidagi gazetalarni mustaqil o‘qiganligi haqidagi ma’lumotlar manbalarda yo‘qligi, lekin Furqatning “Turkiston viloyati gazeti”ning 1905-yil 6-aprel sonida bosilgan “Xorijiya shahardan yozgan bir oshnoning so‘zi” nomli maqolasida: “Chunonchi men rusiya gazetalarini ham o‘qidum. Hech qachon yopun xalqini shikvau shikoyat qilmaydur” tarzidagi ma’lumotlarga duch kelganligini keltirib o‘tadi.

Bundan tashqari, Furqat asarlari tilini tadqiq etgan U. Tursun, va B. O‘runboyev o‘zlarining “O‘zbek tili tarixi” qo‘llanmasida shoir ishlatgan 20 ta ruscha so‘zni keltirganligini, Furqat boy merosiga chuqurroq nazar tashlansa 150 chamasi ruscha so‘zlar qo‘llaganligi haqida ma’lumot beradi.

Sh.Yusupov Furqat ijodiy faoliyatini o‘rganish mobaynida, shoir asarlarida adabiyot, tarix, musiqa va boshqa dunyoviy bilimlarni puxta egallaganligi haqidagi dalillarni keltirib o‘tadi. Olimning qayd etishicha, Furqatni rus tilidan tashqari yana bir nechta tillarni bilganligini quyidagicha izohlaydi: “chet elda Furqat rus tilidan tashqari bir necha tillarni ham muvaffaqiyat bilan o‘rgangan. Masalan, u Istanbulda birmuncha vaqt yashaganidan so‘ng yozgan “Ey, sabo” radifli g‘azaldan Furqatning turk tilini bilishi ayon bo‘lsa, yuqorida zikr etilgan “Kavkabai noiri” gazetasi afg‘on tilida edi. “Hablul matin” va “Pesai axbor” xususida fikr yuritgan materiallarida Furqat ularning hind tilida ekanligini qayd etadi. Nihoyat “Turkiston viloyatining gazeti”da e’lon qilingan so‘nggi asari “Qavoidi Chin va umuroti siyosi”ni Furqat xitoy tilidagi manbaga - Guan Shuyning kitobiga asoslanib yozganligi ma’lum.”5

Olim Furqatning “Ilm xosiyati” she’ridagi

Kerak har ilmdan bo‘lmoq xabardor
Bo‘lur har qaysi o‘z vaqtida darkor

misralari orqali inson ma’naviy kamolotida aniq fanlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadigan ishoralardan biri ekanligi, lekin aynan qaysi fanlarni o‘rganish haqida aniq ma’lumot keltirmagan deb izohlaydi. Shuningdek Furqatning

[4] Furqat ijodiyoti”. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 1990 55-bet
[5] Furqat ijodiyoti”. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 1990 56-bet

chet ellardagi faoliyatini tadqiq etgan tojik tarixchi olimi Z.Rajabov shoirning fizika, ximiya, astronomiya fanlarini ancha keng o‘rganganlini qayd etganligi keltiradi. Shuningdek u Furqat “Qavoidi Chin va umuroti siyosiy” asaridan bir misol keltirib shunday izohlaydi. “Furqat to‘rt fizik element, ya’ni olov, suv, tuproq va havoning xossalari, ular ta’sir kuchining o‘zgarish sabablarini aniq materialistik pozitsiyadan turib izohlaydi. … Materialistik xarakterdagi ilmiy izohlar Furqatning dunyoqarashi masalalari bilan bevosita bog‘liqdir. U xorijda yashagan yillarida tabiat hodisalarinigina emas, balki jamiyat hodisalariga qarashlarida ham katta ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lganini ko‘ramiz.”

U Furqat ijodini o‘rganish davomida arxiv hujjatlar, manbalar bilan ishlab amalga oshirgan taqiqotlar bugungi kun furqatshunoslik yo‘nalishining, qolaversa, manbashunoslik va arxivshunoslik sohalarining katta yutug‘laridandir. U ilmiy faoliyati davomida Furqatning ma’rifatparvarlik ruhidagi asarlarining yaratilish tarixini o‘rganish bilan jiddiy shug‘ullandi. Uning “Gimnaziya”, “Akt majlisi xususida” dastxat nusxalarini, “Gimnaziya” she’ri solingan konvert ustiga Furqat o‘z qo‘li bilan yozgan so‘zlarni, “Gimnaziya” she’rining gazeta korrekturasini o‘qib, unga muallif o‘z qo‘li bilan kiritgan tuzatishlar arxivda saqlanib qolganligini aniqlaganligi buning dalilidir. Olim izlanishlar natijasida “Suvorov”, “Nag‘ma bazmi xususida” asarlarining yaratilishiga sabab bo‘lgan haqiqiy voqealar, keyingi she’rida Furqat nomlarini aytmay tasvirlagan ko‘pgina san’atkorlarning nomlari aniqlandi. “Vistavka xususida” she’rining yaratilish tarixini o‘rganish jarayonida Muhiddinxo‘ja, Jamolxon maxdum, N.Likoshin kabi ma’rifatparvarlar bilan shoirning shaxsiy munosabatini ko‘rsatuvchi yangidan yangi faktlarni aniqladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘zbek manbashunosligi rivojiga o‘zining salmoqli tadqiqotlari bilan munosib hissa qo‘shgan olim Sharif Yusupovning ilmiy asarlari bugungi kunda Furqat, Kamiy, Muhyi, Muqimiy kabi ma’rifatparvarlar hayoti va ijodini o‘rganishda, Qo‘qon xoni Xudoyorxonning ayanchli taqdiri haqida to‘liqroq tasavvur uyg‘otishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Olim ilmiy faoliyati davomida yaratgan barcha tadqiqotlari tarixiy haqiqatlarni ayonlashtiribgina qolmay, milliy uyg‘onish davri va Xudoyorxon hukumronligi davri haqidagi ko‘pgina bid’at va yolg‘onlarga chek qo‘ydi. Uning fe’lidagi tinib-tinchimaslik, sinchikovlik, qat’iyatlilik har bir manba ustida olib borgan izlanishlarini samarali yakunlanishiga sabab bo‘ldi. U biror bir manba ustida ishlar ekan, yuzaki qarashni xohlamaydi. Har bir manbani yaratilish tarixiga jiddiy e’tibor qaratdi. Ayniqsa, Furqat asarlarda tilga olingan shaxslarni aniqlash jarayonida arxiv hujjatlariga, Furqatning yozishma, maktublariga murojat qildi. Asarlarning qo‘lyozma nusxalarini

topib, keyingi nashrlardagi xato va kamchiliklar, tushirib qoldirilgan o‘rinlarni tuzatishga harakat qildi. Olimning sa’y-harakatlari natijasida, nafaqat Furqat ijodiyoti, balki boshqa ma’rifatparvar ijodkorlar asarlari ustida olib borgan izlanishlari orqali Qo‘qon xonligining tugallanishi, ruslar bosqini, o‘sha davr ijodkorlarining naqadar achchiq qismatini aks ettirgan ilmiy manbalar paydo bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фурқат ижодиёти. Тошкент: “Фан” 1990.
2. Юсупов Ш. Фурқат йўлларида. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1984.
3. Юсупов Ш. Худоёрхон ва Фурқат. – Т.: Шарқ, 1995.
4. Юсупов Ш. Санъат ва ҳайрат. –Т.: Маънавият, 1997.
5. Юсупов Ш. Хуфия қатламлар. – Т.: Маънавият, 1999.
6. Юсупов Ш. Фурқат ва ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг янги босқичи. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 1990.
7. Интернет сайтлар:
8. www.literature.uz
9. www.ziyo-net.uz
10. www.kutubxona.uz
11. Google.uz.
12. Xurshid Davron kutubxonasi.uz
13. Wikipediya.uz

TEXNOLOGIYA FANINING UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI VA ROLI

Shaxnoza Jaloldinova Xasanboyevna
Andijon davlat pedagogika instituti katta oqituvchi

Xoldorova Shoira
Kamolova Mexrigiyo
Olimjonova Durdona
Andijon davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Maqolada Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimida texnologiya fani o‘qituvchisining bilim, ko‘nikma va malakalari ko‘lami va sifati, uning ta’lim-tarbiya jarayonini umumiy o‘rta ta’lim DTS talablari asosida tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha erishgan yutuqlari va yo‘l qo‘ygan kamchiliklari, kasbiy mahorati va hokazo kabi murakkab va ko‘p qirrali faoliyatini takomillashtirish jarayonining didaktik shart-sharoitlarini aniqlash, nazorat maqsadiga muvofiq ravishda uning shakl, tur, usul va vositalarini optimal tanlash asosida nazorat o‘tkazish metodikasini ishlab chiqish, uning mazmunini boyitish, bu sohada mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan tashkiliy ishlarni tahlili bu borada amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarni ilmiy- uslubiy asnosida tashkil tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: texnik ijodkorlik shakl, metodlar, amaliy ishlar, texnologiya, nutq va fikrlash, ishlab chiqariladigan mahsulotlar.

Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimida turli sohalarda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, ularning yuksak bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga shart-sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish jarayonida yetuk malakali mutaxassislar faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘ygan ijtimoiy buyurtmasini bajarishda texnologiya fani jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat ahamiyatiga molik ushbu vazifani bajarish uchun texnik-texnologik jarayonda o‘qituvchilarning o‘z kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini, kasbiy mahoratini takomillashtirishni hamda dinamik ravishda rivojlanib borayotgan pedagogik jarayon talablari darajasida pedagogika, psixologiya, metodika fanlari yutuqlari, zamonaviy texnika va ilg‘or texnologiyalar, ishlab chiqarish va bozor iqtisodiyoti munosabatlari bo‘yicha mukammal bilimlar, ko‘nikmalarni egallashni taqozo etadi. Shu munosabat bilan, texnologiya fani o‘qituvchisining bilim, ko‘nikma

va malakalari ko‘lami va sifati, uning ta’lim-tarbiya jarayonini umumiy o‘rta ta’lim DTS talablari asosida tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha erishgan yutuqlari va yo‘l qo‘ygan kamchiliklari, kasbiy mahorati va hokazo kabi murakkab va ko‘p qirrali faoliyatini takomillashtirish jarayonining didaktik shart-sharoitlarini aniqlash, nazorat maqsadiga muvofiq ravishda uning shakl, tur, usul va vositalarini optimal tanlash asosida nazorat o‘tkazish metodikasini ishlab chiqish, uning mazmunini boyitish, bu sohada mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan tashkiliy ishlarni tahlili bu borada amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarni ilmiy- uslubiy asnosida tashkil etilishini talab qilmoqda.

Bu esa o‘quvchilarning umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan texnik-texnologik ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor berilmayotganligini ko‘rsatishimiz mumkin. Ushbu ko‘nikmalar asosan texnologiya fani darslarida shakllantirilishini xisobga olsak, ushbu fanga e’tiborni kuchaytirish davr talabi ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Aynan texnologiya fanida o‘quvchilarning ham intellektual ham jismoniy bilim, ko‘nikma va malakalari uyg‘unlashgan xolda shakllanishi hamda texnikaga oid mehnat qilishning sensor ko‘nikmalarining rivojlanishi, shuningdek kasblar olami, kasb tanlashdagi qiyinchiliklar va nomutanosibliklar, kasb tanlashda e’tiborga olinadigan omillar xaqidagi ma’lumotlar fanning asosiy maqsadi sifatida beriladi. Demak, texnologiya faniga e’tibor berilishi natijasida nafaqat texnikaga oid o‘quv yurtlarida balki yoshlarning o‘z kasblarini ongli, barcha jixatlarini xisobga olgan holda tanlashlariga erishiladi. To‘g‘ri kasb tanlagan o‘quvchilarning qiziqishini oshirish ya’ni ta’lim sifati va samaradorligini yuksaltirish natijasida yetuk, jahon talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashga zamin yaratgan bo‘lamiz. Shuni aytish mumkinki, texnologiya fani darslarini tashkil etishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari va vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish natijasida o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishlari ortishi, amaliy mashg‘ulotlarda mehnat ob’ektlarini bajarish bo‘yicha aniq tasavvurlarga ega bo‘lishi, mehnat operatsiyalarini bajarish bo‘yicha chuqur bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishida keng imkoniyatlar ochadi.

“Texnologiya” materiallar yoki yarim fabrikatlarni olish, ishlov berish va qayta ishlash usullarini ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiy fandir. “Texnologiya” - yunoncha ikki so‘zdan - “texnos” (techne) - mahorat, san’at va “logos” (logos) - fan, ta’limot so‘zlaridan tashkil topga n.

Texnologiya deganda sub’ekt tomonidan obyektga ko‘rsatilgan ta’sir natijasida subyektda sifat o‘zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim

zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, obyektga yo‘naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko‘zda tutadi.

Ushbu tushunchalarni o‘quv jarayoniga ko‘chiradigan bo‘lsak, o‘qituvchi (pedagog)ning o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchi (o‘quvchi)larga muayyan sharoitlarda ko‘rsatgan tizimli ta’siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy xodisa, deb ta’riflash mumkin.

Texnik texnologiya quyidagilarni bildiradi:

xom-ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar yoki mahsulotlarni olish, ularga ishlov berish yoki qayta ishlash yo‘lari va usullarining yig‘indisi (texnologiyaning jarayonli - bayonli aspekti); jarayonning o‘zi - qazib olish, topish, ishlov berish, qayta ishlash,tashish,omborga joylash, saqlash hamda ishlab chiqarishni texnik nazorat qilish(texnologiyaning jarayonli - harakat aspekti).

Ishlab chiqarishda “Texnologiya” so‘zidan kelib chiqadigan quyidagi tushunchalar ishlatiladi:

Texnologik jarayon - ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig‘indisi. Texnologik operatsiya-ishchi tomonidan o‘zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko‘rinishidagi jarayonning bir qismi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash. Darslik T.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

2. .N.A.Muslimov Sharipov Sh.S, va boshqalar Mehnat ta`limi metodikasi o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2009.

3. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Mehnat ta`limi, kasb tanlashga yo‘llash o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta`limni tashkil etish. (Metodik qo‘llanma). T.: TD’U, 2006. 52 b.

O‘QUVCHILARNI TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA KASB – HUNARGA YO‘LLASHNING SHART – SHAROITLARI VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

S.Q.Ubaydullayev
“Iformatika va aniq fanlar” katta o‘qituvchi
F.E.Tursunov
“Iformatika va aniq fanlar” katta o‘qituvchi
D.R.Toshpo‘latova
Texnologik ta’lim talabasi

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarning texnologiya va kasb ta’limi bo‘yicha darsdan tashqari mashg‘ulotlar-to‘garak ishlari jarayonida kasb-hunarga yo‘llash mazmunini va ulardagi ayrim muammolar shart-sharoitlarini aniqlash va zamonaviy pedagogik texnologiyasini ishlab chiqish, buyumlarni konstruksiyalash, sxemaga qisman o‘zgartirish kiritib, berilgan hujjatlar bo‘yicha tasavvur qila olishni, ularni nomlari, konstruksiyalash sodda yasashlarni o‘rganib olishlari. haqidagi mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Yosh texniklar texnik kasb ta’limi bo‘yicha, darsdan tashqari mashg‘ulotlar-to‘garak ishlari jarayonida konstruksiyalash shakl, metodlar, amaliy ishlar, texnik konstruksiyalash uy-ro‘zg‘or buyumlari ishlab chiqarish kasb-hunarga yo‘llash ishlari.

Yosh texniklar bilan olib boriladigan darsdan tashqari ishlarning bu yo‘nalishi asosan tayyorlov tavsifda bo‘ladi. Ular oddiy kasbiy malakalarini egallab, texnik va ishlab chiqarish bo‘yicha har xil ma’lumotlarni bilib olib, o‘zlari ijtimoiy foydali mehnatda faol qatnashishlari zarurligini va keyinchalik o‘zlari uchun mehnat faoliyati sohasini va kasb-hunarni tanlash ehtiyojini anglay boshlaydilar.

O‘quvchilar ishlab chiqarish texnik to‘garaklari ishida qatnashadilar, umumta’lim maktablari va kasb-hunar maktablaridan tashqari muassasalar (bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari) bazasida, o‘quv-ishlab chiqarish markazlarida ishlab chiqarish buyurtmalarni sifatli bajarishga yordam beradigan har xil texnologik asbob-uskunalarni ishlab chiqadilar va tayyorlaydilar: ijtimoiy foydali, unumli mehnatda faol qatnashadilar, ixtirochilarga aylanadilar, ommaviy ishchi kasblarining ijodiy imkoniyatlari va boshqa qiziqarli tomonlari bilan keng tanishadilar.

Umumuy o‘rta ta’lim maktablari va kasb-hunar maktablari o‘quvchilarni oliy o‘quv yurtlaridagi kichik to‘garak maktabi faoliyati bazasida izlash va tajriba-tadqiqot ishlariga jalb etish, ularni muhandis, texnik, agronom, zootexnik va boshqa kasblarga yo‘naltirish.

Bu chora-tadbirlar umumta’lim maktablari va kasb-hunar maktablaridan tashqari muassasalar yordami bilan tashkil qilinadi. Kasb-hunar maktablarida izlash, tajriba-tadqiqot, konstruktorlik ishlarining natijalari bo‘yicha o‘qishni ilmiy tashkil etish konferentsiyalari o‘tkaziladi va ularda o‘quvchilar o‘z ma’ruzalari bilan chiqadilar, referatlarni muhokama qiladilar, o‘zlarining tajribalarini va o‘zlari yasagan texnik qurilmalarni ko‘rsatadilar.

O‘quvchilarning u yoki bu turdagi amaliy faoliyatga qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirishning dastlabki pog‘onasida o‘qituvchi individual ish olib boradi, suhbatlashadi, adabiyotlarni tavsiya etadi, o‘quvchini to‘lqinlantirgan ishni muhokama qiladi, qiziqarli fan va texnika kechalarini, fan va texnika tarixidagi atoqli kunlarga bag‘ishlangan kechalarni tayyorlash va hokazolar bo‘yicha individual topshiriqlar beradi. Shundan keyin, o‘qituvchi ana shu o‘quvchilarni to‘garakka birlashtiradi. Bunda ular jamoa topshiriqlarini ham bajara oladilar.

Umumta’lim maktablari va kasb-hunar maktablarining kichik sinf-guruhidagi o‘quvchilar to‘garaklarida rahbar bilan o‘quvchilarning didaktik o‘zaro hamkorligi o‘yin faoliyati shaklida tashkil qilinadi. Konstruktorlik to‘garaklarida o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan ishlashda bu hamkorlik vujudga kelgan amaliy vazifalarni (masalan, texnika to‘garaklarida texnik vazifalarni bajarishda, qandaydir texnik qurilmani, model, maket, tajriba namunasini ishlab chiqish va tayyorlashda) bosqichma-bosqich hal qilish jarayonida tashkil etiladi.

Hozirgi kunda maktab va kollejlar va ulardan tashqari muassasalar faoliyatida o‘quvchilar texnik ijodkorligi to‘garaklarining quyidagi turlari vujudga kelgan:

Tayyorlov texnika to‘garaklari (maktab va kasb-hunar maktablarining kichik sinf-guruhlari uchun). Ularda o‘quvchilar jonli va oson shaklda texnika elementlari hamda eng oddiy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar, qog‘oz, plastmassa, metall va boshqa materiallarga ishlov berish bo‘yicha olgan boshlang‘ich ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. O‘quvchilar texnik o‘yinchoqlar, mashina va mexanizmlarning sodda modellarini, eng oddiy avtomatik qurilmalar, o‘quv ko‘rgazmali qo‘llanmalar, maktab hamda uy-ro‘zg‘or buyumlari va hokazolarni tayyorlaydilar.

Umumta’lim maktablari va kasb-hunar maktablarining kichik guruhlari uchun tayyorlov texnik to‘garaklari orasida ko‘pincha boshlang‘ich texnik modellashtirish

to‘garaklari, elektrlashtirilgan o‘yinchoqlar to‘garaklari, transport texnikasini boshlang‘ich modellashtirish to‘garaklari tashkil qilinmoqda.

Predmet (fan-texnika) to‘garaklari: fizika, fizika-texnika, ximiya, ximiya-texnologiya, va boshqa to‘garaklar. Bunday to‘garaklar o‘quvchilarning umuta’lim maktablari va kasb-hunar maktablari o‘quv rejasidagi turli predmetlar bo‘yicha olgan bilimlarini chuqurlashtirish va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash, ta’lim xonalarini to‘ldirish uchun asbob-uskunalar yasash va shu asosda o‘quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish maqsadlarida tashkil qilinadi.

Sport-texnika to‘garaklari maktab va kasb-hunar maktablarida, kollejlarda, ko‘proq maktab va ulardan tashqari muassasalarda faoliyat ko‘rsatadi. Bular aviamodel, raketa-kosmik modellashtirish, avtomobil modelchiligi, kema modelchiligi, temir yo‘l modelchiligi, radioboshqarish, suv-motor va boshqa to‘garaklar.

Mazkur to‘garaklarda o‘quvchilar modellarni va ishlaydigan tex-nikani konstruktsiyalash va tayyorlash bilan shug‘ullanadilar, keyin esa ana shu modellar bilan sportning texnik turlari bo‘yicha modelchi-sportchilarning musobaqalarida qatnashadilar.

Ishlab chiqarish texnika to‘garaklari kasb-hunar maktablaridagi va kasb-hunar maktablariaro ustaxonalar bazasida, o‘quv ishlab chiqarish kombinatlarida, sanoat korxonalari bazasidagi yosh texniklar uyushmalarida va boshqa kollejdan tashqari muassasalarda tashkil qilinadi. Odatda bunday to‘garaklar ro‘yxati mahalliy sharoitlarga ko‘ra, avvalo, o‘quvchi to‘garakda olgan bilimlarini, kasb-hunar kollejlari yoki o‘quv ishlab chiqarish kombinatida o‘zlashtirgan amaliy malakalarini keyinchalik qay darajada takomillashtira olishiga ko‘ra belgilanadi.

Bunday to‘garaklar mahalliy korxonalarda, fermer xo‘jaliklari va shirkatlarda keng tarqalgan biror kasbga qiziqadigan kichik va katta yoshidagi o‘quvchilarni birlashtiradi.

Ishlab chiqarish texnik to‘garaklarida o‘quvchilar ixtirochilik ishining asoslari bilan tanishadilar.

Yuqoridagi to‘garaklardan tashqari metallchilar, duradgor, kulolchilik, konstruktorlar, texnolog ixtirochilar, shuningdek, elektrotexnika, radiotexnika, elektron avtomatika, texnika, kibernetika, robototexnika, kichik o‘lchamli qishloq xo‘jalik texnikasini konstruktsiyalash, texnikani jihozlash va o‘lchov texnikasi klublari keng tarqalgan.

Bunday ishlarni tashkil qilish va o‘tkazishda mahalliy uyushmalarda hamda yosh texniklar markazlarida shug‘ullanayotgan to‘garak qatnashchilari o‘qituvchiga

katta yordam berishlari mumkin. Olimlar va ishlab chiqarish ilg‘orlari bilan uchrashuvlar, o‘quvchilarning ilmiy-texnik konferentsiyalari, texnik ijodkorlik ko‘rgazmalari, olimpiada va konkurslar, sayohatlar, ilmiy-ommabop ma’ruzalar, yosh ixtirochilarning anjumanlari, har yilgi fan, texnika va ishlab chiqarish haftaliklari viloyatimizdagi kollejlar va kollejdan tashqari muassasalarda an’anaviy tus olgan, o‘quvchilarni texnik ijodkorlikka ko‘proq jalb etadigan ommaviy tadbirlarning shakllaridir.

Ma’lumki, dars o‘quvchilarga tarbiya va ta’lim berishning asosiy shaklidir. Dars qanchalik jozibali, uning shakli va mazmuni qanchalik yorqin bo‘lsa, o‘quvchilar predmetga shunchalik qiziqadilar, ularda ko‘proq savollar tug‘iladi. Predmet bo‘yicha dars mazmunli o‘tilsa, darsdan tashqari mashg‘ulotlarni ham sifatli o‘tish samaradorligini oshiradi.

Tajribali kasb ta’limi o‘qituvchilari va ustalarining fikricha, o‘quvchining qiziqishlari yo‘nalishida, uning o‘qishdan tashqari faoliyati mazmunida bolalar va o‘smirlar ijtimoiy tarbiyasining natijalari yaqqol ko‘rinadi. SHuning uchun bu faoliyatni tashkil etish imkoniyati qanchalik keng bo‘lsa, o‘quvchidagi qiziqish va qobiliyatni shunchalik barvaqt aniqlash, ularning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatish, o‘quvchiga o‘z ishini, o‘zining kelajakdagi kasbini topishda yordam berish mumkin.

Umumiy kasbiy ta’lim vazifalari o‘quvchilarni faqat texnika va ishlab chiqarish dunyosi bilan emas, balki sanoat, qishloq xo‘jaligining mazkur tumanda, shaharda rivojlanayotgan u yoki bu tarmog‘i uchun zarur va istiqbolli kasblar bilan ham ertaroq tanishtirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun (yangi tahrirgadi 2020-yil 23-sentabr)
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining murojaatnomasi (2022-yil 20-dekabr Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili)
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 14sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risidagi qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’limning texnologiya fani bo‘yicha malaka talablari asosida tuzilgan o‘quv dasturi. Texnologiya, tasviriy san’at, chizmachilik, musiqa madaniyati, jismoniy tarbiya. (1-9-sinflar). – Toshkent, 2017.

6. Shomirzayev M.X. Maktab texnologiya ta’limida milliy hunarmandchilikning spektral-variativ komponentlarini fanlararo bog‘lash.

7. Mamatov D.N. Elektron axborot-ta’lim muhitida kasbiy ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish. PhD dok.dis. –Toshkent, 2017. – 150 b.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi “Umumiy o‘rta ta'lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” gi 140-sonli qarori.

9. Ishmuhammedov R. AbduqodirovA. Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (Ta’lim muassalari pedagog-ta’lim muassasalari pedegog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Istedod. 2008.

Internet materiallari:

www.Google. uz.:

www.Ilm.uz.:

BASICS OF ORGANIZATION OF ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE BUSINESS ENTITIES

Babur Mamarasulov Bakhtiyar ugli
Jizzakh "Sambhram" University MBA graduate student

Annotation: One of the main factors of economic development in the conditions of market relations is the development of small business and entrepreneurial activities. Entrepreneurship is an independent activity of citizens aimed at obtaining personal income and profit. This activity is carried out on its own behalf, at the expense of its own property responsibility and the legal responsibility of a legal entity. An entrepreneur may engage in all economic activities not prohibited by law, including brokerage, sale, purchase, consulting, and dealing with securities. Entrepreneurship is an activity related to the use of funds to obtain income for personal and social benefits.

Key words and phrases: Brokerage, selling, buying, consulting, securities, small business, private entrepreneurship.

For example, as President Sh. Mirziyoyev noted: "...Uztadbirkorexport" and "Uzsanoateexport" joint-stock companies, as well as the direction of the fund for supporting the export of small business and private entrepreneurship under the National Bank related to the export of small businesses and private enterprises. In this regard, it is necessary to ensure exports worth at least 1 billion 500 million dollars. The role of small business and private business entities in ensuring the stability of state finances is the most important factor in the development of society, political and social changes. This trend is especially evident in the countries where market reforms are manifested in various ways during the transition period, especially in the CIS countries. In such conditions, it performs a number of functions in the implementation of the activities of small business and private business entities.

Its political function is manifested as the main link of the society's economy - the source of formation of the middle class of owners.

Small business and private business entities are an important type of economic activity aimed at more efficient use of resources for profit.

This process is explained by:

- entrepreneurship means initiative activity of people related to risk and responsibility;

- entrepreneurship is focused on more rational use of limited and innovative resources;

- entrepreneurial activity is justified only if it brings additional income and profit. In the course of business activity, the important issues of the market economy, such as what, how and for whom should be produced, find their solution.

Economic freedom (independence), full financial responsibility, commercial activity aimed at maximum profit are the most important economic principles of entrepreneurship. Two important types of entrepreneurship can be distinguished - activity based on trade, which involves making a profit at the expense of price differences, and activity based on the production and sale of products in accordance with the needs of a specific consumer. In the conditions of the market economy, all forms of ownership - state, private (with priority in development), collective, private and mixed forms - develop equally.

It is planned to implement the effective strategy of the reform and development of the country with a consistent and clear goal, developed under the leadership of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, "Strategy of Actions on Five Priority Areas of Development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021". Despite the serious problems in the global economy, Uzbekistan is maintaining stable high rates of economic growth and macroeconomic stability.

Last year, in 2016, the gross domestic product of our country increased by 7.8%, industrial production by 6.6%, agricultural production by 9.6%, capital construction by 5%, and retail turnover by 12.5%. . Almost 70 percent of the manufactured products were finished goods with high added value. The state budget was executed with a surplus of 0.1 percent compared to the gross domestic product. Inflation rate did not exceed forecast indicators.

The measures taken to promote domestic demand and comprehensively support local producers and service providers accounted for 14.4% of consumer goods production and 14.6% of retail turnover. , provided the growth of services by 12.1 percent. The share of the services sector in the GDP increased to 52.4% instead of 52.2% at the end of the first half of 2016. The volume of production of localized products increased by 36.1 percent.

Entrepreneurial activity is important in stabilizing the economy and establishing a market economy. It encourages effective methods of economic management, opens a wide path to initiative and innovative activities, ultimately stabilizes the economy and ensures the development of society.

Also, from April 1, 2011 to April 1, 2014, the financial and economic activities of small business entities that have been paying taxes and other mandatory payments on time and have been ensuring stable growth of production rates and profitability inspection in the tax field was also prohibited. These documents expanded the role, share and scale of small business and entrepreneurship in the economy of our country, strengthened its position in the economy. According to the data of the State Statistics Committee, from 1996 to 2011, the tax rate for small business and entrepreneurship was reduced from 36 to 6 percent, that is, more than six times. 7 There are many advantages of small business and entrepreneurship. In this way, it is possible to quickly adapt to the market situation, quickly adapt to changes in demand, and quickly adapt from one type of activity to another at low cost. This sector of activity is very important in solving the problem of employment, in increasing the material interest of a person from the results of his free labor. From this point of view, the fact that today our compatriots are engaged in retail trade, household services, and are actively entering the production process is a matter of course. According to the Ministry of Economy and the State Statistics Committee, the rate of growth of industrial production in small business is 2-3 times higher than the average indicator in the general industry.

Today, small business and private entrepreneurship are becoming an important condition for ensuring the employment of citizens and a stable source of income for the population. In the first years of independence, the share of small business in Uzbekistan was only 1.5% of the gross social product, but in 2011, this number increased to 52.5% at the end of 2012. In 2013, about 500,000 new jobs were created thanks to the development of small business and private entrepreneurship. In 2013, the share of small business and private entrepreneurship in the GDP reached 55.8%, and in 2014, the share of small business in the GDP increased from 31.1% to 52.5%. It increased from 49.7 percent to 74.5 percent. In 2015, this figure increased to 77.9%, in 2016 to 78.1%, and in the first quarter of 2017, it reached 77.7%. More than 47 percent of the population's income is accounted for by income from business activities.

Considering that this indicator is close to 70% in the countries, we can admit that the future of this direction is bright. In the course of economic reforms in our country, ample opportunities are being created for further support of small business and private entrepreneurship, especially for its development in rural areas. The processes of production modernization, technical and technological renewal play an

important role in the production of export-oriented products and the improvement of the well-being of our compatriots.

In the enterprises that are being established now, the production processes are fully automated, and the operators manage the work process with the help of computers. Today, a number of measures are being taken to develop this sector, and the President is setting big tasks, including: "...that's why state banks are being given the tasks they want. They should create favorable opportunities for citizens to engage in entrepreneurship by organizing communication with each family. For this purpose, commercial banks and their local branches undertake to provide financial support and assistance to entrepreneurs based on their capabilities. In other words, banks will now have to teach and lead our people to entrepreneurship and entrepreneurship."

References:

1. "Critical analysis, strict discipline and personal responsibility should be the daily rule of every leader's activity" report, January 14, 2017, page 17.

2. President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev's "STRATEGY OF ACTIONS on five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021", Decree No. PF-4947, February 7, 2017

3. It was prepared by the student based on the information of the website www.stat.uz.

4. It was prepared by the student based on the information of the website www.stat.uz.

5. President Sh.M. Mirziyoyev's speech at the joint session of the Oliy Majlis chambers dedicated to the inauguration ceremony of the President of the Republic of Uzbekistan on the topic "We will build a free and prosperous, democratic state of Uzbekistan together", 15 pages, Tashkent, O Uzbekistan, 2016. Pages 22-23

GO‘ZAL YUZDIN XUSH OVOZ YAXSHIROQDIR

Feruza Karayeava
O‘zDSMI, “Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati kafedrasi” o‘qituvchisi

Annotatsiya: San’at fidoyilarni va haqiqiy iste’dot egalarini yoqtiradi. Buni anglamagan, maqsadlariga vosita deb bilgan san’atkorning yo‘li qisqadir. Vaqt chin san’at bilan sohtasini hech qachon adashtirmaydi. Faqatgina chin istedod egalarining nomlarigina asrlar davomida yashab qoladi. Xonandalarimiz orasida haqiqiy san’atni e’zozlaydigan, tom ma’noda iqtidorlilari ko‘p. Ular esam albatta hech bir to‘siqlarsiz el mehriga sazovor bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: badiiy ijod, falsafa, insoniy, ruhiy tarbiya, yakka ijro, vatan.

Annotatsiya: Искусство благоволит преданным и истинным талантам. Путь художника, который этого не понимает, который видит в этом средство для достижения своих целей, короток. Время никогда не путает истинное искусство с подделкой. Только имена истинных талантов будут жить в веках. Среди наших певцов много буквально талантливых, уважающих настоящее искусство. Они, безусловно, могут завоевать любовь людей без каких-либо препятствий.

Ключевые слова: художественное творчество, философия, человек, духовное воспитание, сольное исполнение, родина.

Annotation: In this article, Alisher Navoi, the great poet, thinker and statesman of the Uzbek nation, has a rich and rich scientific-theoretical heritage, his socio-political life, all the problems of the time, and his philosophical views are fully expressed. The great poet, like all thinkers, asked "How should a person be?", "What is the meaning of living?" - sought answers to the questions. He was able to create unparalleled works in poetry and prose. The current philosophy of the Timurid era is reflected in them.

Keywords: artistic creation, philosophy, human, spiritual education, solo performance, homeland.

San’at shunday bir sohaki, uni egallamoqchi, san’atkor bo‘laman degan kishi avvalo uning barcha yozilgan va yozilmagan qonunlariga, talablariga javob berishi shart. O‘zida san’atga bo‘lgan ishtiyoqdan tashqari, katta bir ijodiy mahoratni shakllantirishi va albatta eng muhimi olloh tomonidan yo‘qtirilgan san’atkorlik qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Biroq san’at ahli orasida ana shunday muhim jihatlarning unitilayotgani, san’atning oltin talablariining ahamiyati tushib borishi bardavom yashab kelayotgan, aytish lozim bo‘lsa, avj olib borayotgan muammodir. Bundan to‘qqiz asr oldin yaratilgan Sa’di Sheroziyning “Guliston” asarida ham ayni masala ko‘tarilgan alohida hikmatlar mavjud. Bundan ko‘rinadiki, san’at qoidalariga rioya etish yuksak axloq darajasida bo‘lgan rioya etmaslik esa aksincha.

Bugungi kunda san’atning eng ommalashgan turiga aylangan estrada qo‘shiqchiligida ayniqsa bu muammoni ko‘proq kuzatyapmiz. Kun sayin estrada xonandalarimizning soni ko‘payib, xalq ruhiga tobora singib bormoqda. Bu ijobiy hol albatta. Chunki tinch yurtda ijodga ehtiyoj ortadi. Ammo xonandalarning ko‘pchiligi san’at olamidan o‘zlarining xush ovozlari, jozibali qo‘shiqlari bilan emas, ekranlarda tinimsiz aylanadigan turli xil kliplarda o‘z qiyofalarini ko‘z-ko‘z qilish bilan o‘rin egallashga intilmoqda. bunday yo‘l bilan tomoshabin e’tiborini tortish tobora keng tus olib borayotgani juda achinarli.

Go‘zal yuzdin xush ovoz yaxshiroqdir,1
U nafs ozuqasi, bu dilga rohat.

Sa’diy aytganidek, san’atda xonandaning tashqi ko‘rinishidan ko‘ra ovozi va ijodiy salohiyati muhim. Ovozi xush bo‘lmagan, har kimning qo‘shiq kuylashga qiziqishi va bu borada yuqorida aytilgan yo‘llarni tanlashining birdan bir sababini taniqli bo‘lish istagi deb tushunish mumkin. Zebo, Kaniza, Yulduz Turdieva va boshqa estrada xonandalari ovozlari bilan emas, asosan kliplari bilan xalq ko‘ziga tanish ko‘rinib qolgan. Masalan, Nilufar Usmonova ham “ Joni” qo‘shig‘ida aniq bir syujet yo‘q, xonandaning o‘zi o‘ndan ortiq libosda, turli tuman soch turmaklarida hadeb ko‘rinaveradi. Vaholanki, qo‘shiq matni va mazmuni, ijro unchalik ham saviyali emas. Bunday holni erkak xonandalarda ham kuzatish mumkin. Masalan, Otabek Mutalxo‘jaev kliplarida taqinchoqlar taqib, o‘ziga haddan tashqari oro beradi. Demoqchimizki, ovoz va ijrodan qiyofa birinchi o‘ringa chiqib ketmoqda. Bu muammo faqat yoshlar orasida emas, balki, katta-katta san’atkorlar orasida ham, faqat ekranda emas konsert zallarida ham kuzatilmoqda. Qaysi bir san’atkor konsert bermasin, hashamdor va dabdabali sahna dikoratsiyalari, qimmatbaho, takror-takror almashtiriladigan liboslar uchun katta e’tibor beriladi. Biroq kuylanadigan qo‘shiqlarning barchasi fonogramma. Odamlar bunday kansertni radio, televidinie orqali yoki sd,dvd albomlardan ham ko‘rishi mumkin-ku.Bunday holni xalqqa jonli san’atini ko‘rsatish emas, o‘z-o‘zini ko‘z-ko‘z qilish deb tushunish mumkin.San’at ahli va asl san’at ixlosmandlariga esa san’atkorning bashang qiyofasidan ko‘ra shu qiyofaga mos , betakror ovoziyu go‘zal ijrosi kerak. Sa’diy so‘zi bilan aytganda,

Sabuh ahli qulog‘iga na xushdir,2
Mayin hamda hazin ovoz g‘oyat.

San’atkorlarimiz ijodning tashqi jihatlaridan avval uning mazmuniga ma’suliyat bilan qarashlari bu muammoning eng munosib yechimi bo‘ladi. Har bir xonanda o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri o‘lchagan holda, kasbining mohiyati va xalq oldidagi vazifalariga ma’suliyat bilan yondashgandagina asl san’at yashnaydi.

Go‘zal og‘iz, shirin bo‘g‘iz va labdan chiqqan ovoz,3
Kuy aytsa ham aytmasa ham dil erkalar, juda soz.
Ammo no‘noq qo‘shiqchining kekirdagin bezolmas,
Ko‘p ajoyib maqomlar: “Ushshoq”, “Xuroson”, “Hijoz”.

San’at fidoyilarni va haqiqiy iste’dod egalarini yoqtiradi. Buni anglamagan, maqsadlariga vosita deb bilgan san’atkorning yo‘li qisqadir. Vaqt chin san’at bilan sohtasini hech qachon adashtirmaydi. Faqatgina chin istedod egalarining nomlarigina asrlar davomida yashab qoladi. Xonandalarimiz orasida haqiqiy san’atni e’zozlaydigan, tom ma’noda iqtidorlilari ko‘p. Ular esam albatta hech bir to‘siqlarsiz el mehriga sazovor bo‘ladi. Sa’diy ta’birlaganiday, “Dovud kabi xushovozligi bilan suvni oqishdan qushlarni uchishdan to‘xtatishga qodir xonandalar, shu fazilatlari bilan kishilar ko‘nglini ovlaydi, farosat ahli esa unga har qanday hizmatni bajo keltirishga tayyor bo‘ladi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Гулистон" китоби, Саъдий Шерозий
2. Ibrohim Haqqul. Abadiyat farzandi. Toshkent, “Yosh gvardiya” 1990,
3. Mashriqzamin hikmat bo‘stoni. “Sharq”, 2008,

ALISHER NAVOIYNING FALSAFIY QARASHLARI

Qahramon Madrimov
O‘zDSMI, “Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati kafedrasi” o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalqining buyuk shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy g‘oyat boy va serqirra ilmiy-nazariy merosida uning ijtimoiy-siyosiy hayoti, davrning barcha muammolari, falsafiy qarashlari o‘zining to‘liq ifodasini topgan. Ulug‘ shoir ham barcha mutafakkirlar kabi “Inson qanday bo‘lishi kerak?”, “Yashashning ma’nosi nima?” - degan savollarga javob izlagan. Nazmda ham, nasrda ham tengsiz asarlar yarata olgan. Ularda temuriylar davrining dolzarb falsafasi o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, badiiy ijod, falsafa, insoniy, g‘oya, dialog, vatan, ilmiy-nazariy.

Аннотатsія: В данной статье великий поэт, мыслитель и государственный деятель узбекского народа Алишер Навои в полной мере выразил свою общественно-политическую жизнь, все проблемы того времени, а его философские взгляды в богатом и богатом научно-теоретическом наследии. Великий поэт, как и все мыслители, задавался вопросом «Каким должен быть человек?», «В чем смысл жизни?» - искал ответы на вопросы. Ему удавалось создавать бесподобные произведения в поэзии и прозе. В них отражена современная философия эпохи Тимуридов.

Ключевые слова: Алишер Навои, художественное творчество, философия, человек, идея, диалог, родина, научно-теоретическое.

Annotation: In this article, the great poet, thinker and statesman of the Uzbek people, Alisher Navoi, is fully expressed in his socio-political life, all the problems of the time, and his philosophical views in the rich and rich scientific and theoretical heritage. The great poet, like all thinkers, asked "How should a person be?", "What is the meaning of living?" - sought answers to the questions. He was able to create unparalleled works in poetry and prose. The current philosophy of the Timurid era is reflected in them.

Keywords: Alisher Navoi, artistic creation, philosophy, human, idea, dialogue, homeland, scientific-theoretical.

Badiiy ijod - insoniy kamolot uchun, ma’naviy yuksalish uchun, harakatlar faolligi uchun xizmat qiladi. U garchi, yakka qalbu ongning yaratig‘i bo‘lsa-da, butun

jamiyat a'zolari mulkiga aylanadi. Ibtidosi indivudallika xos esada, intihosi ommaviylik kasb etadi. Hayot falsafasi, yashash falsafasi sifatida namoyonlanadi. Chunki, unda donishmandlik bilan bashoratgo'ylik aksariyat hollarda uyg'unlashib ketadi. Bugunning bag'rida turib, ertaning hayotiy hayollari olamiga o'qiganni beixtiyor yetaklaydi. Mushohadalar ummoniga sho'ng'itib, uning tubidan fikr javohirlarini terdirtiradi. Uzoqni ko'ra bilishdek tafakkur olamining ma'no cho'qillarini zabt etishga undaydi.

Menimcha, milliy g'oya ezgu maqsadlarga yetkazuvchi eng to'g'ri, eng ravon, eng nurli yo'l bo'lsa, falsafa ana shu yo'lni go'yo yelkasida ko'tarib turuvchi zamindir. Mustahkam zamin ustiga qo'yilgan yo'l esa, hech qachon buzilmaydi. Uzoq yillar insoniyatga, uning istiqboliga yaroqlilik darajasini saqlab turaveradi.

O'zbek xalqining buyuk shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy (1441- 1501) g'oyat boy va serqirra ilmiy-nazariy merosida uning ijtimoiy-siyosiy hayoti, davrning barcha muammolari, falsafiy qarashlari o'zining to'liq ifodasini topgan. Ulug' shoir ham barcha mutafakkirlar kabi "Inson qanday bo'lishi kerak?", "Yashashning ma'nosi nima?" - degan savollarga javob izlagan. Nazmda ham, nasrda ham tengsiz asarlar yarata olgan. Ularda temuriylar davrining dolzarb falsafasi o'z aksini topgan.

Avvalo, Navoiy iymonning kishini hayvondan inson darajasiga ko'taruvchi bosh omilligini izoh qilar ekan, insoniylikning to'kis bo'lishi uchun hayo, sabr va shukrning zarurligini alohida ta'kidlaydi. Bu o'sha davr va zamonamiz uchun ham jahonshumul ahamiyatga ega. Chunki, sabr va shukr fazilatlaridan mahrumlik dunyo bo'ylab kishilarni o'z joniga, hatto o'zlari bilan birga o'z farzandlarining ham joniga qasd qilishgacha olib kelmoqda.

Xalq hayoti haqida o'ylash, u haqda g'amxo'rlik qilish shoir va mutafakkirning doimiy diqqat markazida kechdi. Uning fikricha, **inson hamisha yashash va baxtli bo'lishga haqlidir.** Navoiy insonlar haqida g'amxo'rlik qilishni eng oliyjanob insoniy fazilat, haqiqiy odamiylikning mezoni deb bildi.

Odami ersang demagil odami,[6]
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.

"Navoiy qit'alarida hiradmand, ulug' hikmatnavisdir. U qit'alarini:

Majmuni o'yla kishvarki, anglaki sathini,
Hikmat suyidin aylamisham qit'a-qit'a bog',[7]

[6] Alisher Navoiy, Mukammal asrlar to'plami, 7 jild, Toshkent. "Fan", 1991, 240 –bet.
[7] Ibrohim Haqqul. Abadiyat farzandi. Toshkent, "Yosh gvardiya" 1990, 4-bet.

deb bejiz ta’riflamagan edi. Bu tafakkur “kishvari”da o‘quvchining fikri o‘sadi, ko‘ngli nurlanadi, aqli faollashadi. Chunki Alisher Navoiy qit’alarida tabiatdagi oddiy qurg‘oqchilikdan koinot sir-asrorigacha, chumoliday inson qismati va uning davr, jamiyat, borliq bilan munosabatigacha - barcha-barchasi haqida fikr yuritilib munosabat bildirilgan” . - deya yozadi adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul.

Chindanda, u so‘z orqali ma’no “gavhar”larini, yuksak tushuncha va g‘oyalarni yuzaga keltirgan daho ijodkor edi. Misol uchun “Farhod va Shirin” dostonida Armanistonni adolat bilan idora qiluvchi, xalqqa tinch va osoyishta yashash imkoniyatini tug‘diruvchi va mamlakatni obod qilish bilan mashg‘ul bo‘lgan Mehinbonu obrazini yaratdi. Bu orqali u **xotin-qizlarga yangicha munosabatda bo‘lish** g‘oyasini ilgari surdi. Xotin-qizlar har ishda aqlu farosatda, dunyoni anglash va mamlakatni boshqarishda erkaklar bilan teng ekanligini ta’kidlab, Mehinbonu orqali adolatli malika obrazini kashf etdi.

Yana bir dalil sifatida Navoiyning suyukli qahramoni Farhodga nazar tashlasak, ulug‘ shoirning ta’riflashicha, Farhod o‘zida aqliy va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan. Ilohiy emas, balki, dunyoviy ishqqa ega bo‘lgan mard, jasur va insonparvar qahramondir. Olamni tushunmoq uchun Farhod Suqrotdan saboq oladi, jamiyatning razil va yaramas kuchlariga qarshi kurashadi, odamlar mushkulini yengillashtiradi. Farhod o‘zining ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra aslzodalarga mansubdir. Navoiy zamonasida aslzodalarning jismoniy mehnat bilan shug‘ullanishi ayb va nomunosib ish hisoblangan. Buyuk shoir esa kishilar ongida o‘rnashib qolgan bunday tasavvurdan mutlaqo boshqacha obrazni ko‘z o‘ngimizda yaqqol gavdalantiradi. **Mehnatning yaratuvchilik kuch-qudratini ulug‘ladi**. Farhod shahzoda bo‘lishiga qaramay, oddiy mehnatkashlar bilan yonma-yon turib ter to‘kadi, o‘z bilimi, hunari va aqliy qobilyatlari bilan kishilarga xizmat qilishni katta sharaf deb biladi.

Hunarni asrabon netgumdir oxir,[8]
Olib tufroqqamu ketgumdir oxir?..

Bundan tashqari u dono faylasuf sifatida barcha boylik, rohat-farog‘atning asosini insonning halol mehnati tashkil etadi deb ko‘rsatdi. Mehnat masalasi doirasida muhim ijtimoiy-falsafiy fikrlarni asoslab berdi. Davlatning yahlitligi, shoxlarning adolatli, fuqarolarning tinch va osoyishta bo‘lishlari mehnat bilan bog‘liqdir. Uning qator asarlarida ko‘plab saroy va qasrlar kurgan Xitoy me’morlarining mehnati ulug‘langan.

[8] Alisher Navoiy, Mukammal asrlar to‘plami. 8 jild, Toshkent, 1991, 230-bet

Navoiy mehnat mavzusi orqali **tengliq g‘oyasini** ilgari surdi, o‘z davrida ijtimoiy tabaqalarni ko‘zdan kechirar ekan, jamiyatdagi eng sog‘lom ijtimoiy kuch mehnatkash dehqonlar ekanligini, hokim sinf vakillari ichida saxovat, hayo, himmat va muruvvat kamayganidan qattiq iztirob chekdi.

A. Navoiyning fikricha, mansab va ulug‘lik insonga hos hususiyatdir. Inson ongi hamisha yuksak martaba, mansabga intilish bilan band bo‘ladi. **Mansab g‘aflatni kuchaytiradi**: mansabdorni o‘rab olgan kishilarning iltifot va mulozamatlaridan u mast bo‘ladi, amalni o‘tkinchi va bevafo ekanligini unutib qo‘yadi. Shuning uchun ham deydi Navoiy, kishi mansab va martabaga erishgach, xudbinlik va hudpisandlikka berilmasligi, mazlumlar dardiga malham bo‘lishi, podsho manfaati, xohish-irodasini amalga oshirishga intilishi, agar bordiyu podshohning hatti-harakatlari va siyosati shariat ahkomlari va iymon-e’tiqod talablariga zid bo‘lsa, u holda podshoga muloyimlik bilan arz qilib, uning xizmatidan ketishi kerak deb hisoblaydi. Demak:

Har kishikim, topsa davron ichra johu e’tibor,[9]
Kim aning zotida bedodu sitam bo‘lg‘ay qilig‘.

Navoiy urushga qarshi bo‘lib, adolatli va adolatsiz urushlarni bir-biridan farqladi. Podsholarni va odamlarni adolatga chorladi. Do‘stlik va ahil-inoqlik eng ezgu hislatligini uqtirdi. “Saddi Iskandariy” dostonida bu g‘oya yorqin ifodalanadi. Shoir odamlarga qarata shunday deydi:

Olam ahli bilingizkim ish emas dushmanlig‘,[10]
Yor o‘lung birbiringizgaki, erur yorlig‘ ish.

Navoiy vatan haqida buyuk gumanist sifatida fikrlaydi. Ma’lum bir jug‘rofiy doiradan chiqib, **Vatanga muhabbat g‘oyasini** keng mehnatkashlarning hayoti, ularning orzu va umidlari bilan bog‘laydi. Buyuk jahon davlati vujudga kelgandagina adolat talablari yuzaga chiqadi, davlatlar, xalqlar o‘rtasida urushlarga chek qo‘yiladi, barcha odamlar ahil qarindosh-urug‘ bo‘lib, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlab yashaydilar degan falsafani olg‘a suradi.

Davron elining jismida ham jon bo‘lg‘il,[11]
Ham jonlariga moyai darmon bo‘lg‘il.

Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida alohida ta’kidlaganidek: “Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, shoirlarning sultonidir. Inson qalbining

[9] Ibrohim Haqqul. Abadiyat farzandi. Toshkent, “Yosh gvardiya” 1990, 7-bet.
[10] Mashriqzamin hikmat bo‘stoni. “Sharq”, 2008, 94-bet.
[11] Mashriqzamin hikmat bo‘stoni. “Sharq”, 2008, 123-bet.

quvonchu qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi”.[12]

Agar menga “Kitobxonlikni qaysi yozuvchi yoki shoirning asarlaridan boshlash kerak?” savolini berishsa, hech ikkilanmay Alisher Navoiynikidan degan javobni aytgan bo‘lar edim. Boisi, qaysi kitoblarini qo‘lga olmay, o‘ta ma’nodor so‘zlaru, o‘ta ta’sirchan fikru iboralardan ko‘nglimga munavvarlik yuguraveradi. Donishmand bobomizni go‘yo qalblariga quyoshni jolab yashagandek tasavvurlayveraman. Nazmu nasrdagi bitiklari nozik va bebaho badiiy ifodalarga shu qadar boyki, ularni sharhlashga uncha-muncha odamning mushohada salohiyati yetavermaydi. Ta’bir joiz bo‘lsa, birgina Navoiy yaratgan o‘lmas ijod durdonalarini uqish va o‘qirmonlarga targ‘ibot qilmoqqa ming-minglab adabiyot bilimdonlari ham kamlik qiladi-yov.

Biz ularning safiga o‘zimizni qo‘shishga istihola qilgan holda faqat havaskor navoiyxon sifatida ba’zi tahlil va talqinlarimizni aytmoqqa bazo‘r jur’at topgandaymiz. Balki, kimlardir allaqachon aytgan fikrlarni bilib-bilmay takrorlashga yo‘l qo‘ysak, aybga buyurmaysiz. Sof ilmiylikdan ko‘ra ommabop yozganimiz Navoiy bobomizni bilishga va tushunishga chog‘langanlarni bitiklari mutolaasiga qiziqtirish niyatimiz ustuvorligi sababidandir.

Alisher Navoyining “Hayrat ul-abror” dostoni teran mazmuni va yuksak badiiyati bilan asrlar davomida ko‘pchilikni hayratga solib keladi. Xususan, dostonda qo‘llangan har bir so‘z o‘zining ma’no nozikliklari va o‘nlab qirralari bilan yuksak san’atkorona tarzda qo‘llanganligining guvohi bo‘lamiz. Yagona quyosh kalomining hadsiz jilosiyu, hadsiz jilvasidan barcha birday bahramand. Turkiyzabon shoirimiz qirq yoshdan o‘tgach, yanayam aniqrog‘i, nazmiy nuktadonlikda anchayin tajriba va mahorat kasb etgach, o‘z oldiga bag‘oyat mushkul ishni qo‘ya oldi. Navoiy “Xamsa”dek buyuk asarni yaratdi.

“Xamsa” chilikning yalovbardori bilan bahslashishning mas’uliyati naqadar yuksakligini chuqur anglagani uchun uni chinakamiga ko‘klarda ko‘rdi:

*Ganja **quyoshi**ni ko‘targach alam,*
Ayladi so‘z mamlakatin yakqalam.[13]

Do‘sti va ustozi Abdurahmon Jomiyning ta’rifida ham xuddi shu qiyosni qo‘llaydi:

*Vaqti **quyoshi**n chu qilib pardapo‘sh,*
Kilki qaro abrdek aylab xurush.
Lek manga ollida ajzu niyoz,

[12] I. A.Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. “Ma’naviyat”, 2008, 47- bet.
[13] Navoiy. Hayratul abror.- Toshkent:G‘.G‘ulom.1989. Maqoladagi qolgan nazmiy iqtiboslar ham shu kitobdan olindi.

Borcha ulusdin beribon imtiyoz.

***Mehr**din ofoq aro gar nurdir,*

Bu yerda Navoiy kamtarona holatda Jomiyni ko‘kdagi quyoshgayu, o‘zini zamindagi tuproqqa mengzayapti.

Shoirning nazdida Quyosh faqat nurbuloq emas, go‘zallar go‘zali timsoliga tenglangan. Chunonchi:

***Turki Xo‘tan** yopti chu zebo jamol,*

Mushkfishon bo‘ldi nasimi shamol.

Yuqoridagi bayt kechqurun quyosh botib, qorong‘u tusha boshlashi xususida. “Xo‘tan go‘zali” - Quyosh. Xo‘tan Sharqiy Turkistondagi shaharlardan biri. U bu yerda quyosh chiqadigan sharq ramzi ifodasi sifatida qo‘llangan.

Lu’bati Chin chehra nihon ayladi,

Zulfin ochib mushkfishon ayladi.

Endi esa quyosh Chin qo‘g‘irchog‘iday yuzini o‘girib olib, sochini yoyib qora mushk socha boshladi ma’nosini uqamiz.

Quyosh - Navoiyning eng suyumli so‘zi, uning bilan nazmining nozik navolarini namoyonlashi nihoyasiz. Ko‘ngil kezar gulshan (osmon) husniga mahliyona baytlarni bitar ekan, yana quyoshni unutolmaydi:

Anda nihon erdi pari paykare,

*Durji sipehr ichra samin **gavhare.***

E’tibor qilsak, quyidagi ma’noni anglaymiz: U yana bir boshqa gulshan (osmon) ga ko‘chdi, undagi har bir chamanni kezdi. O‘sha yerda shunday bir pari paykar o‘ltirardiki, u - osmon qutisining eng qimmatbaho gavhari (ya’ni quyoshi - M.A.) edi.

Dostonda sultonlar haqida gap ketganda dastlab ular ulug‘lansa-da, ana shu ulug‘likka munosiblik muhokamasida yana fikr quyoshga bog‘lanadi:

Ey falak avjidin o‘tub rif’ating,

*Oyu **quyoshd**in cholinib navbating.*

Mazmuni: Ey, martabasi falakning avjidan ham yuqori ko‘tarilgan odam, oy va quyosh sening sha’ningga nog‘ora bo‘lib chalinadi. Taxting mamlakat uchun abadiy mulk. Chodiring soyasida mamlakat quyoshi porlaydi.

Navoiy hukmdor kuchu quvvatini adolatda biladi va uni himmatga undaydi:

Kimniki, beloding etibdur asir,

Bo‘l anga adl ilgi ila dastgir.

Roy ila zulmatni munir aylamak,

Lutf ila olamni asir aylamak,

Tig‘ agar cheksa nechukkim quyosh,

Aylamak oning so‘ngg‘ida mehr fosh.

Shoir hukmdorni kimga adolatsizlik ko‘rsatgan bo‘lsa, unga adolatli munosabatda bo‘lishini, to‘g‘ri fikrlash bilan quyoshdek zulmatni yoritishini, lutf bilan olamni o‘ziga qaratishini istaydi. Hatto birovga quyoshdek tig‘ solsa ham, ortidan mehr-shafqat ko‘rsatishi kerakligidan ogohlaydi.

Xayru ehson vasfida qalam yo‘nganida saxovatning nainki suratiga, siyratigacha nazar tashlaydi. Quyoshning xatti-harakati bilan boyligi bisyorlarning isrofgarchiligi, telba va mastligini taqqoslab, idrokimizni tobora teranlashtiradi:

*Charxki, **mehr** oltunin aylar nihon,*
Yuzini oning qaro aylar jahon.
*Yoshurur anjum diramin turki **mehr,***
Yerga ko‘mar bosh tuban on sipehr
Chunki xazon ilgi sochar zarvaraq,
*Ko‘rki **quyosh** rashki bo‘lur har varaq.*

Demak, quyosh oltinni berkitgani uchun jahon osmonning yuzini (kechasi) qaro qiladi. Quyosh go‘zali yulduz kumushlarini yashirgani uchun osmon uni boshi bilan yerga ko‘madi. Kuz kelib oltin varaqlarini qo‘li bilan sochgani uchun har bir yaproq quyosh rangida bo‘lishini shoir badiiy jihatdan hayotiy tarzda xayru saxovatga qiyoslab dalillaydi.

Adab bobida to‘xtalganida tunu kuningga nur berib turadiganlar ota-ona ekanligini, ularning oyu quyoshday yakkayu yagonaligini, qoshida hamisha farzandlik burchini a’lo darajada o‘tashlik bola odobining umrbo‘yi betugal talabi bo‘lib qolaverishini anglashga chaqiradi:

Boshni fido ayla, ato qoshiga,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.
Tun kununga aylagali nur fosh,
*Birini oy angla, birini **quyosh**.*

Qanoatlining ta’madan yiroqliginiyu, ta’magirning xorlikka duchorligidan so‘z ochib, mol-mulkiga mag‘rur kimsalarni yana ko‘kning beta’ma ehsonchisini hamma uchun qadrli ne’mat - nonga o‘xshatadi, uning osmonga ko‘tarilganiga havaslantiradi. “Charxki, bir qurs ila tuzdi maosh” deya butun bir osmon bitta qurs, ya’ni non bilan kun kechirishini aytib boy insonlarni o‘zlarini katta deb bilmaslikka, qanoat boyligini boshda ko‘tarib yurishga da’vat etib, quyoshday qadr-qimmat topishlariga umidvor bo‘ladi. Qanoat fazilatini ulug‘lab, osmon aylanasini go‘yo uyning toqiga, quyoshni esa ana shu toqdagi naqshga qiyoslaydi:

Toqi muallo anga gardon sipehr,

Shamsasi *ul toq uza raxshanda mehr.*

Vafoni gavhar deb bilgan shoir o‘z zamonasida uni noyoblashgani uchun anqo ataydi. Bu bilan ham ko‘ngli to‘lmaydi. Quyosh yuzidagi chiroyli xat tusida ko‘z o‘ngimizda jonlantiradi:

Mehrigiyo demaki, anqodur ul,
Javhari fardu duru yaktodir ul.
Mehr *uzori uza xatti g‘ubor,*
Tun sochining tobida mushku totor

Vafo gavhari qanchalar sharofatli bo‘lmasin, qadr-qimmatidan ko‘ngli to‘lmasligini yashirolmaydi shoir. Kimki bir vafo qilsa, unga ming jafo javobidan kelib chiqib, achchiq haqiqatdan dalil keltiradi, xulosa beradi. Quyosh ham boshdan oyoq mehrdan iboratligi uchun har kecha osmon uni yerga kirgizib yuborish holatiga taqqoslaydi:

Chunki, ***quyosh*** *boshtin-ayoq bo‘ldi* ***mehr,***
Yerga kiyurdi ani har tun sipehr.

Ilm va ilmdorlar xususida gap ketganida Navoiy mustahkam e’tiqodidan chekinmagan holatda haqiqatni pardalab o‘tirmaydi. Olimlarning xorligi, johillarning azizligidan afsus chekish bilan cheklanmay, ma’rifat yalovini ushlaganlarni quyosh timsolida sifatlaydi, jonlantiradi. Jaholatparastlarni bulutga o‘xshatadi:

Ko‘ktaki, ko‘zgudek o‘lub ***nuru tob,***
Yopib oni oh tafidek sahob.

Bu behad san’atkorona qiyos: Osmonda quyosh ko‘zgudek yarqirab porlab turadi, bulut esa ko‘zguga puflangan hovurdek uni to‘sadi.

Navoiyning qalam ahllaridan iborat qavmning bir guruhi qalbi poku, bir guruhi turlanuvchanligi haqidagi maqolati ham quyosh so‘zidan bezaklangan. Nomaqbul va maqbul kotiblarning say-harakatlari va ularning ijobiy va salbiy xislatlari, oq qog‘oz ustidagi xizmatlari tahlildan o‘tkaziladi. Shoir oshiq-ma’shuqlarning nomalarini ko‘chirishni tilga olibgina qolmay, ijtimoiy hayotga daxldor maktublar el-ulusga nihoyatda nafdorligini ko‘rsatishga alohida urg‘u beradi:

Naf’da ul nav’ki ***mehri*** *munir,*
Qudrat aro o‘ylaki charxi asir.
Shakli hilol avjida tug‘ro anga,
Lavni shafaq boshida ***volo*** *anga.*

Ya’ni: bu xat odamlarga nurli quyoshdek foydali, yuksak osmondek qudratli. Yangi oy shaklidagi sarlavha ustiga bosilgan muhr tonggi shafaq ustidagi yuksak quyoshday.

Ulug‘ ijodkor odamlar orasida tong kabi kumush sochishga o‘rgangan kishilarning mehrini quyosh bilar ekan, ularning atrofida hasadgo‘ylarning, iblismijozlarning ham borligigacha unutmaydi. Elga mehri baxshidalarini madh etadi, xudbinlarni qoralaydi. Quyosh nurini to‘smoqqa chirangan bulutlarga achinadi:

***Mehr**ki - ravshanliq etar fosh ani,*
Kimga gunah - ko‘rmasa xuffosh ani.
*Lek **quyosh** javhari chun keldi pok,*
Bo‘lsa bulut nurig‘a mone’ ne bok.

YA’ni: Quyosh yorug‘lik berib, nur sochib turadi. Ko‘rshapalak buni ko‘rmasa kimga foyda ?! Quyoshning javhari pok yaratilgani uchun bulut uning nurini to‘sishga intilsa ne qo‘rqinchli. Shoir yaxshi insonlar bee’tibor qolmasligiga, yaxshilikning umri ziyodaligiga ishonadi. Buni hayotiy hodisalarning badiiy talqiniga singdirib yuboradi:

Shishaki ruxsor uza sepgay gulob,
Toq uza asrarlar ani orzulob.
Zulfu sanamlarning erur mushkfosh,
*Kim oni ruxsor uza asrar **quyosh.***

Tushunimizcha: shisha o‘zidagi gulobni odamlar yuziga sepgani tufayli uni avaylab tokchaning ustida asrashadi. Sanamlarning sochlari anvoyi xid tarqatib turgani uchun quyoshdek yuzining tepasidan o‘rin olganlar.

Navro‘zning butun borliqni ziynatlashi haqida to‘lib-toshib tabiat tasvirlarini berayotgan shoir hamal ayvonini quyosh yorita boshlashi bilan ko‘kning zaminga mehr izhori kuchayganidan darak berayotganini zavq-shavq ila olqishlaydi. Bu bejiz emas, umr gulshanida ham xuddi shunday quyosh charaqlaydigan bahoriy yoshlik pallalarda inson tanasi hamalga kirishidan hayot g‘animatligini, uning har lahzasi ezgulikka yo‘g‘rilishini juda-juda istagan ulug‘ ijodkor.

*Chun hamal ayvonini yorutti **mehr,***
Dahrg‘a mehr ayladi zohir sipehr.
*Umr **quyoshig‘a** chu bo‘ldi mahal,*
Inson baytush- sharafidin hamal.

Navoiy sadoqatli ishq bandalarini bebaho tuyg‘ular ardog‘idagi “jabri jafo”lariyu, fidoyiliklaridan hikoyat aylarkan, sevgilisiga sodiq oshiqning paxsa devor orasida azoblanib tursa-da, zarracha nola qilmaganini sharaflaydi va kech kirish pallasidagi quyoshni shunga yarasha g‘oyat chiroyli nom bilan ataydi:

*Tog‘ aro yoshundi chu **zarrin g‘izol**,*
Mushki Xo‘tan sochdi nasimi shamol.

G‘izol ohudir. Uning tog‘ orasiga yashirinish holatiga uyg‘unlab, ulug‘ ijodkor hayratona tarzdagi ta’rifni topgan.

So‘z mulkining sultoni xayoliy hayratini hayotiy hayratga omuxtalab yuborish uchun bebaho qalamini mohirona tebratgan. Birgina quyosh kalomining sinonimlari tizimini, chunonchi: **quyosh, xurshid, shams, alam, gavhar, nuri tob, zarli bayroq, zarrin ohu, bitta non, Chin qo‘g‘irchog‘i** va yana turli shakllardagi so‘z va iboralar ifodasini asar mazmun-mohiyatini teran ochishga va kuchaytirishga behad san’atkorona safarbar etgan. Osmonning, undagi oyu yulduzlarning ko‘rinishi, holati, harakati va vazifasigacha quyoshga bog‘lab aks ettirilgan.

“Hayrat-ul abror”ni qancha e’tibor bilan o‘qisangiz, shuncha ko‘proq saboq olaverasiz.Uqqanlaringiz o‘zingizniki, hayotda chinakam insoniy fazilatlar kasb etishingizga beminnat ko‘maklashaveradi bu kitob.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy, Mukammal asrlar to‘plami, 7 jild, Toshkent. “Fan”, 1991.
2. Ibrohim Haqqul. Abadiyat farzandi. Toshkent, “Yosh gvardiya” 1990,
3. Mashriqzamin hikmat bo‘stoni. “Sharq”, 2008,
4. I. A.Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. “Ma’naviyat”, 2008,
5. Navoiy. Hayratul abror.- Toshkent:G‘.G‘ulom.1989.

CONTENTS

No	Authors and topics of the article	Pages
1	Buta Oralovich Xushvaqtov Murod Namazovich Mirzayev XROM (III) DAN IBORAT SANOAT OQOVA SUVLARINI TOZALASH	4-8
2	Sardor Abduxamidov Abduvali o‘g‘li INTERNET TARMOG‘IDAN FOYDALANISHNI HUQUQIY JIHATDAN TARTIBGA SOLISHGA OID XALQARO STANDARTLARNI ISHLAB CHIQISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI	9-16
3	Feruza Hojiqulova Dona qizi Otabek Eshquvvatov Abdullayevich UMUMDAVLAT SOLIQLARI VA DAROMADLARIDAN MAHALLIY BUDJETLARGA AJRATMALAR HISOBI	17-19
4	Shohnazar Avazxonov Gulnazarzoda BOSHLANG’ICH SINFLARDA MENTAL ARIFMETIKA DARSINI O’QITISH USULLARI	20-27
5	Farxod Tursunov Ermakbayevich Izzatillo Abdulxoshimov Xokimjon Otaxonov TEXNOLOGIYA TA’LIMIDA TO’GARAK ISHLARINI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK ASOSLARI	28-32
6	Shaxnoza Jaloldinova Xasanboyevna Nilufar Zuxriddinova Nusrat qizi Feruza Abdurazaqova Xidoyat Shokirova TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLAR	33-37
7	Dostonbek Boydedayev Xusniddin o‘g‘li AMIR TEMURNING AMIR HUSAYN BILAN O‘ZARO MUNOSABATI	38-42

8	Gulnoza Akbarova Xasanboevna BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI TARBIYASIGA INDIVIDUAL YONDASHUV	43-45
9	Mamajonova Guluzro Abdurashitovna Xusnida Jo'rayeva, Shalola Nazirova Madina Baxromova TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI	46-50
10	Dostonbek Boydedayev Xusniddin o'g'li AMIR TEMURNING ILYOSXO'JA BILAN O'ZARO MUNOSABATLARI	51-55
11	Guluzro Mamajonova Abdurashitovna Izzatillo Abdulxoshimov Xokimjon Otaxonov TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK SISTEMALARINI TAKOMILLASHTIRISH	56-63
12	Guluzro Mamajonova Abdurashitovna Abdulaziz Abdumannopov Diyorbek Ibroximov TEXNOLOGIYA FANI BO'YICHA METODIK XIZMATNI TASHKIL QILISH VA AMALGA OSHIRISH OMILLARI	64-69
13	Guluzro Mamajonova Abdurashitovna Masuma To'lanboyeva Moxichexra Axmadjonova Rayxon Jo'rayeva TEXNOLOGIYA FANI TO'GARAKLARIDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	70-75
14	Shahnoza Jaloldinova Xasanboevna Mushtariy Maxmudova Marjona Yaxshiboyeva Zarnigor Shodmonova TEXNOLOGIYA TA'LIMINI O'QITISHDA KEYS-STADINI QO'LLASH IMKONIYATLARI	76-78

15	Muhayyo To‘rayeva Qurbon qizi SHARIF YUSUPOV - MANBASHUNOS OLIM	79-85
16	Shaxnoza Jaloldinova Xasanboyevna Xoldorova Shoira Kamolova Mexrigiyo Olimjonova Durdona TEXNOLOGIYA FANINING UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI VA ROLI	86-88
17	S.Q.Ubaydullayev F.E.Tursunov D.R.Toshpo‘latova O‘QUVCHILARNI TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA KASB – HUNARGA YO‘LLASHNING SHART – SHAROITLARI VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	89-94
18	BASICS OF ORGANIZATION OF ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE BUSINESS ENTITIES Babur Mamarasulov Bakhtiyar ugli	94-97
19	GO‘ZAL YUZDIN XUSH OVOZ YAXSHIROQDIR Feruza Karayeva	98-100
20	ALISHER NAVOIYNING FALSAFIY QARASHLARI Qahramon Madrimov	101-110

ESLATMA!
“SCIENCE SHINE” xalqaro ilmiy jurnaliga kiritilgan ma’lumotlar va dalillarni haqqoniy va keltirilgan iqtiboslarni to‘g‘riligi hamda aniqligi uchun shaxsan mualliflar javobgardirlar!

NOTE!
The authors are personally responsible for the truthfulness of the information and evidence included in the international scientific journal "SCIENCE SHINE" and the correctness and accuracy of the quotations!

International scientific journal
SCIENCE SHINE

Issue 7
30. 06. 2023

©Jurnal hajmi: 114 bet.
©Farg‘ona viloyati, O‘zbekiston Respublikasi
©http://science-shine.uz/